 1262 وَالْعِرْقَ خَلْفَ الْأُذُنِ لِلشَّقِيقَةِ * وَقَرْحَةٍ فِي هَامَةِ عَنَقِهِ

- 1263 وَنَفْصِدُ الْعِرْقَيْنِ فِي الْمُوقَسَيْنِ * لِلْمَرَضِ الْكَائِنِ فِي الْعَيْنَيْنِ
 1264 وَالْعِرْقُ فِي الْيَافُوخِ مِنْ قُرُوحِهِ * وَوَرَمٌ يَخْذُ فِي سَطُوحِهِ
 1265 وَنَفْصِدُ الْوَدَجِ فِي الْآلَامِ * نَخْصُهُ مِنْهُنَّ بِالْجُذَامِ
 1266 وَفِي عِلَاجِ الْعَيْنِ عِرْقَ الْعَبْهَةِ * وَفِي صُدَاعٍ دَائِمٍ وَسَعْفُهُ
 1267 وَالْعِرْقُ فِي الرَّأْسِ الَّذِي فِي الْمُؤَخِرِ * مِنَ الصَّدَاعِ دَائِمًا وَالسَّدْرِ
 1268 وَالْعِرْقُ قَدْ يُفْصَدُ فِي الْأَزْنَبَةِ * لِمَا يَرَى مِنْ بَثْرِ فِي الْوَجْنَةِ
 1269 وَالْعِرْقُ مِنْ تَحْتِ اللِّسَانِ تَفْصِدُهُ * مِنْ وَرَمٍ وَذُبْحٍ فَتَقْصِدُهُ
 1270 وَنَفْصِدُ الْعِرْقِ الَّذِي فِي الرُّكْبَةِ * لِمَرَضِ الْأَخْشَاءِ تَحْتَ السُّرَّةِ
 1271 وَتَفْصِدُ الصَّافِقَ فِي السَّاقَيْنِ * لِمَا تَرَى مِنْ مَرَضِ الْفَخْذَيْنِ
 1272 وَيُفْصَدُ النِّسَاءُ عَلَى أَمْرَاضِهِ * وَالْعِرْقُ فِي الْقَدَمِ فِي أَغْرَاضِهِ

﴿ الْعَمَلُ فِي الشَّرَاطِينِ ﴾

- 1273 وَيُبْتَرُ الشَّرَيَانُ فِي الصُّدَاعِ * وَمَا يَرَى فِي الْعَيْنِ مِنْ أَوْجَاعِ
 1274 إِذَا خَشِينَا مِنْ نُزُولِ الْمَاءِ * فِي الْعَيْنِ مِنْ شِدَّةِ هَذَا الدَّاءِ
 1275 وَوَرَمٌ حَدُوثُهُ مِنْ فَتْحِهِ * وَلَا يَسِيلُ دَمُهُ مِنْ سَطْحِهِ
 1276 شَقٌّ لَهُ وَابْتِزْرُهُ أَوْ فَسْلُهُ * وَافْصِدْهُ إِنْ شِفَتْ أَوْ اقْطَعْ كُلَّهُ
 1277 وَامْنَعُهُ بِالرَّبْطِ أَوْ الْمِكْنَوَاءِ * عَنْ نَزْفٍ مَا يَجْرِي مِنَ الدِّمَاءِ
 1278 وَدَاوَهُ تَدْوِيَةَ الْجِرَاحَةِ * حَتَّى تَرَى صَاحِبَهُ فِي رَاحَتِهِ

﴿ الْجُزْءُ الثَّانِي مِنَ الْعَمَلِ بِالْيَدِ فِي اللَّحْمِ ﴾
وَأَوَّلًا فِي الشَّرْطِ

- 1279 وَسَمِلَ اللَّحْمَ فَمِنْهُ الشَّـرْطُ * وَالْقَطْعُ وَالْكَيُّ وَمِنَ الْبَسْطِ
1280 وَالشَّرْطُ مِنْهُ عَمَلٌ يُجْرِي دَمَهُ * وَمِنْهُ مَا تَمَّصُهُ بِمِنْجَبَتِهِ
1281 يَجْرِي بِهِ الدَّمُ مِنَ السُّطُوحِ * فِي الْجِسْمِ ذِي الْبُتُورِ وَالْقُرُوحِ
1282 وَرُبَّمَا نَحْجُمُ دُونَ الشَّـرْطِ * فَمَا نُرِيدُ نَقْلَهُ مِنْ خِلَاطِ
1283 وَتَارَةً فَارِغَةً نُلِصِقُهَا * وَمَرَّةً بِقِطْنَةٍ نُحْرِقُهَا
1284 لِكَيْ نَفْشَ الرِّيحَ مِنْ مَكَانٍ * وَنُصْلِحَ الْأَعْضَاءَ بِالْإِسْخَانِ

﴿ الْعَمَلُ بِالْقَطْعِ فِي اللَّحْمِ ﴾

- 1285 وَكُلُّ مَا يُقَطَّعُ كَالْمَامِرِ * وَكَالْأَلِيلِ وَكَالشَّائِرِ
1286 وَكُلُّ مَا يُعْفَنُ مِنْ أَطْرَافٍ * وَمِثْلُ بَسْفَايَجَةِ الْأَنْصَافِ
1287 وَإِصْبَعٍ تَزِيدُ أَوْ تَلْتَصِقُ * وَجَفْنٍ عَيْنٍ حِينَ لَا يَفْتَرِقُ
1288 وَعِنَبَةٍ إِذَا مَا بَسَّرَتْ * وَقُلْفَةٍ الْإِخْلِيلِ مَهْمَا انْفَلَقَتْ
1289 وَلَحْمٍ قَرَحَةٍ إِذَا مَا خَبَّتْ * وَقَرَحَةِ الرُّضِ إِذَا مَا عَفِنَتْ
1290 وَيُقَطَّعُ الزَّائِدُ فِي اللِّسَانِ * وَلِلَّذِي يَقَعُ فِي الْأَذَانِ
1291 وَيُقَطَّعُ اللَّحْمُ عَلَى الرُّجَاجِ * وَالنَّبْلِ وَالنُّصُولِ فِي الْإِخْرَاجِ
1292 وَتُقَطَّعُ الْأَثْدَاءُ فِي الرِّجَالِ * وَمَا يُرَى فِي السَّاقِ مِنْ دَوَالٍ
1293 وَكُلُّ مَا كَانَ مِنَ الْبَوَاسِرِ * وَمَا يُعْفَنُ مِنَ النَّوَاسِرِ

- 1294 وما قَدِ اسْوَدَّ مِنَ الشَّحْوِمِ * وما تَعَفَّنَ مِنَ اللِّحْوِمِ
 1295 وكُلُّ ما طَالَ مِنَ اللَّهْـبَاءِ * وكُلُّ ما زَادَ عَلَى اللَّشَّاتِ
 1296 وَيُقَطَّعُ اللَّحْمُ لِعِرْقٍ مَدَنِي * وكُلُّ ما انْسَدَّ لَنَا مِنْ أُذُنٍ
 1297 وكُلُّ ما قَدِ زَادَ فَوْقَ النَّظِيرِ * وَأَنْ تُرَى ظُفِيرَةٌ فِي الْبَصِيرِ
 1298 وتَوْتَةٌ وَشَنَرَةٌ وَظَفِيرَةٌ * وَذَكَرُ الْغُنَى وَفَتْقُ السُّرَّةِ
 1299 وما قَدِ اسْوَدَّ لَنَا مِنْ قُلْفَةٍ * وكُلُّ ما انْسَدَّ مِنَ الْمَقْـمَدَةِ
 1300 وكُلُّ ما تَقَطَّعَتْ لِنَفْعَمَا * ومِثْلُهُ مِنْ خَارِجٍ قَدْ وَقَعَا
 1301 فَيَا حِاطَةَ عِلَاجٍ مَا انْفَرَى * وَيَانِدِمَالِ كُلِّ عَضْوٍ انْتَرَى

﴿ الْعَمَلُ بِالْكَيْ فِي اللَّحْمِ ﴾

- 1302 وكُلُّ ما تَكْوِيهِ فِي الْأُبْدَانِ * فَهَوَ لِقَطْعِ الدِّمِ مِنْ شَرِيَانِ
 1303 وَمِنْ عُرُوقٍ بُتِرَتْ كِبَارِ * أَغْيَا الطَّيْبِ دَمُهُنَّ الْجَارِي
 1304 وَفِي جُسُومٍ رَطْبَةٌ تَجْفِئُهَا * وَفِي لُحُومٍ رَخْوَةٌ تَكْشِفُهَا
 1305 وَكَيْ تُسَخِّنَ جُسُومًا بَرَدَتْ * وَتَمْنَعُ الْبَلَاتِ مَهْمَا اطَّرَدَتْ

﴿ الْبَطُّ مِنْ عَمَلِ الْيَدِ فِي اللَّحْمِ ﴾

- 1306 وكُلُّ ما تَعْمَلُهُ مِنْ بَطِّ * فَهَوَ لِمَا تُخْرِحُهُ مِنْ خِلَاطِ
 1307 كَيْمَدَةٍ تُخْرِجُهَا مِنْ وَرَمِ * وَعَفْنٍ مُحْتَقِنٍ مِنَ السِّدَمِ
 1308 وَالْمَاءِ فِي التَّيْنَيْنِ أَوْ بَرْدَةٍ * وَالْمَاءِ فِي الرَّأْسِ وَمِثْلِ عُقْدَةٍ

1309 وكالْحَصَى تُخْرِجُهَا وَالسَّلْعَةَ * وَمِثْلُ شِرْيَانٍ وَقَطِيعُ غُذَّةٍ

1310 وَحَبْنٍ وَفِيلَةٍ مَائِيَّةٍ * وَفِيلَةٍ كَبِشَلِهَا لَحْمِيَّةٍ

﴿الجزء الثالث من العمل باليد وهو العمل في العظم﴾
وأولاً في الجبر

1311 وكلُّ ما تُخَدِّثُهُ مِنْ صُنْعٍ * فِي الْعَظْمِ مِثْلُ الْكَسْرِ أَوْ الْخَلْعِ

1312 وكلُّ ما تَطْبُهُ مِنْ كَسَرٍ * فَإِنَّمَا عِلَاجُهُ بِالْجَبْرِ

1313 رَدُّ الشَّظَايَا فِيهِ حَتَّى تَنْطَبِغَ * وَلَنْشُرَ مَا يَنْخُسُنَا فَتَنْتَجِعَ

1314 وَشَدُّهَا بِصَنْعَةٍ حَكِيمِيَّةٍ * لَا ضَاغِطٌ فِيهَا وَلَا مَرْخِيَّةٌ

1315 عَصَائِبُ يُبْدَأُ بِهَا مِنَ الْوَسَطِ * ثُمَّ يَزَادُ الشَّدُّ حَتَّى تَرْتَبِطَ

1316 مِنْ فَوْقِهَا رَفَائِدٌ مَلْفُوفَةٌ * مِنْ فَوْقِهَا جَبَائِرٌ مَصْفُوفَةٌ

1317 وَلَيُطْفَنَ غِذَاءُهُ فِي الْأَوَّلِ * وَكَثْفَنُهُ آخِرًا كَنِي يَنْتَلِي

1318 وَاحْذَرِ عَلَيْهِ أَوَّلًا مِنْ وَرَمٍ * سَخْنٍ لِمَا يَنْصَبُ فِيهِ مِنْ دَمٍ

1319 إِزْدَعُهُ مَا اسْتَطَعْتَ حَتَّى تَمْنَعَهُ * بِكُلِّ بَارِدٍ لَكِنَّمَا تَذْفَعُهُ

1320 وَامْنَعُهُ مِنْ تَحَرُّكِ أَوْ يَنْسَرَا * أَلْزِمُهُ فِي طَوْلِ السُّكُونِ الصَّبْرَا

﴿علاج الخلع في العظم﴾

1321 وَالْخَلْعُ طَبُّهُ بِمَا يُمْنَعُهُ * حَتَّى إِلَى مَوْضِعِهِ تَعْرِدُهُ

1322 وَبَعْدَ مَا تَرُدُّهُ تَشْشُدُهُ * تَتَرَكُ ذَاكَ زَمَانًا تَحْشُدُهُ

- 1323 تُلْزِمُهُ مِنَ الدَّوَاءِ قَابِضًا * تَطْعِمُهُ مِنَ الطَّعَامِ حَامِضًا
 1324 حَتَّى تَرَاهُ سَالِمًا مِمَّنْ وَرِمَ * وَلَا تَخَافُ الْإِجْتِمَاعَ مِمَّنْ دِمَ
 1325 أَقَلُّ مَا تُبْرِئِهِ فِيهِ شَهْرٌ * وَرُبَّمَا يَتِمُّ ذَاكَ عَشْرٌ
 1326 وَقَدْ فَرَّغْتَ مِنْ جَمِيعِ الْعَمَلِ * وَالْآنَ أَقْطَعُ بِقَوْلٍ مُكْمِلِ



**EL-URCÛZE FÎT-TİBB'IN
ÖZBEK TÛRKÇESİ VARYANTI**

“Urjuza” Abu Ali ibn Sino qalamiga mansub she’riy asarlarning barkamoli va eng ulug’idir. Bunday asar yaratish uchun muallif ko’p ishlagani va o’z g’oyalarining xalqqa tezda yetib borishini istaganligi haqida shunday deydi: “Men bu “Urjuza”ga kamolot to’nini va husn saruposini kiygazdim, uni o’rganish osonroq, mashaqqati kamroq bo’lsin deb, yozilishini oson, vaznini yengil qildim. Kimki unga idrok ko’zi bilan qarasa, bu hajmi kichik asar tufayli katta ilmga erisha olishi mumkin”.

Abu Ali ibn Sinoning “Urjuza”si nafaqat asl nusxada, balki boshqa tillarga tarjima qilish va unga sharh yozish yo’li bilan o’rganib kelindi. Bu “Urjuza”ga Muso al-Bag’dodiy (vafoti 1472-y.), Ahmad as-Saqliy (vafoti 1427-y.), Ahmad al-Muqanno (vafoti 1418-y.), Abul-Abbos an-Nabotiy (vafoti 1237-y.), Ibn Rushd al-Qurtubiy (vafoti 1198-y) kabilar sharh yozganlar. Mazkur sharhlar orasida eng mo’tabari Ibn Rushdning “Kulliyot” sharhi bo’lib, uning ba’zi nusxalari bizgacha yetib kelgan. Ibn Rushd o’zining “Urjuza”ga yozgan sharhi muqaddimasida: “Abu Ali Ibn Sino “Urjuza”si tabobat ilmiga madxal, ya’ni muqaddimadir” – deydi. “Bu asar, — deydi Ibn Rushd, — tabobat ilmining barcha umumiy qoidalarini o’z ichiga olgan hamda tabobat haqida yozilgan ko’p madxallardan ancha yaxshiroqdir. Bu asarni yodlash oson, o’zi kishiga zavq beradigan va diqqatga sazovor kitobdir”.

Ibn Rushdning ustoz, andaluslik mashhur tabib, shunday deydi: “Garchi “Qonun” “Urjuza”dan hajm jihatidan katta va mavzusi jihatidan juda keng bo’lsa-da, “Urjuza” undan yuqori turadi, chunki u ixchamligi bilan ham tib qoidalarining muhimlarini o’z ichiga olgan va tib haqida yozilgan hamma asarlarning o’rniga o’tadigan asardir”. Abu Marvonning mazkur so’zlari bejiz emas, haqiqatan, “Urjuza” tibbiyotning asoslarini o’rganish va uning nazariy masalalarini tez o’zlashtirishga yordam beradi.

Abu Ali ibn Sino bu asarida birinchi galda odamlarni davolashni nazarda tutmay, balki unda bo’ladigan kasalliklar hamda ularni davolash yo’llarini ayrim misollar bilan-gina bayon etgan. Xulosa qilib aytganda, “Urjuza” tibbiyot ilmiga bir muqaddima, uni o’rganuvchilar uchun darslik sifatida yozilgan.

“Urjuza” bir varaq nasriy muqaddima va 1326 baytdan iborat asosiy qismda bayon etilgan. Muqaddimada muallif risolani yozish sabablarini tushuntiradi. Asosiy qism o’z navbatida ikki bandga bo’lingan. Birinchisi nazariy qism bo’lib, unda tibning tavsifi va taqsimlanishi, unsurlar, mizojlar, xiltlar, a’zolar, ruhlar, quvvatlar, fe’l (ta’sir)lar haqida gapirilgan. Havo, ovqatlar, ichimliklar, uyqu va uyg’oqlik, harakat va harakatsizlik, bo’shanish va bo’shanmaslik, nafsoniy kayfiyatlar kabi nazariy masalalar aytilgan. So’ng ayrim-ayrim a’zo kasalliklarining belgilari haqida gapiriladi. Tomir urishi va undan kasallik belgilarini topish, to’puq, jigar, siydik, axlat, teri kabilardan kasallikka dalil topish, qon, safro, savdo va balg’am g’alaba qilishining belgilari bayon qilingan. Buhron (krisis) va o’limdan ogohlantiruvchi belgilar aytilgan.

“Urjuza”ning ikkinchi qismi amaliy qism bo’lib, u sog’liqni saqlash va uning tadbirlariga bag’ishlangan. Bunda xususan uyqu tadbiri, harakat qilish tadbiri, safarda bo’ladiganlar tadbiri bayon etiladi. Ona qornidagi chaqaloq va dard tutish vaqtidagi tadbir, go’dakning o’ziga xos boshqa tadbirlari haqida ommabop, tushunarli, sodda tilda so’z yuritiladi.

ABU ALI IBN SINONING O‘Z “URJUZASI”GA YOZGAN NASRIY MUQADDIMASI

Ash-shayx ar rais tabib Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh¹ ibn Sino aytdi: Hakimlar va qadimgi vaqtda o‘tgan fozillarda podshohlar, amirlar, xalifa va vazirlar, qozikalon va faqihlarga nasr va nazmda turli fan va ilmlar [bo‘yicha] asar yozib taqsim etish yo‘li bilan xizmat ko‘rsatish odat bo‘lib kelgan. Xususan tabib shoirlar ko‘pincha rajaz² bahrida nazmlar yozganlar va kunnoshalar¹ tuzganlar. Bundan maqsadlari rajazga [she‘r aytishga] kim mohir — kim ojiz ekanligini aniqlash bo‘lgan. Buning natijasida podshohlar tabobat qonunlari va hikmat [falsafa]ning yo‘l-yo‘riqlari bilan tanishganlar.

Men fors mamlakatida tabobat hunarining majlislarda talqin etilishdan, kasalxona va madrasalarda muhokama qilinishdan chetda qolganini ko‘rdim. Tabobat va uning tarmoqlari to‘g‘risida bilimi bo‘lmagan, qonunlaridan tushunchasi yo‘q va o‘zida u haqida tasavvuri ham bo‘lmagan kishilar xususan ozgina o‘rganib olish bilan uni o‘ziniki qilib olganlar, natijada bu fanda yaxshi chiniqmagan kishilar to‘rga chiqib olib shayxlik² da‘vo qila boshlagan.

Shuning uchun men qadimgi hakimlar³ uslubi va odatiga ergashib janob Sayyidimiz⁴ baland martabali vazir, faqih⁵ va ulug‘ qoziga [tangri u kishining umrini uzun, izzat-u, martabasini davomli etsin, hasadchi va dushmanlarini yiqitsin va xor qilsin] tabobat ilmining hammasini va uning ajoyib [yo‘sindagi] taqsimini o‘z ichiga olgan shu urjuzani [yozib taqsim etish] bilan [bir] xizmat qildim. Men bu urjuzaga kamolot to‘nini va husn saruposini kiygizdim, uni o‘rganish osonroq va mashaqqati kamroq bo‘lsin deb, to‘qilishini oson va vazni- ni yengil qildim. U [vazir] urjuzaga fahmi [idroki] bilan qarasa va uni ilm xazinalariga kiritisa, bu kichik hajmli [asar] tufayli katta ilmga erishishga yordam oladi va kim usta, kim telbaligini, kim boshlang‘ich ma‘lumotda-yu, kim [ilmiy quvvatda] yetuk ekanligini, kim haqiqatchi-yu, kim yolg‘onchiligini ajratib oladi.

O‘ziga yaqinlashtirishga yordam berish to‘g‘risida Ollohning o‘zigagina murojaat etaman, chunki u yordam beruvchidir va uning o‘zigagina tavakkal qilinadi¹.

1 T. dan qo‘shildi. Keyingi o‘rinlarda tushunib olish zarur bo‘lgan shartli qisqartmalarni ma‘lum qilamiz: T. — “Urjuza”ning Toshkent qo‘lyozma nusxasi. Bu qo‘lyozma O‘zR FA ShIda inv № 3008/1Uda saqlanadi. P. — “Urjuza”ning Parij nusxasi. S.—P. — “Urjuza”ning Sankt-Peterburg qo‘lyozma nusxasi. Mazkur qo‘lyozma S. Peterburgdagi Davlat universitetida MO — 391/1 da saqlanadi. Ibn Rushd — “Urjuza”ga Ibn Rushd al-Qurtubiy (1119—1199) yozgan sharhining Qohira nusxasi. Arab tilida yozilgan bu sharh “Kulliyot” nomi bilan ham atalgan (Nashrga tayyorovchidan).

2 Urjuza aruzning rajaz bahrida yozilgan she‘r va adabiy janr; uning to‘la bayti olti turoqli bo‘lib, mustaf‘ilun olti marta takrorlanadi. Ba‘zilar urjuza — rajaz bahrida yozilgan qasida deyishadi. Rajaz bahrida yozilgan she‘rlarda har bir misra oxiri bir-biri bilan qo‘fiyadosh bo‘lgandagina urjuza bo‘ladi. Agar faqat baytning oxirigina qo‘fiyalangan bo‘lsa, bu urjuza deyilmaydi.

URJUZA

1. Yagona podshoh, osmonlarning egasi ulugʻ va karamli tangriga hamd [maqtov]lar boʻlsin!
2. U [tangri] kamchilikdan pok, qadimiylik bilan [sifatlanuvchi] tanho boʻlib, bizdagi [dunyodagi] borliqlarni yoʻqlikdan chiqaruvchidir.
3. U oʻz nurini bizning aqllarimizga sochadi,¹ toki aqlimiz chegarasiga sigʻadigan ilmlarning yashirinlari yuzaga chiqadi.
4. U oʻz fazli-karami bilan haqiqatan insonni va [undagi] tilni yaratdi. Uni soʻzlash xususiyati bilan [boshqa hayvonlardan] ortiq qildi.²
5. [Tangri] insonga his bilan bilishni ilhom etadi, yashirin [narsalar boshqalarga] taqqoslash bilan oydinlashganidek.³
6. Aql — hayot va toʻgʻri shohidlar [nazariyalar] egasi boʻlgan nafs-i notiq [inson] ga yopishgandir.
7. [Tangri] aqlni, his-sezgini va hayotni maxluqotga adolat bilan boʻlib berdi.
** Barcha izohlar kitob soʻngida batafsil berilgan. Ayrim soʻzlarning maʼnosini mukammalroq anglash uchun “Tib qonunlari” koʻp jildligidan foydalanishingiz mumkin (tahr.).*
8. Hamma [borliq] tabiatga bogʻlandi — aloqador boʻldi, shu bilan [tangrining] ajoyib hikmati takomillashdi.⁴
9. Oʻsha vaqtda kim oʻz nafsini yomon narsalardan tozalagan boʻlsa, u kishi fazilatga erishdi.
10. [Boshqa] jonivorlar bilan inson orasidagi ayirma ikki: qoʻl hunari va til bilandir.⁵
11. Bas, shunday ekan, kishilarning eng ulugʻi hunarda yaxshirogʻi-yu, soʻzda tili oʻtkirroqʻidir.
12. Chunki ular haqiqatda zotlari bilan band qilinganlar [oʻz ustlarida ishlaganlar] va lazzatlarning eng pishigʻini [soʻz mahoratini] zotlariga bagʻishlaganlar.
13. Shoir tilning amiridir, tabib badanning shohi boʻlgani kabi.
14. Bular soʻz mahorati bilan nafsni qayrasalar, u [tabib]lar xayrixohlik bilan badanni davolaydilar.
15. Mana bu urjuza, bunda tabobatning hammasi — uning ham nazariy, ham amaliy [qismi] takomillashgandir.

16. Mana men ilm[lar]dan eslab qolgan nasrimni nazm qilishga kirishdim.⁶

Tibning tafsiri⁷ haqida

17. Tib sog‘liqni saqlash [va] biror sababdan tanada paydo bo‘lgan kasallikning tuza-tilishidan iboratdir.

Tibning taqsimlanishi haqida

18. U, birinchidan, ilmiy [nazariy] va amaliy qismlarga bo‘linadi: ilmiy [qismi] esa uch narsani o‘rganish bilan mukammal bo‘ladi.⁸

19. U narsalardan [biri]: yettita tabiat⁹ va [ikkinchisi] oltita zaruriyot.¹⁰

20. Yana [uchinchisi] uchta narsaki, ular tib kitoblarida yozilgan kasallik, araz va sabablardan iboratdir.

21. Tibning amaliy qismi ikkiga bo‘linadi: biri qo‘l bilan qilinadi.

22. Boshqasi dori bilan hamda belgilangan g‘izo bilan bo‘ladi.

Tibbiy narsalar va birinchi galda rukn¹² [unsur]lar haqida

23. Ammo [yettita] tabiiy narsalar[dan biri] ruknlardirki, ularning bir-biriga aralashu-vidan badanlar vujudga keladi.

24. Shular haqida Buqrotning so‘zi to‘g‘riki, ular — suv, olov, tuproq va shamol [havo]dan iboratdir.

25. Bu haqda [Buqrotning] dalili shuki, qachon jism halok bo‘lsa, u noiloj qayta o‘sha [to‘rt ruknga] aylanadi.

26. Agar o‘sha ruknlar [hammasi] bir [xil tabiatli] bo‘lganda, birorta jonli narsani [in-sonni] kasalliklar tufayli buzilgan ko‘rmasding.¹³

Tabiiy ishlarning ikkinchisi —mizojni¹⁴ bilish

27. Mizojni bilish uni davolash [ishida] yordam beradi.

28. Ammo mizojning quvvatlari to‘rttadir. Hakim ularni yolg‘iz-yolg‘iz [ataydi] yoki qo‘shib [ataydi]¹⁵.

29. [Ular] issiq, sovuq, quruq va yumshoq [ho‘l]dan iboratki, u ushlagan kishining sezgisiga yetadi.

30. Mizoj quvvatlari ruknlarda, zamonda, o‘sadigan [narsalar]da va joyda ham bo‘ladi.¹⁶

31. *Ustuqus*¹⁷ esa oddiy mizojlarning eng nihoyasini oluvchi [egallovchisi]dir.¹⁸
32. Issiqlik olovda va havoda, sovuqlik esa tuproqda, suvda bo‘ladi.
33. Quruqlik olov bilan tuproq o‘rtasida, ho‘llik esa suv bilan bulut [havo] o‘rtasida.¹⁹
34. Bizga borliq [vujud]ni hukm qilib beradigan javharlar orasida birikmaslik ham, birikishlik ham bor.²⁰
35. Ular bitta tabiatli bo‘lib qolmaslik uchun turlicha bo‘lgan, bir-biriga zid bo‘lib ko‘rinmaslik uchun birikishgan.
36. Unsurdan bo‘lak murakkab [narsalar] mizojini ta’riflashimiz aksariyat yuzasidan-dir.²¹
37. U to‘rt sifatni o‘zida to‘plagan,²² [shuning uchun] biz uni mo‘tadil, deb qonun qilib olamiz [ushlaymiz].
38. [Shu to‘rt sifat] unda ma’lum bir miqdorda birikishgan. Shuning uchun u dastur va o‘lchovdek bir narsa bo‘lgan.
39. [Mo‘tadillikdan] chetlanishga xos bo‘lgan va bir tarafga [zid tomonga] moyil bo‘lgan har bir [mizoj].
40. Sira quvvatlardan xoli bo‘lmaydi, lekin u quvvatlar unda [mizojda] barobar bo‘lmaydi.
41. [O‘sha mizoj] ag‘labiyyat yo‘li bilan yo olovlik, yo tuproqlik yoki suvlik deb ataladi.²³
42. Va undan [mizojdan] bir xili borki, u yellarga²⁴ nisbat beriladi. Bularning hammasi istilohda shunday deyiladi.
43. Men mizojning²⁵ to‘qqizta turini [bayon qilib] tugatdim va bu to‘g‘rida o‘zimdan chiqarib so‘zlamadim.

Zamon [fasl]lar mizojining bayoni

44. Zamon ustida [mizojlarni gapirsam], taqdir bilan [farazan] gapiraman, chunki bu haqda [fikrga] ozodlik berish uchun hech yo‘l yo‘q.
45. Qish [fasli]da balg‘am kuchayadi, bahorda esa qon qo‘zg‘aladi.
46. Yoz [faslida] safro bo‘lsa, savdo [qora o‘t] kuz fasli uchundir.

O‘suvchi [narsalar] qismlarining bayoni

47. O‘suvchi [narsalar] ma’dan, o‘simlik va badani tirik [jonivor]larga bo‘linadi.

48. Ulardan jismga g'alaba qilgani dori, o'stirgani esa g'izo bo'ladi.²⁶
49. Ularning mizoji totib ko'rish va to'g'ri qiyos bilan bilinadi.
50. Shirin, sho'r va achchiq [mazalar] quruqlik [mizojiga], o'tkir [maza] esa issiqlik [mizojiga] to'g'ri keladi.
51. Va hamma taxir, nordon va burishtiruvchi mazalar sovuqlik va quruqlik [mizojiga] xos bo'ladi.
52. Va har bir suvlik va ta'mi yo'q narsalar, albatta, mo'tadil mijozlidir.
53. Va har bir yog'liq [narsalarning mizoji] issiq va ho'l bo'ladi; bemaza va chuchuk esa sovuq va ho'ldir.

Yoshga²⁷ [tegishli] mizojlar bayoni

54. Tirik narsalar yoshiga qarab [mizojda] har turli bo'ladi. Bizning gapimiz bunda inson ustida [boradi].
55. Yigitlar va bolalarning mizoji issiq va ularning ahvoli [kayfiyati bir-biriga] yaqindir.
56. Lekin yigitlar quruqlikka, bola[lar] esa sezilarli rutubatga [yaqin].
57. O'rta yoshli kishining [mizoji] o'lchab ko'rsang, sovuq bo'ladi. Qari kishi ham shunga o'xshash, [balki] undan yomonroqdir.
58. Har ikkalasining mizojida quruqlik ham oriz bo'lgan. Va qariyaning xiltlarida pishib yetilmaganlik bor.²⁸

Erkak va ayollar [mizoji] haqida

59. Erklarda quruqlik va issiqlik, xotirlarda esa sovuqlik va ho'llik [bo'ladi].²⁹
60. Yumshoq va semiz badanning mizojida sovuqlik va ho'llik bo'ladi.
61. Gavda tuzilishi oriq bo'lgan kishilar mizojida quruqlik bo'ladi.
62. Gavda tuzilishida har kimning tomirlari keng [bo'lsa], albatta, u issiqlik [belgisi] dir.
63. Tomirlari [yuqoridagining] aksi bo'lgan har bir kishining [mizoji] juda sovuq bo'ladi.
64. Mo'tadil tuzilgan gavda [mizoji] yuqoridagilar orasida [o'rtacha] o'rinni egallaydi.³⁰

Ranglar va birinchi navbatda teri rangiga qarab mizojni aniqlash bayoni

65. [Kishilarning] rangiga qarab [mizojiga] dalil axtarma, agar unga mamlakatlarning ta'siri bo'lgan bo'lsa.³¹

66. *Zanjda*³² issiqlik tanlarni o'zgartirib yuborgan, hatto u tanlarning terisiga qoralikni kiyim qilib kiygizgan.

67. *Saslablar*³³ o'ziga oqlikni olgan, shu qadarki, ularning terisi nafis-nozik bo'lib ketgan.

68. Agar yetti iqlimning³⁴ chegarasini bilib olsang, mizojning [hamma] turlariga oshno bo'lgan bo'lasan.

69. O'sha iqlimlardan [mizojda] mo'tadil va tekisi to'rtinchisidir;³⁵ rang unda mizojga tobedir.

70. Bug'doy rangli sariq kishi safroga, gungurt tuproq rangli kishi esa savdo [mizojiga] nisbatlangan — mansub bo'ladi.

71. Qizil tan qon ko'pligidan [nishona], fil suyagiga o'xshash oq tana balg'am [mizoj] lidir.

72. Qizillikka aralash oq [tan] mizoji o'rtacha miqsorli [mo'tadil]dir.

Mo'yning ranglari haqida

73. Mo'yi oq kishida sovuq mizoj bo'ladi va mizoji issiq kishining sochi qora bo'ladi.³⁶

74. Sovuqligi kam kishi malla rangli mo'y bilan, issiqligi kam kishi esa qizil tusli mo'y bilan [bilinadi].

75. Mizoji mo'tadil kishi mo'yining rangi qizg'ish malla bo'ladi.

Ko'z ranglarining bayoni

76. Ko'zning qorachig'i ichidagi yaxsimon tiniq rutubat³⁷ va uning oldidagi tuxumning oqiga o'xshaydigan rutubatning³⁸ jismi kichik [va qattiq] ravshan bo'lib,

77. U jismlarning joyi ko'tarilgan va u joyda toza, yaltiroq — munavvar yog'du beruvchi nur bo'lsa,

77a. Shunday ko'z ko'k bo'ladi va uning aksi esa surma rangli bo'ladi.³⁹

78. Agar sen surma ranglilik sababini ko'k ranglilik sababiga aralashtirsang, u vaqtda

koʻz shahlo⁴⁰ boʻladi.

79. Agar [koʻrish] ruhi kam boʻlsa, koʻz shahlo boʻladi yoki koʻzda ruh koʻp boʻlsa, u vaqtda u yonib turadigan boʻladi.

Tabiiy narsalardan uchinchi — xilllar⁴¹

80. Jism har xil tus va mizojli boʻlgan xilllardan yaratilgandir.

81. Ular balgʻam, sariq oʻt, qon va qora oʻt (savdo)dan iboratdir.

82. Tabiiy balgʻam mazasiz va moʻtadil sovuqlikka ega [bir] xildir.

83. [Balgʻamdan] bir xili borki, uni shishasimon [balgʻam] deyiladi, u quyuq va mizoji sovuq boʻladi.

84. Uning yana bir xili bor, uning taʼmi shirindek, oʻzi esa haroratdan xoli boʻlmaydi.

85. Yana bir xil balgʻam boʻladiki, uni shoʻr deb ataladi, uni harorat va quruqlikka moyil koʻrasan.

86. Undan bir xili nordonroq boʻlib, u sovuqroq boʻladi. Meʼda buzilgan paytda u balgʻam meʼdada boʻladi.

87. Oʻt — safro har rangda boʻladi, [undan] biri tutunsimon deb taʼriflanadi.

88. Undan bir xili zangor va gandanoga oʻxshashdir, shu xilining yomonligi koʻpdir.

89. Undan boshqa bir xili tuxum sarigʻisimon deb ataladi va u quvvatlarida yomon emasdir.

90. Oʻt qopchigʻida turadigan qizil ranglisi⁴² ham bor. Safroning hamma xillari ham haroratga nisbat beriladi.

91. Qon shunday narsaki, uning vujudga kelishi jigardandir, u jigar tomirlari [orqali] jasadga oʻtadi.

92. [Qonning] bir qismini yurak oʻz ichiga olgan. Qon oʻz quvvatlarida issiq [va] hoʻldir.

93. Savdoning turar yeri taloq [qora jigar]dir. Bu tushuncha amrimahol emasdir.

94. Qonning loyqasi tabiiy savdo, loyqadan boshqasi esa tabiiy boʻlmagan [savdodir].

95. Keyingisi [tabiiy savdoning boshqa xillarga] aralashuvidan yoki boshqa xillarning kuyishidan kelib chiqadi.

Tabiiy narsalarning to'rtinchisi — a'zolar

96. Badandagi a'zolarning asosiylari to'rtta,⁴³ undan boshqasi shularning shoxobchalari deb bilinadi.

97. Ulardan biri jigardir. U jasad uchun g'izo [qon] berish vazifasini bajaradi.

98. Yurak esa jismni hayot bilan g'izolantiradi. Agar yurak bo'lmaganda jism o'simlik kabi bo'lardi.

99. U [yurak] jonli⁴⁴ badanda unsur kabidir. U o'tkazadigan [tabiiy haroratni] *abhar*⁴⁵ [orqali badanga) o'tkazadi.

100. Bosh miya esa orqa miya va asablar bilan yurak olovini yallig'lanib ketishdan asraydi.

101. So'nggi ikkitasi bilan bo'g'inlar harakatga keladi. Ikki moyak esa nasllanish olatidir.

102. Ular bola tug'dirib [jonivorlar] navini saqlaydi, ular yo'q bo'lsa, jonivorlar navi uzilib qolardi.

103. Go'sht, yog' va turli bezlarni olsak, ular yuqoridagilar uchun qurol bo'lib xizmat qiladi.

104. Suyak, parda va boyloq[lar] badan uchun suyanchiq va ehtiyotdir.

105. Bular [badan] shakli va qomati tugal bo'lsin uchun [yaratilgan]. Shularning hammasi asosiy a'zolariga xizmatkor[lik vazifani o'taydi].

106. Oyoq, qo'ldagi tirnoqlar [barmoqlarga] yordam uchun, mo'y esa chiqindilarni [badandan ketkazish] hamda ziynat uchundir.

Tabiiy narsalardan beshinchisi — ruhlar⁴⁴

107. Ruh bo'linadi: ruhi tabiiyga, u yaxshi va toza bug'dan iboratdir.

108. Va [xiltlardan] toza bo'lgan yurakdagi ruhga, u shunday [ruhki], hayot u tufayli bo'lib turadi.

109. Yana miyada bo'ladiganiga ham bo'linadi, uning jinsi [ya'ni u] parda ichiga quyilgan⁴⁷ [yaratilgan].

110. Uning turlari miya qorinchalarida tugal — yetuk bo'ladi. His va fikr qilish shu [ruh] bilan bo'ladi.⁴⁸

111. Har bir ruhning o'ziga xos quvvati borki, u quvvatni o'zidan boshqasi o'zlashtira olmaydi.

**Tabiiy narsalarning oltinchisi — quvvatlar⁴⁹
va ularning tabiatlari haqida**

112. [Inson] tabiatiga tegishli deb hisoblanadigan yettita quvvat navlarda va shaklda turlichadir.
113. [Ulardan biri bachadonda] maniyni o'zgartiradigan quvvat; biroq bu paytda [urug'] biron narsaga o'xshamaydi.⁵⁰
114. [Boshqa bir] quvvat jasadlarga surat beradi — ularga shakl, hajm va [a'zolar] adadini beradi.
115. [Yana] tortuvchi, yetiltiruvchi [pishiruvchi], tutib turuvchi va chiqaruvchi quvvatlar ham bor.
116. Yana bittasi jismga munosib bo'ladigan — o'xshaydigan g'izoni a'zolarga yopishtiradigan quvvatdir.⁵¹
117. [Quvvati] hayotiy ikkita, har ikkalasining ishi ikki xildir.
118. U ikki [quvvatdan] biri harakatli tomirlarni⁵² yozish va qisish [yo'li] bilan tomir urishini [pulsni] vujudga keltiradigandir.
119. Uning singlisi [ikkinchi quvvat] ta'sir etuvchi, har bir narsadan ta'sirlanadi.⁵³
120. Bir narsani sevish yoki yomon ko'rish [ruhan] tushish yoki ko'tarilish kabi.

Nafsoniy quvvatlar bayoni

121. To'qqizta quvvatlar nafsiy [quvvat] hisoblanadi. Undan bittasi hisga tegishlidir.
122. Eshitish, ko'rish, hidlash, totib ko'rish va hamma a'zoga umumiy bo'ladigan tegib sezish.
123. [U nafsoniy quvvatlardan] biri mushaklarga ulanuvchi [yetuvchi] quvvat bo'lib, o'sha bilan yigit [kishi] o'z bo'g'inlarini harakat qildiradi.
124. Ular ichida narsalarni ko'zgudagidek qilib xayolga keltirish quvvati ham bor.
125. Yana bitta quvvat borki, u bilan tafakkur qilish vujudga keladi va [boshqa] bir quvvat bilan xotirlash [hosil] bo'ladi.

**Tabiiy narsalarning yettinchisi —
fe'l [ish]lar to'g'risida**

126. Quvvatlar ishining hammasi o'sha quvvatlar kabi sanoqlidir. Chunki ishlar [navda turlicha bo'lgan] quvvatlar ta'siridandir.

127. Ba'zan ishtirok bilan, ya'ni talaffuzi bir, tushunchasi bir nechta bo'lgan fe'l bir fe'l deb aytilaveradi. Masalan, tortish, o'zgartirish va ushlash-tutish kabilar.⁵⁴

128. Hamda g'izoning o'tishi va [ishtaha] kabi[lar]ga ham aytiladi. Tortish esa quvvatga xos bo'lgan sodda bir ishdur.

129. G'izoni istash ikki ishdan: sezish va tortishning birlashuvidan vujudga keladi.

130. Sezish va daf qilish [itarib tashlash] u o'gish [nufuz]dir. O'tish shu ikkalasidan iborat bo'lgan ishdur.

Zaruriy ishlardan birinchisi havodir

131. Havoga quyoshning hukmlari [ta'siri] bor. U hukmlar [yil] fasllarida va yoritqichlarga tushishida ayon bo'ladi.

132. Iqlimlarga ham uning [quyoshning] ta'siri bor, bu haqda aytib o'tildi.

Quyosh bilan yulduz[lar]ning havoga ta'siri

133. Havo har bir chiqadigan va botadigan yoritqichlar [oralig'idagi masofa miqdori] ga nisbatan ham o'zgaradi.

134. Quyosh qachon yulduzga yaqinlashsa, havoda alangalanishni qo'zg'otadi. [Havoni qizdiradi].

135. Yulduz qachon quyoshdan uzoqlashsa, havo bir oz sovigan ko'rinadi.

136. Agar nahs⁵⁵ [kunlari] yaqinlashishda bo'lsa, sen kishilarga [o'z] tadorukini qilishga — chorasini ko'rishga hukm qilaverasan.⁵⁶

137. Va agar su'ud⁵⁷ [baxtli kunlar] bo'lsa, u yerda sen sihat-salomatlikning hammasiga hukm qila olasan.

Shahar [mamlakat] va tog'larning joylanishiga qarab havoning o'zgarishi⁵⁸

138. Qaysi bir shahar tog' ustida joylashgan bo'lsa, u yer [boshqa yerga nisbatan] sovuq bo'ladi.

139. Agar shahar [tog'lar tagidagi] chuqurlikda joylashgan bo'lsa, uning mizojida issiqlik bor, deb hukm qil!

140. Agar [shahar tog'ning] janubida joylashgan bo'lsa, unda issiq shamol esib turishiga hukm qilinadi.

141. Agar tog'lar u shaharning janubida bo'lsa, shimoliy shamolning sovug'i unga ta'sir qiladi.

142. Agar [tog‘lar] g‘arb tomonda bo‘lsa, u shaharning havosi og‘ir bo‘ladi, sharq tomonda bo‘lsa, toza bo‘ladi.

Dengiz va shamollarga qarab havoning o‘zgarishi⁵⁹

143. Dengizlarda bu hukmning teskarisi bor. Bu haqda ilm ahllari shunday deyishadi.⁶⁰

144. Shamollar havoda mizoj o‘zgarishi paydo qiladi. Yoritqichlar oralig‘idagi masofa miqdorida paydo bo‘lgani singari.

145. Janub shamolida harorat va namlik bor, shuning uchun ham ba‘zan undan sasish vujudga keladi.

146. Sovuqlik va quruqlik shimoldan esadigan shamolda bo‘ladi. Shuning uchun yo‘talga zarar beradi [uni kuchaytiradi].

147. Sabo shamoli [sharq tomondan esadigan shamol]da harorat va latifli, dabur [g‘arb tomondan esadigan shamol]da esa sovuqlik va zichlik bor.

Tuproq va suvlarga qo‘shni [yaqin] bo‘lish tufayli havoning o‘zgarishi

148. Har bir yeri zax va atrofi ochiq, namlik bo‘lgan.

149. va chuchuk suvlik hovuzlarga ega bo‘lgan mamlakatning mizojida, albatta, rutubat bo‘ladi.

150. Agar biror mamlakat qoyalarga va tuzlik suvga yaqin bo‘lsa, havoda quruqlik paydo bo‘ladi.

Yashaydigan joylarga qarab [havoning] o‘zgarishi

151. Ko‘p ochib turiladigan turar joy hamma shamollarga ochiq duchor bo‘ladi.

152. Qishda uning sovug‘i, yozda esa issig‘i bo‘ladi.

153. Yer ostidagi dahliz uy [yer to‘la]ga yuqoridagi hukmning teskarisi bilan hukm qil!

Kiyim-kechakka qarab [havo ta’sirining] o‘zgarishi

154. Ipak va paxtadan tayyorlangan kiyimlarda issiqlik, sayqal berilgan va kanopdan ishlanganlarida esa sovuqlik bo‘ladi.

155. Momiq bilan yungda issiqlik bo‘ladi, shu bilan birga, ularda ozgina quruqlik ham bor.

**Xushbo‘y o‘simlik va atir kabi
hidlaniladigan narsalarga qarab
[havo ta’sirining] o‘zgarishi**

156. Har bir xushbo‘y o‘simlik va har bir gulning mizojiga harorat bilan hukm qilaver.

157. Ulardan hozir aytiladigan beshta narsani istisno qil: mirta, tol va nilufar.

158. O‘z rangida turgan qizil gul va gunafsha. Albatta, bular sovuqlik bilan is beradi [mizoji sovuq bo‘ladi].

159. Sandal og‘ochi va kofurdan bo‘lak xushbo‘y modda va atir[lar]da issiqlik bordir.

Ranglarning ko‘zga ta’siri

160. Ranglarning ko‘zga foydalirog‘i — qora bo‘lgani yoki yashil bo‘lganidir.

161. Oq va sariq [ranglar] yog‘dusini sochsa, zarar bo‘ladi, chunki ularning yog‘dusi [ko‘zning ko‘rish quvvatini] taratib yuboradi.

**Zaruriy narsalardan ikkinchisi
yeyish va ichishdir**

162. Bil, g‘izo haqidagi hukm shuki, u o‘shiga qobiliyati bor narsalarni o‘stiradi.

163. Singib, tarqalib ketish sababli badandan kamayadigan har bir narsaning o‘rnini darhol u [g‘izo] egallaydi.

164. O‘zidan toza qon [paydo] bo‘ladigan va toza qonga aylanadigan g‘izo maqtaniladi. [Ya’ni u foydali g‘izo hisoblanadi].

165. Bug‘doy unidan bo‘lgan muloyim non va yosh jo‘jalar go‘shti ham shunday.

166. Ko‘katlardan — olabuta, bu o‘t bemor kishiga mos keladi.

167. [G‘izoning] ba’zisi g‘aliz bo‘ladi. Masalan, toza oq non, uchinchi yoshga qadam qo‘ygan qo‘yning lazzatli go‘shti kabi.

168. Razroziy⁶¹ deb tanilgan baliq riyozatda charchagan kishining g‘izosidir.

169. Undan [g‘izodan] yana bir xili borki, u muloyim [latif] bo‘ladi-yu, [lekin] o‘zi yoqimsizdir: gorchitsa, piyoz va sarimsoqlar kabi.

170. Mana shular safroni tug‘diradi [paydo qiladi] va ular ko‘pincha dori qilib olinadi. [Davolanishda foydalaniladi].

171. Undan [g'izodan] ba'zisi borki, u savdoni tug'diradi, ba'zi bir jismlarga kasal paydo qiladi.

172. Qarigan taka va qari sigir go'shti, zararda yomon bo'lgan elanmagan undan pishirilgan non kabi.

173. Va yana undan [g'izodan] ba'zisi bor, u yomon ko'riladi, balg'amni tug'diruvchi g'aliz baliq bilan sutlar kabi.

Suv va boshqa ichimliklar hukmi

174. Shirin anhor suvlari asliy rutubatni saqlaydi.

175. [U suvlar] chiqindilarni [ma'lum] yo'l orqali haydaydi va g'izoni tomirlarga yuboradi.

176. Suvlarning afzali yomg'ir suvining xolisi; unga zarari bor hech bir narsa aralashmagan.

177. Ba'zan suvlar tabiiy [holatdan] chiqqan bo'ladi: ularning hukmi boshqa narsalar aralashgan [suvlar] hukmidekdir.

178. Har bir ichimlik badanga g'izo beradi, masalan, sharob, nabiz va sut.

179. Yoki badanni o'z tabiatiga moyil qiladi, masalan, ilitilgan sikanjubinga o'xshash.

Zaruriy narsalardan uchinchisi — uyqu va uyg'oqlik

180. Uyqu nafsoniy va hissiy quvvatlarning harakatlardan dam olishidir.

181. [Uyqu] badanlarning ichini qizituvchidir. Shu bilan kishi taomni yaxshi hazm qiladi.

182. [Uyqu] agar haddan oshib ketsa, miya qorinchalarini⁶² xiltlar bilan to'ldirib yuboradi.

183. [Uyqu] badanlarga rutubat beradi yoki ularni bo'shashtiradi va ularni barhayot qilib turgan haroratni o'chiradi.

184. Mo'tadillikda bo'lgan uyg'oqlik hislarni tetiklik tomon harakatlantiradi.

185. Ishlarda kuchni qo'zg'otadi va badanni chiqindilardan tozalaydi.

186. Uyg'oqlik uzayib ketsa, uyqusizlik [paydo] bo'ladi-yu, nafslarga g'am va bezovtalikni vujudga keltiradi.

187. U ruh va badanlarni ozdiradi, ko'rk va ranglarni buzadi.

188. U koʻzni ich-ichiga tushiradi; [ovqat] hazmini buzadi. Tafakkur qilishni yoʻqqa chiqaradi va jismni oriqlatadi.⁶³

**Zaruriy ishlardan toʻrtinchisi —
harakat va harakatsizlik**

189. Riyozatlar⁶⁴ [jismoniy harakatlar]ning bir xili moʻtadildir, ana shundayiga boʻysunish kerak.

190. Chunki u gavalarni toʻgʻri, moʻtadil qiladi va ulardan chiqindi,⁶⁵ kirlarni chiqaradi.

191. Badanni gʻizoni [yaxshi] qabul qilishga tayyorlaydi va yosh bolani oʻsish-unishi uchun qobiliyatli qiladi.⁶⁶

192. [Riyozat] ortiqcha boʻlib ketgandagi holat charchash deyiladi, u ruhni boʻshatadi va horgʻinlik keltiradi.

193. Begona⁶⁷ haroratni alangalatadi va badanni rutubatdan boʻshattiradi.

194. Ortiqcha ogʻriq tufayli asablarni kuchsizlantiradi. Hali qarilik [payti] kelmay turib jismni qaritadi.

195. Rohat [jismoniy harakatsizlik]ning ortiqcha boʻlishi seni magʻrur qilmasin, chunki uning ortiqcha boʻlishidan foyda yoʻqdir.

196. Uning ortiqcha boʻlib ketishi baʼzan badanni yomon xilt bilan toʻldiradi va jismni gʻizo [qabul qilishga] hech tayyorlamaydi.

**Zaruriy ishlarning beshinchisi —
boʻshalish va boʻshalmaslik**

197. Jismdagi hamma aʼzolarning, jumladan, miyaning ham [har xil xiltlardan] boʻshalishga ehtiyoji boʻladi.

198. Bahorda tomirdan qon olish va dori [surgi] qilishning kishilar uchun gʻoyat manfaati bor.

199. Qustirish yoz faslida ishlatiladi, savdo esa kuzda chiqariladi.

200. [Ogʻizga suv olib] gʻargʻara qil va misvok⁶⁸ ishlat, shunda tish va tanglayni tozalagan boʻlasan.

201. Siydikni [qistagan vaqtda] boʻshat, boʻlmasa sariq suv kasaliga⁶⁹ muhtalo boʻlasan va [ayollarda] hayz qonining ham badanni buzish [xavfi borligi uchun] chiqar!

202. Qulanj⁷⁰ kasalligiga sabab boʻladigan ich toʻxtatishni ishol bilan boʻshat, [ichni]

bo'shatish bilan shu kasallikdan qutqarasan.

203. Kirlarni ketkazish uchun hammomdan foydalan va bu xususda sustlik qilma.

204. Badanning sathidan keraksiz narsalarni chiqarish va terini kirdan tozalash uchun ham hammomdan foydalan!

205. Jinsiy aloqani yoshlarga qo'yib ber. Shu tufayli ular yomon narsalardan salomat bo'lsinlar.⁷¹

206. [Jinsiy aloqani] tabiiy ozg'in kishilarga, o'rta yoshlilarga va zaif kishilarga yaxshi ko'rsatma.⁷²

207. Kimki ovqatdan keyin [bevosita] jinsiy aloqaga ruju' qilsa, unda niqris⁷³ kasalligi va [boshqa] dardlar yuz beradi deb qo'rqit.

208. Jinsiy aloqaga ko'p ruju' qilish badanni zaiflashtiradi va jismlarga turli balolarni keltiradi.

Zaruriy narsalarning oltinchisi — nafsoniy kayfiyatlar [holatlar]

209. G'azablanish [kishida] haroratni qo'zg'atadi va ba'zan u jismga zarar ham yetkazadi.

210. Qo'rqish⁷⁴ esa sovuqlikni qo'zg'atadi. Ko'pincha u haddan oshib ketib, hatto halok ham qiladi.

211. Shodliklarning ko'p bo'lishi badanning yayrashini demakdir. Ba'zan u ortiqcha semirish bilan ozor beradi.

212. Xafalik — qayg'u ba'zan oriq kishini o'ldiradi va u ozishga muhtoj kishiga foyda qiladi.

Tabiiylikdan tashqari bo'lgan narsalar, ya'ni illatlar va kasalliklar. Birinchidan bo'laklari bir-biriga o'xshagan a'zolardagi⁷⁵

kasalliklar

213. [Go'sht va suyak kabi] bo'laklari bir-biriga o'xshaydigan a'zolarda [har xil] kasalliklar topiladi.⁷⁶

214. 1. [Moddalarga, xiltlarga] ega bo'lmagan harorat tufayli bo'ladigan kasallik, masalan, diqqiy [isitm]a yoki so'lish kasalligi kabi.

215. 2. Xilt bilan bo'lgan issiqlikdan keladigan kasallik, masalan, sasib-chirishdan

boʻladigan isitma kabi.

216. 3. Yuqoridagi kasalliklarning baʼzisi sovuq boʻlib, ularda moddalar [xiltlar] boʻlmaydi, muz yoki qor sababidan muzlash — qotib qolish kasalligi kabi.

217. 4. Va baʼzisi sovuq boʻlib, unda xilt boʻladi. U ortiqcha balgʻamdan vujudga kelgan falaj kasalligi kabi.

218. 5. Kasalliklarning bir xili hoʻl boʻlib, unda [xilt] boʻlmaydi, shunda [kishi]ning gavdasi koʻrinishda⁷⁷ boʻshashgan boʻladi.

219. 6. Tanadagi xiltlar sababli boʻladigan hoʻl kasallik, sariq suv boʻlganda qorinning toʻlib ketishi — shishishi kabi.

220. 7. Va ortiqcha moddalari [xiltlari] bor quruqlik kasalligi saraton shishi va bezlar kabi.

221. 8. Badanlarda boʻladigan xiltsiz quruqlik kasalligi, kamchilikdan [boʻshliqdan] hosil boʻladigan tirishish kasalligi kabi.

Qurol aʼzolaridagi kasalliklar bayoni

222. Yaratilishda bir ofat kelganda, qurol [aʼzolar]da kasallar topiladi.

223. Tabiiy holatidan ortiqcha boʻlishi, masalan, katta bosh yoki kam boʻlishi, masalan, kichik meʼdaga oʻxshash.

224. [Aʼzoning] shaklida biror xato boʻlib qolgan boʻlishi, [masalan], boshning shaklini savatga oʻxshaganini koʻrasan.

225. Xuddi shunga oʻxshash [aʼzoning] ichki tomonida biror kasallik voqe boʻlgan boʻlsa, [masalan] qadamning ichki tomoni et bilan toʻlgan boʻladi.

226. Agar biror narsa [ichki] yoʻllarda voqe boʻlsa, buyraklarda toshmalardan toʻsiq hosil boʻlgani kabi.

227. [Tabiatida] dagʻallikka ehtiyojli boʻlgan [aʼzo] silliqlashib qoladi. Masalan, haddan ortiq rutubatli meʼda kabi.

228. Silliqlikka muhtoj [aʼzo] dagʻal boʻlib qoladi, quruqlik oriz boʻlgan tomoq kabi.

229. Baʼzan [aʼzoning] soni [tabiiylikdan] chiqadi, masalan, barmoqlarning oltita yoki toʻrtta [boʻlib qolishi] kabi.

230. Koʻpincha ikki barmoq bir-biriga yopishib qoladi yoki ikki jagʻ bir-biridan ajralib ketadi.

**Bir butunlikning buzilishi⁷⁸
[uzilishi] haqida**

231. Ogoh bo‘lki, a’zolarning juftlanganida ham, toqida ham butunlikning buzilishi bo‘ladi.
232. Yuqori bilakning chiqishi, oyoq yoki qo‘lning uzilishi kabilar chiqish deyiladi.⁷⁹
233. Bir butunlikning buzilishi suyaklarda bo‘lsa, u sinish deyiladi, pardada va tomirlarda bo‘lsa, u yorilish deyiladi.
234. Asabning uzunasiga yoki eniga kesilgani yorilish yoki ezilish deb [nomlanadi].
235. Boyloqda yoki paylardagi yirtilish darz ketish yoki uzilish deyiladi.
236. Etga yetgan [buzilish] jarohat bo‘ladi, agar ish [jarohat tuzalmay] cho‘zilib ketsa, u yara deyiladi.
237. Mushakda oriz bo‘lganini et uzilish va terini ajratgani shilinish deyiladi.

**Tabiiylikdan tashqari narsalardan
ikkinchisi — sabablar⁸⁰**

238. Sabablar bo‘linadi: 1. Tashqi sabablar. Bular badan sathiga [tashqaridan] o‘tadi.
239. Olov, qor va urish kabi[lar ta’siri] yoxud sakrash tufayli paydo bo‘ladigan yorilishlar kabi.
240. 2. Vosila [bog‘lovchi] deb ataladigan sabablar. Bular kasallik xillarini bir-biridan ajratib beruvchidir.
241. Masalan [xiltlardagi] sasib-chirish davom etgan davrda chirish isitmasi ham davom etadi⁸¹.
242. 3. Sobiqa [oldingi] sabablar; bular har bir to‘lgan badanga muvofiqdir.⁸²

Moddaning quyilish sabablari⁸³

243. Sabablar haqida umuman ish [gap] shuki, [modda] bir a’zodan ikkinchisiga quyilishi bilan [u a’zoning] mizojini buzadi.
244. [Masalan, moddani] o‘zidan daf qiluvchi [a’zo] kuchli bo‘lib, qabul qiluvchi [a’zoning] zaif bo‘lishi va [badanni] qoplagan⁸⁴ yomon xiltning ko‘payishi.
245. [Daf etuvchi va qabul etuvchi a’zo oralaridagi] yo‘llarning kengayishi va g‘izolantiruvchi a’zoning zaifligi; shu jumla sabablar haqida kifoyadir.
246. Va qaysi bir [xilt] badandagi biror a’zoning kayfiyati ustidan g‘olib kelib, uni

teskarisiga [aylantirsa — buzsa], [o'sha a'zoning ozor chekishiga sabab bo'ladi].

Issiq kasalliklarning sabablari

247. Jismda harorat paydo qiladigan har bir narsa unga o'zining [odatda] qiladigan ishini qilaveradi [zararini yetkazadi].

248. Bi-l-quvvat issiqligi deb sarimsoq [kabi narsalar] yemakni, amaldagi issiqlik deb issiq shamoldan [ta'sirlanish kabilar aytiladi].

249. Yana jahl chiqish kabi nafsoniy harakatlar, charchash kabi jismoniy harakatlar ham [qizish sabablaridandir].

250. [Xiltlarning] chirishi, g'izoning kam bo'lishi va [sovuq] havo kabi teri [teshiklarini] berkitadigan narsalar paydo bo'lishi [ham shunday].

Sovuq kasalliklarning sabablari

251. Badanda sovuqlikni paydo qiluvchi har bir narsa ko'pincha undagi bir butunlikni buzadi, ajratib yuboradi.

252. Masalan, mingdevonani iste'mol qilish bi-l-quvvat sovuqlik va qor esa amaliy sovuqlikdir.

253. Ochlik ruhlarning g'izosini yo'q qiladi, [natijada badan soviydi] bu chirog'dagi moyning tugashi [va oxiri harorati kamayishi yoki o'chib qolishi] kabi.

254. Ortiq darajada to'yib ketish tabiiy haroratni qamrab oladi [va badan sovishiga sababchi bo'ladi].

255. Uzoq davom etgan qiyin harakatlar ham ruhni bo'shashtiradi, natijada jasad soviydi.

256. Harakat qilmasdan farovonlikda yashashdan ham [badan] soviydi, bu tutun [ko'payishi] bilan alanganing o'chgani kabidir.

257. [Badandagi kiyimning] ortiq darajada qalinligi ham undagi olovni [haroratni] bo'g'adi-da, bora-bora u o'chadi.

258. Badan g'ovak bo'lsa ham soviydi, unda haroratni tarqalgan deb gumon qilasan.⁸⁵

Rutubatli kasalliklarning sababi

259. Rutubatni keltirib chiqaradigan hamma narsa [sabab]lar beshta, [ular] yozilgan va hisoblab chiqilgandir.

260. Bi-l-fe'l rutubat issiq va chuchuk suvki uni ko'p quyib [yuvinilardi].

261. Bi-l-quvvat rutubat esa sut, shirin [suvdagi] baliq va ho'l pishloq iste'mol qilish [kabi]lar.

262. Shuningdek badanning rohatlanishi, to'qlikning chegaradan ortib ketishi va jism-larda to'planadigan rutubatni bo'g'ishdan [iborat].

Quruqlik kasalliklarining sabablari

263. Quruqlikni paydo qiluvchilar aqlga sig'adigan va sezilarli beshta [sababdan] ibo-rat.

264. Bi-l-fe'l quruqlik shimol [tomondan esadigan] shamol kabi, bi-l-quvvat quruqlik esa gorchitsa iste'mol qilish singari.

265. Yana rutubat ketadigan [darajagacha] och bo'lish va hammasi qiyinchilikdan [iborat bo'lgan] harakatlar.

266. Quruqlik ba'zan [xiltlarning] erib tarqalishi tufayli ham oriz bo'ladi, ich ketish kabi [bo'shalish]dan oriz bo'lgani kabi.

Qurol a'zolaridagi kasalliklarning sabablari

267. A'zolarida [odatdagidan ko'ra] katta bo'lishning sababi shaklni buzuvchi quvvat-ni kuchliligi va g'izo [modda]ning [ko'pligidandir].

268. Ularda kichik bo'lishni vujudga keltiruvchi sabab ularda katta bo'lishni paydo etuvchi [sabab]ga zid keladi.

269. [A'zo] shakllarini buzuvchi sabab shundaylarni [qabul qiluvchi a'zoning] tayyor-lab berishida vujudga keladi.

270. Bachadon [mizojining] yomonligi sababidan yoki maniyni [shaklni qabul qil-ishga] bo'ysunishi kam bo'lganligi tufayli.

271. Yoxud tug'ilish vaqtida [bola] noto'g'ri chiqadi va bu hol egri-bugri qilib qo'yish bilan yomon shaklni vujudga keltiradi.

272. Enaga [bolani] yo'rgaklashda yoki bola emishda,⁸⁶ yo uni [yerga] qo'yilishida [xatolikka yo'l qo'yilganda].

273. Yoki enaga [bolaga] ovqatni ba'zan ko'p berib qo'yadi, yo uni emchakdan ajratishda nojo'yalik qiladi.

274. [Ba'zan] bola [o'z holiga] qo'yilsa, kam quvvatlilik tufayli yiqilib ketadi. U yiqilish son suyagining qubbasini⁸⁷ sindiradi.

275. Yoki [bolaning] burnini pachaqlaydi-da, puchuq bo'lib qoladi. [Shaklda] teskari

bo‘lib qolgan a‘zoni tib o‘z o‘rniga qaytarolmagan bo‘ladi.

276. Besabr [kishi] hali tamom bitmagan siniq suyakni qimirlatsa ham [a‘zoning shaklini buzadi].

277. Moxov kasalligidagi kabi xiltlarning ko‘pligi yoki eski sil kasalligidagi kabi [ularning] kamligi ham shaklni buzadi.

278. Yoki birorta asabning⁸⁸ bo‘shashganidan bo‘lgan yuz falaji kasalligi yoxud bo‘yinni [bir tomonga] egadigan tortishish kasalliklari ham shunday.

279. Shish va yaralarning izlari⁸⁹ ham ba‘zan [badan] sathidagi shakllarni buzadi.

[Badan] yo‘llarining to‘silib qolish sabablari

280. Yo‘llarni to‘sadigan narsalar jinsini to‘plashda men fikrlarimni ishlatdim.

281. Ular tutish quvvatining kuchliligi va haydashning kuchsizligi, sovuq ham ba‘zan yo‘llarni yig‘ishtirish [toraytirish] orqali ham [to‘sish] hukmini ijro qiladi.

282. Quruqlik haddan ortiq burishtirib qabz qiladi va bog‘lash esa qisish bilan biriktirib [yo‘llarni to‘sadi].

283. Shish va buralib qolish [yo‘llarni] siqadi va ba‘zan burishtiruvchi dori⁹⁰ ularni biriktirib qo‘yadi.

284. Yaralarning et olishi va so‘gallar hamda etning befoйда ortib ketishi ham [yo‘llarni to‘sadi].

285. [Badan yo‘llariga joylanib qolgan] xilt, yiring, qon, ivib qolgan sut va suvlar] ham shunday.

286. Ichakda paydo bo‘ladigan qurt va boshqa qurt-qumursqalar, mayda tosh yoki qattiq axlat va [yig‘ilib qolgan] yel [ham yo‘lni to‘sadi].

Yo‘llarning ochilish [kengayish] sabablari

287. Yo‘llarning shiddatli ochilishi daf qilishning kuchliligi va tutib turuvchi [kuch] ning zaifligidan [kelib chiqadi].

288. Har bir ochuvchi dorilar,⁹¹ shuningdek zo‘rluk bilan [orttirilgan] issiqlik — harorat va rutubatlar ham shunday [sabablardir].

Adadning ortiq va kam bo‘lish sabablari

289. Har bir [a‘zoning] son jihatdan ortiq bo‘lishi, albatta, moddaning ko‘pligidan [kelib chiqadi].

290. Agar u [modda] yaxshi bo'lsa — [ortiqcha] barmoq, yomon bo'lsa “zifda” — qurbaqa” kasalligi⁹² bo'ladi.

291. Sanoqda bizda kam bo'ladigan har bir [a'zo] yuqorida aytganimning aksi⁹³ dandir.

Dag'allik va sillqlik kasalliklarining sabablari

292. Dag'allikni vujudga keltiruvchi har bir sabab muloyimlikni ketkazadi.

293. Xiltlar, tutun, chang hamda ovqat va dorining taxiri kabi.

294. Dag'alni muloyim qiluvchi sabab yopishqoq xilt va yog'li narsalardir.

[A'zolarida] tutashganlik va ajrashish sabablari

295. Agar [tabiatan] ishi [tuzilishi] ajralish bo'lgan har bir [a'zoda] tutashish voqe bo'lib qolsa.

296. U[ning sababi] o'sha a'zoning nojo'ya et olib qolishidirki, sen unda kerak bo'lmaydigan narsani ko'rasan.

297. [Shaklni] o'zgartiruvchi quvvatning kuchliligi va surat beruvchi quvvatning zai-fligi ham [shunga sabab bo'ladi].

298. Qaysi bir a'zoning ishi [tuzilishi] tabiatan tutashish bo'lib, unda ajralish [hosil] bo'lgan bo'lsa.

299. Garchi u ajrashish — tutashishlik vaz'idan va qurol a'zolaridagi [ajrashish] kasalliklari jumlasidan bo'lsa ham.

300. U, albatta, bo'laklari bir-biriga o'xshagan a'zolarga mansub bo'lgan bir butunlikning yechilishi [buzilishi] sabablaridandir. Mana uning sabablarini [quyidagi] hisobda [bilasan].

Birlikning yechilish [buzilish] sabablari

301. Kuydiradigan quvvati bor xilt yoki yeydigan yo teshadigan [darajadagi] chirish [shunday sabablardandir].

302. Yoki [a'zoni] buzib yuboradigan yo yirtadigan og'irlik yoki harakatlanuvchi [bo'g'in]ni bo'shashtiradigan yopishqoq [xilt] ham shunday.⁹⁴

303. Yo jarohatlaydigan va sindirib sochib yuboradigan sakrash yoki sindiradigan, majag'laydigan tosh [ham shu xil sabablardan].

304. Yeb teshadigan dori va kesib ajratib yuboradigan temir [ham shular jumlasidan].

305. Yel ham ba'zan cho'zish yo'li bilan [birlikni] uzadi, olov ham terilarga shunday ta'sir qiladi.

**Tabiiylikdan tashqaridagi narsalardan
uchinchisi — yuz beradigan belgilar
[arazlar]dir“**

306. Belgilar [a'zolar] ishlarida⁹⁶ va badanda paydo bo'ladigan hollarda [o'zgarishlarda] yuz beradi.

307. [Yana] axlat, tupuk, ter va siydik kabi [badanda] ochiq ko'rinadigan narsalarda [ham] bo'ladi.

308. [A'zoning] ishi qachon g'ayritabiiy holatga yaqinlashsa, unda, albatta, [quyidagi] uchta illat bor bo'ladi:

309. Ular zaiflik, botillik [bekor bo'lib ketish] va o'zgarishdan iborat; har bir illatning [quyida] izohi bor.

310. Ishdagi zaifliklar, [I] ko'zning ko'rishi zaiflashuvi; [II] ko'zning ishi bekor bo'lib, ko'rmaydigan bo'lib qolishi kabi.

311. [III] O'zgargandagi ishning illati, u ham bo'lsa, bitta narsaning ikkita bo'lib ko'rinishi⁹⁷.

312. Ishlarda oriz bo'ladigan [boshqa] belgilarni shu kabi misollarga qiyos qil.

**Badan holatidan olinadigan
belgilarning turlari**

313. Ba'zi vaqtlarda [tabiatdan tashqari] badanlarda paydo bo'ladigan holatlardan olinadigan belgilar [quyidagicha]:

314. Ularning ba'zisini ko'rish hissi bilan bilinadi, masalan, sariq kasalligi[dagi sariqlik] va ochiq ayon ko'ringan shish kabi.

315. Ba'zisini quloq bilan idrok etasan, masalan, istisqo kasalligida [u yoq-bu yoqqa ag'darilganda] qorinning sho'lqillashi kabi.

316. Ba'zisi borki, uni hidlab ko'rib bilinadi, sasigan yaralar kabi.

317. Ba'zisini mazasidan idrok etasan, masalan, og'zida nordonlikni sezgan kishiga o'xshash.

318. Ba'zisi borki, uni ushlab ko'rib bilasan, qattiqlashgan saraton [shishi] kabi.

Badandan ajralib chiqadigan narsalar [xiltlar]dan olinadigan belgilar

319. [Badandan] chiqadigan narsalardan olinadigan belgilar ham beshta sezgi a'zosi bilan bilinadi:
320. Qizil va qora siydik, qonli va ko'pikli tupuk kabi.
321. Ularning ba'zisi bo'shatish bilan chiqadi, yel, aksa urish va hiqichiq kabi.
322. Qusuq ba'zan nordon, achchiq va burishtiruvchi bo'lgan holda uchratiladi.
323. Siydida badbo'ylik sezilsa, u qovuqda yaralar [borligiga] dalolat qiladi.
324. Ter chiqqanda undan sovuqlik, issiqlik, suyuqlik va yopishqoqlik sezilishi mumkin.
325. Illatli kishidagi shu belgilar⁹⁸ biz uchun [muhim] dalillardir.
326. Ularni men qisqacha aytib o'tdim. Mana endi ularni batafsil aytaman.

Dalillarning bayoni

327. Dalillar hammasi eslashimga ko'ra yo [bo'lib o'tgan darddan] xabar beradi, yo hozirgi [dardni bildiradi] yoki [kelajakdakisidan] qo'rqitadi.
328. Bizga o'tgan [dardni] eslatadigan narsa [dalil] bo'lib o'tgan terdan [hosil bo'lgan] namlik kabitdir.
329. Bu dalilga bizda ehtiyoj yo'q va unga biz suyanmaymiz ham.
330. Hozir[gi kasallikka] dalolat etgan va kelajakdagi [holga] ham dalolat etadigan har bir dalilga.
331. Qat'iy ehtiyoj bo'ladi va bizning tibbimiz o'shanga suyanadi.
332. Dalilning bir xili umumiy bo'lib, ba'zisi esa ayrim-ayrim holga xos bo'ladi.
333. Ammo xos bo'ladigan dalilni men kelajakda, tibning amaliy qismini yozayotgan paytimda, zikr qilaman.

Hozirgi [holga dalolat etadigan] umumiy dalillar bayoni

334. Har bir umumiy dalil ulug'likka ega bo'lgan [boshqaruvchi] a'zolardagi [yuz berishlardan] olinadi.
335. Jigar, miya yoki yurakka o'xshashlar, chunki bular, albatta, to'g'ri [xabarni] beradi.

Miyaning ishlaridan dalil izlash

336. Aql⁹⁹ o‘z tasavvuri, fikrlashida to‘g‘ri va eslashida ham tuzuk bo‘lsa.
337. Va badan harakatlari va sezgilar ham [sog‘lom bo‘lsa], boshda salomatlik borligiga dalolat qiladi.
338. Agar bularda [yomon] alomatlar sezilsa, u vaqtda miyaga kasallik yetgan bo‘ladi.

Yurak ishlaridan dalil izlash

339. Yurak o‘zining urishida bir ravishda yursa, u [egasi]ning ahvoli salomatlikda ekanligiga dalildir.
340. Agar tomir urishi tabiiy odatidan chiqsa, u biron buzuvchilik borligiga dalolat etadi.
341. Tomir urishi [tabiiy odatga] xilof bo‘lish bilan turli dard va kasalliklarga dalolat etadi.

Tomir urishining turlari va ularning birinchisi kengayishlik miqdori¹⁰⁰ haqida

342. Uning turlarini sanagan chog‘inda o‘ntadir, ularni faqat mohir kishilargina yod-dan sanab bera oladi.¹⁰¹
343. O‘sha tomir urishlarning birinchisi [tomirlarning] kengayish miqdorida [yuz beradi], u yo yuqori daraja ortiqlikka yoki mo‘tadillikka dalolat etadi.
344. Agar katta [pulsning uchta] tarafi ko‘rinsa [ko‘tarilsa]¹⁰², uning miqdori quvvat-liligiga dalolat beradi.
345. Uning ziddi quvvatda kichik puls [deyiladi]. Uzun va kalta pulslar ham bo‘ladi.
346. Uning toraygan va kengaygan hamda yuqori va past degan xillari ham bordir.

Tomir urishdagi harakat vaqti

347. Turi har xil bo‘lgan harakatning zamonga nisbat beriladigan jinsi [quyidagicha]:
348. Tomir urishi tez [va] ko‘p bo‘lgani u quvvat va haroratga dalolat etadi.
349. Tomir urishi sust va siyrak bo‘lgani esa sovuqlik va zaiflikka dalolat etadi.

[Tomir urishdagi] harakatsizlik vaqti

350. Harakatsizlik vaqti miqdorining jinsi mumkin bo‘ladigan [quyidagi] xillarga bo‘lingan:

351. Ketma-ket va to'xtovsiz bo'lgan harakatsizlik quvvatlarning zaifligiga va haroratga dalolat qiladi.

352. Agar harakatsizlik [yuqoridagining] aksicha, bo'linib-bo'linib tursa, u [tomirning] bo'shashganligi va [mizojning] sovuqligiga dalolat etadi.

[Tomir urishdagi] quvvatlar miqdori

353. [Tomir urishi] quvvatlar miqdori jihatidan ham [ikkiga bo'linadi]: kuchli [puls], uning [barmoqqa] urishi zo'r bo'ladi.

354. [Yuqoridagining] aksicha bo'lgani, u zaif bo'lib, [barmoqqa] urishi past va nozik bo'ladi.

Harakatli tomir jismining tuzilishi

355. Ushlab ko'rishda tomir jismi qattiq bo'lsa, u [mizojning] quruqligidan darak beruvchi bo'ladi.

356. Undan [ikkinchi xili] ho'l va o'z jinsi orasida muloyim bo'lib, mizojning rutubatiga dalolat qiladi.

Harakatli tomir jismining kayfiyati

357. Qon tomiri jismining [ikkala] kayfiyati ham mizojga bab-baravar dalolat qiladi.

358. [Jismi] sovuq [tomir] bizga [mizojning] sovuqligidan dalolat beradi. Issiq [tomir] esa bizga ziddining xabarini beradi.

Harakatli tomir o'z ichiga olgan narsalar

359. Harakatli tomir o'rab turgan narsa — xiltlar bo'lib, ular to'g'risida bayon — izoh bor.

360. To'la bo'lgan tomir [xiltlar] oshib-toshib ketganlikdan va bo'sh bo'lgani esa xiltlarning kam ekanligidan darak beradi.

Harakat va fatrat [uzilish]lar zamoni

361. [Tomirdagi] harakat va [harakat] uzilishining turlarini sezgi ochib beradi.

362. Undan bir xili tekis, bir xili o'lchovli bo'lib, u ma'lum yoshdagi tomir urishga xos [muvofig] bo'ladi.¹⁰³

363. Hamda u yilning fasllari va mamlakatlarda odatga muvofiq bo'lib yuradi.

364. Yana undan bir xili borki, u bir xil o'lchovli bo'lmaydi. [Yuqorida] men aytgan xilining aksicha [bo'ladi].¹⁰⁴

Harakatli tomir miqdorining xususiyati

365. Harakatli tomirlar pulda yo i'tilof, yoki ixtilof bilan yuradi.¹⁰⁵

366. Bir ravishda boradigani mos keluvchi [mu'talif], egrilikda boruvchisi esa mos kelmaydigan muxtalif [deb ataladi].

Tomir urishining soni

367. Tomir urishlarining muxtaliflikdagi sanog'ida qandaydir farq bor.

368. Ko'p tomir urishlardagi xilma-xillik taqsimlanganda shunday ikki navi [hosil] bo'ladi:

369. Xilma-xillikda ular tartibli va tartibsiz bo'lib, keyingisini kishi to'la egallay olmagan.

370. Uning tartiblilik [mo'tadil urishda] aylanib yuraveradi va unga bizning so'zimizda izoh bo'ladi.

371. U [barmoqlarga] uradi-da, keyin urishidan oldin bo'lgan holiga qaytadi.

372. [Tomir urishning] bir xili o'z davrlariga bog'lanib qolmagan, undan bir xili sich-qon dumchasi deb ataladi.¹⁰⁶

373. Tomir urishning xilma-xillik qismidan bir urishda bo'ladigani bor, uni ushlab ko'rsang [shunday sezasan].

374. Va shu xilidan qay biri nisbatlangan¹⁰⁷ va ba'zisi esa nisbatlanmagan bo'ladi va bizning so'zimiz laqablangani [nomlangani] ustidadir.

375. Undan qay birlarini [harakati] uzilgan va qaysilarini uzluksiz, ba'zilari pastga qaragan, ba'zilari esa balandga [qaragan] deb ataladi.

376. Yana birida ikki urish va bir xilida [undan] ko'proq [urish bo'ladi], keyingisi ikki bolg'a urishi [mitraqon] deb ataladi.

377. Undan qaysilaridir qurtsimon, qaysisidir arrasimon va xuddi shunga o'xshash chumolisimon va to'lqinsimon [deb ataladi].¹⁰⁸

378. Undan ba'zisi titrashga o'xshagan deb laqablansa, ba'zisi sil kasaliga o'xshash deb tasvirlanadi.

379. Shulardan har bir jinsining ichida ikki nav borki, ularning har biri bir-biriga ziddir.¹⁰⁹

380. Ikki zid o'rtasida bitta mo'tadil [navi] bor, u ikkalasida alohida o'rinni egallaydi.

381. Ammo [biz sanab o'tgan] xilma-xillik turlari bo'lsa, ular ortiqcha, ulardagi xilma-xillikda o'rtachalik yo'qdir.

382. Tomir urishni biron tomonga og'ganligi ko'rilguncha mo'tadil deb bilinadi.¹¹⁰

383. O'z vazifasidan [ya'ni mo'tadillikdan] chiqqan har bir tomir urishi egasining mijoziga qarab qiyos qilinadi.

Yosh, fasl, mamlakat, mizoj, tashqi ko'rinish [oriq-semizlik], erkak va ayollardagi

tomir urishlari haqida

384. Turli yoshlar, yil fasllari va mamlakatlarga [qarab] tomir urishi xillarini bilib ol.

385. Hamda kishilar mizoji, tashqi ko'rinishi va erkak-ayollarga qarab [o'zgarishini] ham.

386. Issiq [mizojda] tomir urishi tez va kattalikka moyil [ya'ni katta] bo'ladi, xuddi shuningdek, yigitlarda va erkaklarda ham.

387. Janubiy mamlakatlar, oriq kishilar, homilador xotin va yoz [faslida] ham [shunday].

388. Sovuqda [tomir urishi] kichik va sust [bo'ladi], qarilarda qish [faslida] ham shunday.

389. Ayollar, po'k semiz [odamlar] va shimoliy mamlakatlarda yashovchilarda ham shunday.

390. Har bir quruq [mizojda]¹¹¹ tomir urishi yengil [bo'ladi].

391. Har bir mo'tadil mizoj[li kishi]ning tomir urishi yetuk bahordagi tomir urishiga o'xshaydi.]¹¹²

392. Iqlimlarning to'rtinchisi[dagi mamlakatlar] ham o'sha [mo'tadil] mizojga tobedir.

393. Go'dak bolaning tomir urishi tez va "ho'l" bo'lib, o'rta yoshli kishiniki esa sust va qattiqdir.

394. [Ko'p] xiltli har bir badanning tomir urishi haddan ziyod to'lgan bo'ladi.

395. Xiltdan bo'shagan har bir badandagi tomir urishi ham qattiq bo'shagan bo'ladi.

Tupuk vositali dalil topish

396. Ko'krak va o'pka nafas olish qurollaridir, agar shular ikkisi sog'lom bo'lsa, hayot saqlanishda (bo'ladi).

397. Agar ular o‘z mo‘tadil ishlaridan chetga burilsa, unda o‘sha yurakning o‘ti yallig‘lanishda bo‘ladi.

398. Qachonki ko‘krakda biror kasallik oriz bo‘ladigan bo‘lsa, unga tupuk dalildir, chunki u belgi bo‘ladi.

399. Agar [shu kasallikning boshida] tupuk yo‘qolsa, u [hol kasallikning] boshlanishidir, chunki unda [kasallikning] yetilganligi ayon bo‘lmagan bo‘ladi.

400. Agar [tupuk] ozgina suyuq bo‘lsa, uning yetilishi zaif ekanligiga dalil bo‘ladi.

401. Bordi-yu, u mo‘tadil bo‘lsa, senga [kasallikdagi] o‘rtacha ko‘tarilishdan darak bergan bo‘ladi.

402. Agar u ko‘p va quyuq bo‘lsa, albatta, [kasallikning] tugagani to‘g‘risida aytgan bo‘ladi.

403. Tupukning suyuq bo‘lishi, dardga qandaydir suyuq bir xilt aralashganlik dalillaridan biridir.

404. Hamda uning [suyuq bo‘lishi] dardning tez qurishiga, uning quyuq bo‘lishi esa [yuqoridagining] aksiga [dalildir].¹¹³

405. Tupukning qora rangda bo‘lishi xiltlarda qattiq kuyish bo‘lganiga dalolat qiladi.

406. Tupuklarning yashil rangligi esa safroning gandano tusli xiliga dalolat qiladi.

407. Har bir sariqligi ravshan-tiniq [tupuk] safroning tuxum sarig‘i tusli naviga dalolat qiladi.

408. Tupukning oqi balg‘am [borligiga] dalildir, uning qizili [esa] qon [borligiga] dalildir.

409. Kimningki tupugi sassiq bo‘lsa, u[ning o‘pkasida] chirish-sasish borligidan xabar beradi.

410. Sassiq bo‘lmagan har bir tupuk ko‘krakda, o‘pkada sasish yo‘qligini ko‘rsatadi.

411. Agar [tupukning] shakli to‘garak bo‘lganini ko‘rsang va shu dard tufayli isitma ham bo‘lsa

412. Shu belgilar bilan u kishining *barsom*¹¹⁴ dardiga duchor bo‘lganiga hukm qil.

413. Agar betob [badani] qizimasa, unga so‘lish [kasalligi] kelgan bo‘ladi.

414. Tupuk [dardning] toza yetilganiga dalolat etsa, u yo‘talsiz keladi.

415. Hamda u o‘zi oq, quyuq, bir-biriga yopishgan va avval kelganda hidsiz bo‘ladi.

Jigarning ishlaridan dalil olish

416. Xiltlarning paydo boʻladigan yeri jigardadir. Xilt undan badanga tarqaladi.
417. U [jigar] sababli paydo boʻladigan har bir azoda oʻsha aʼzoga xos boʻladigan ishlar jigar tufayli vujudga keladi.¹¹⁵
418. Undagi [jigardagi] bugʻdan [tabiiy] ruh vujudga keladi va u [ruh]ning boʻqi qolishidan jism sogʻlom [boʻladi].
419. Agar xilt sogʻlom boʻlsa, badan sogʻlom boʻladi va qachon jigar sogʻlom boʻlsa, xiltning sogʻlom boʻlganligi chiqadi.¹¹⁶
420. Suv unga [jigarga] gʻizoni olib boradi va u gʻolib boʻlgan barcha xiltlar bilan [aralashadi].
421. Chiqarish vaqtida jigar suvni [xiltlardan] koʻrsatadi [yaʼni ajratadi], chunki u [suv] xiltlar bilan aralashuvchidir.¹¹⁷
422. Suv [shunday] narsaki, u ranglarni oʻziga oladi va unga solgan har bir narsangni ochib beradi.
423. Men aytayotganlarimning hammasidan [natija] ravshan boʻldi va uning rostligiga aqlar guvohlik berdiki.
424. Siydikda bemorga yetgan dard haqida, albatta, darak beradigan dalil bor ekan.

Siydikning xillari va avvalo, rangi haqida

425. [Siydikning] oq ranglisi ichimlik va ovqatning koʻp boʻlganligi alomatlaridandir.
426. Yoki sassiq meʼda, balgʻam gʻalaba qilgani, sovuq [oshganlik], qovuq boʻshashganlik¹¹⁸ yoki jigarda toʻsiqlik [borligining alomatlaridandir].
427. Siydik agar sariq boʻlib kelsa, oʻtda biror narsa [borligiga] dalolat qiladi.
428. Agar u [siydik] olov rangida boʻlsa, [bilki] sariq oʻt koʻpayishda ekan.
429. Rangi tiniq va qizildan beriroq [boʻlgan siydikda] sariq oʻt koʻproqdir.
430. Ranglardan qip-qizili, agar u [qizillik] zaʼfaron isteʼmol qilishdan kelmagan boʻlsa.
431. Isitma¹¹⁹ ham, qulanj ham boʻlmasa, u hol [siydikka] qon aralashganidan [darak beradi].
432. [Siydik] xiralikdan keyin qora [boʻlib] kelsa, u shiddatli sovuqlikdan dalolat qiladi.

433. Agar qattiq qizillikdan keyin [qorayib kelsa], xiltning kuyganidan dalolat beradi.¹²⁰

434. Siydikning rangi bilan kasallikka hukm chiqar, basharti u rang rangli ovqat [ta'siridan] bo'lmagan bo'lsa.

435. Sabzavotlar, *xiyorchanbar* va *murriyga* o'xshash unga rang kirgizadigan narsalar kabi.

[Siydikning] quyuq-suyuqligi haqida

436. Siydiklarninguyuqligi [ovqatning] hazmi kamligiga dalolat qiladi.

437. Ba'zan siydik bo'kib qolish ketidan, jigardagi biror to'siqdan yoki shishdan ham suyilib qoladi.

438. Siydikning quyuqligi hazm qilishning belgisidir yoki badanda balg'amning ko'pligidan dalildir.

[Siydikdagi] cho'kma haqida

439. Agar cho'kma oq ko'rinsa, kasalliklarning salomatligiga [to'la yetilganligiga] dalolat qiladi.

440. Agar uning rangi sarg'aygan holda ko'rinsa, u, albatta, o'tda o'tkirlik borligidan bo'ladi.

441. U agar *andam*¹²¹ kabi qizil bo'lib ko'rinsa, u qon kasalliklarining yaxshi yetilmagani uchundir.

442. Agar bu ahvol cho'zilib ketsa va [shisha tagida] ko'tarilib tursa, u, albatta, jigarda shish borligiga [nishonadir].

443. Agar u qip-qizillikdan keyin qora bo'lib ko'rinsa, xususan quvvat tushgandan keyin [shunday bo'lsa].

444. Va [cho'kma shishaning yuqorisida] ko'tarilishda bo'lgandan keyin cho'kadigan bo'lsa, jon, albatta, o'mrovga — halqumga yetgan bo'ladi.

445. [U vaqtda] dam uruvchi — tabibni chaqirishdan foyda yo'q, [xiltlarning] qattiq kuyishidan keladigan o'lim [kutiladi].

446. Agar [cho'kma] xiralikdan keyin qorayib ko'rinsa va [betob] o'tkir kasallikda bo'lmagan bo'lsa.

447. Xususan u xiralikka yaxshi belgi birgalashib kelsa.

448. Dardning asli savdodan kelib chiqqan bo'lsa, kasallikning tugaganiga dalolat qiladi.

Choʻkmaning joyi haqida

449. Agar choʻkma shisha ustida choʻkmasdan bulutdek boʻlib koʻrinsa, [kasallikning] hali yetilmaganligiga dalolat qiladi.

450. Lekin unda bir oz yetilganlik boʻlsa ham, uning xiltini qoʻzgʻatib yuqoriga koʻtaradigan yel [choʻkishga] qoʻymaydi.

451. Agar oʻsha bulutsimon choʻkma oʻrtada koʻchib yurgan boʻlsa, bilginki, uning yeli oz ekan.

452. Agar u [choʻkma] sariqlikdan keyin oqarsa, silliq va yopishqoq boʻlib.

453. Pastga tomon tushsa hamda qalqib tursa, unda yetilganlik mukammal [boʻlgan] deb bil!

Choʻkmaning tuzilishi [qivomi] bayonida

454. Agar choʻkma parchalanib koʻrinsa, tabiatlarda zaiflik borligiga dalolat qiladi.

455. Yoki unda tolqonga oʻxshashlik boʻlsa, u tomirlarda [poʻst] ajralish borligiga dalolat qiladi.

456. Yoki u [choʻkma] kepakka oʻxshash [va] sassiq boʻlsa, qovuqda yaralar borligini koʻrsatadi.

457. Yoki u yaproq-yaproq boʻlib tursa, [aʼzolarda] qirqilish va yirtilish borligini bildiradi.

458. Agar shishada yiring koʻrinsa, yorilgan¹²² yiringli shish [dubayla¹²³]ga dalolat qiladi.

459. Agar [choʻkma] uzoq vaqtgacha sasigan qon aralashib chiqsa, u balgʻamli shish¹²⁴ [borligiga dalildir].

460. U agar maniyla oʻxshab pastga choʻksa, xom va quyuq, yetilmagan balgʻam sababidan boʻladi.

461. Agar undan qum ajralib chiqsa, bilginki, u, albatta, mayda tosh tufayli [hosil] boʻlgandir.

Siydikning hidi haqida

462. Siydik oʻz hidini yoʻqotsa, yetilishning yoʻqolganidan yoki yetilmagan ovqat hazmidan boʻladi.

463. Chirib buzilish yuqori darajada boʻlsa, shu vaqtda [siydik] ham badboʻylikda yuqori darajaga chiqadi.

464. Agar sassiqlik juda boshqacharoq bo'lsa, bilki kasallik qovuqdadir.

465. Men siydik [haqida] sodda hollarni aytib o'tdim. Endi shu so'zimdan uning murakkab hollarini o'zing [qiyos qil].¹²⁵

**Axlat [najas]dan dalil izlash va birinchi
navbatda uning miqdori haqida**

466. Axlat ba'zan me'da va ba'zida ichak va jigar [ahvoliga] dalolat qiladi.

467. Axlat oz bo'lsa, u g'izoning a'zolarga ko'p o'tgani sababidandir.

468. Yoki bo'lmasa, chiqarish [quvvati] oz-u, tortish [quvvati] biror illat sababli ko'p [ekaniga dalildir].

469. [Shu holda] u betobning badani yomon chiqindilar bilan to'la ekanidan darak beradi.

470. Agar axlat ko'payib ko'rinsa, betobning jismida g'izo bilan o'sish [uni o'zlashtirish] yo'qligiga [dalil].

471. Yoki bo'lmasa tortish [quvvati]da kamlik va chiqarish [quvvati]da bir illat tufayli ko'plik borligini [ko'rsatadi].

472. Agar u oq bo'lib ko'rinsa, o't yo'lida biror to'siq yoki shish borligiga [dalildir].

473. Sariq kasalligi va siydikning sariqligi o'sha jinsga hissiy guvohdir.

474. Yoki shunday bo'lmasa, jism balg'amdan yoki sovuq mizojdan juda buzuv [ekaniga dalildir].

475. Agar u [axlat] qizil yoki olov [rangida] bo'lib ko'rinsa, safroning yuqori darajadiligiga dalolat qiladi.

476. Yoki u gandano va zangori rangli bo'lsa, yomonlikka va davom etayotgan kasallikka dalolat qiladi.

477. Agar u qora bo'lib ko'rinsa, [betobning] jismida qattiq va davomli sovuqlik borligini [bildiradi].

478. Agar [qora axlat] o'tkir bir kasallik tufayli bo'lgan bo'lsa, yaqin fursatda voqe bo'ladigan o'limga dalolat etadi.

479. Agar [axlatda] bir necha kun qattiqlik bo'lsa, tortib o'zlashtiruvchi quvvatlar[ning kuchligiga] dalolat etadi.

480. Yoki alangalanuvchi haroratdan, yo [ichni] bog'lovchi g'izodan dalolat beradi. [Ya'ni unda harorat yoki to'xtalib qolgan ovqat borligiga dalildir].

481. Agar u [axlat] suyuq, rutubatli boʻlib koʻrinsa, jismda tortish koʻp boʻlmagan [degan gapdir].
482. Yoki holi yomon boʻlgan badandagi sovuqlik yoki ichni suruvchi gʻizo tufayli voqe boʻlgandir.
483. Agar u [axlat] kech keladigan boʻlsa, taomning ichaklardagi hazmi qiyin boʻlayotgani [maʼlum boʻladi].
484. Yoki chiqarish [quvvati] kamligidan, yoki [hazm aʼzolariga] sovuq [gʻalaba qilganidan], yoki toʻsilib qolish sababli ushlab qolgan ichaklar tufayli [boʻlgandir].
485. Agar [axlat] tez-tez keladigan boʻlsa, gʻizoning ishi qolish emas, [balki] toʻydirib tushirish [yaʼni unda toʻydiruvchi balgʻam] boʻlgan boʻladi.
486. Yoki koʻp miqdorda itarilib chiqqan xiltlardagi rutubatlardan [boʻlgan boʻladi].
487. *Mosariqo*¹²⁶ [tomiri] tortuvchan boʻlmagan yoki ichakda nimadir oriz boʻlgan [boʻladi].
488. Yara yoki hazm qilishning yomon boʻlishi, yoxud boshqa kasallik xillaridan bi-rortasi [oriz boʻlgan boʻladi].
489. Agar [axlat] ovoz bilan chiqsa, koʻp yel borligiga dalolat qiladi.
490. Agar u yiring aralash chiqsa, poʻkonda shishlar borligiga dalolat qiladi.
491. Agar [uni] chiqarish oldida qon koʻrinsa, [ichakda] yara va shilinishlar borligiga dalolat etadi.
492. Agar [axlat] ortiq darajada badboʻy boʻlsa, chirib sasishning yuqori darajada ekaniga dalolat etadi.
493. Agar [axlatning] ustida yogʻdek [narsa] boʻlsa, badandagi yogʻning eriganiga dalolat etadi.
494. Agar uning hidi achimsiq boʻlsa, unga nordon balgʻam qoʻshilgan boʻladi.

Ter bilan [kasallikka dalil izlash]

495. Rutubatli kasalliklarda terning koʻp boʻlishi, [dardning] belgilaridan — yuz berishlaridan biridir.
496. U tabiatlar quvvatli ekanidan xabar beradi. Ammo toʻxtab-toʻxtab chiqadigan ter bunday emas¹²⁷.
497. Betobning quvvati tushkunlikda boʻlgan holda ortiqcha darajada koʻp terlash.

498. Tabiatning [dardning og‘irligidan toliqqanidan hosil bo‘ladi] va u tabiatning tez fursatda o‘lishi [ga dalolat qiladi].

499. Kasalliklarda bo‘ladigan ozgina ter badandagi teshiklarda to‘silib qolish borligiga dalolat qiladi.

500. Xiltning quyuqligi, chiqarish [quvvati]ning zaifligi, yetilishning ozligi va ta‘bning muloyimligi ham shunga dalolat qiladi.¹²⁸

Terning kayfiyati haqida

501. Agar ter oqargan bo‘lib ko‘rinsa, kasalliklarda balg‘am [borligi]ga dalolat qiladi.

502. U sariq bo‘lib ko‘rinsa — safro, qora bo‘lib ko‘rinsa, savdo [borligini bildiradi].

503. Agar u qizil bo‘lib ko‘rinsa, demak u qondandir. Xuddi shunga o‘xshash [ter] o‘z mazasi bilan ham bizga [xiltlar to‘g‘risida] dalolat beradi.¹²⁹

504. Latif [suyuq] ter xiltdagi latiflikdan, uning quyug‘i esa quyuqligidan [nishonad-ir].

505. Agar ter badanning hammasiga umumiy bo‘lsa, u yaxshi, agar uning bir yeriga xos bo‘lsa, u yomondir.

506. Agar ter o‘z vaqtida, [ya‘ni isitmaning] davrida va buhron [kuniga]¹³⁰ birgalashib kelsa.

507. U [ter] yaxshi maqtalaniladigan dalildir, uning teskarisicha bo‘lsa,¹³¹ yaxshiligi uzoqdir.

Ogohlantiruvchi umumiy dalillar bayoni

508. Ogohlantiruvchi [belgilar ikkiga] bo‘linadi: 1. Sog‘lom kishida voqe bo‘ladigan biron kasallik bilan uning qattiq ozor chekishidan [darak beruvchi].

509. 2. Betobning betobligida ishi nimaga borib taqalishidan xabar beruvchi.

510. Kasalliklardan xabar beradigani — yuz beradigan alomat [araz]lar bilan dalolat etadi:

511. Hamma a‘zolarida va miyada [xiltning] to‘lganligi yoki [uning kamligi] va bo‘shaganligiga.

512. To‘lganlikning xabarini beruvchi narsalar dam olib yotish va ovqatning ko‘p bo‘lishidir.

513. Hammom va riyozatning kam bo‘lishi ham to‘lib qolish kasalliklarini vujudga keltiradi.

514. Bu narsalarning ziddi¹³² bizga [xiltlarning] kamligi kasalligidan xabar beradi.

**To‘lish haqida va, birinchidan, quvvatlarga
nisbatan to‘lishni aniqlash haqida**

515. To‘lish nafsoniy quvvatlarga nisbatan jinsda bo‘linadi:

516. Agar u o‘zgaruvchi [quvvat]ga qiyos qilinsa, ovqatga ishtaha yaxshi bo‘lmaydi.

517. Va siydikda aniq yetilish bo‘lmaydi, shu vaqtda axlat ham yumshoq [bo‘ladi].

518. Yoki harakatlantiruvchi [quvvat]ga qiyosli bo‘lsa, [kishida] harakat qiyin bo‘layotganini ko‘rasan.

519. Yoki tomirni harakatlantiruvchi quvvatga qiyosan [qarasang], tomirning har bir urishini bo‘shashgan ko‘rasan.

520. Baquvvat nafslar *himusdan*¹³³ ko‘tarolmaydigan yukni ko‘targan bo‘ladi.

521. O‘sha bequvvat nafs himusni ko‘tarishdan tang bo‘lgan [ko‘tarolmagan] va [gar-chi uni ko‘tarib turgan a‘zolarining] kovagi — orasi to‘lgan bo‘lmasa ham.

[A‘zo] kovaklariga nisbatan to‘lish bayoni

522. Undan boshqasi [to‘lishning ikkinchi xili] [a‘zoning] kovaklariga qarab bo‘ladi, chunki ularni [a‘zo kovaklarini] to‘latayotgan narsa qurib-qotib qolgandir.¹³⁴

523. [To‘lishning] shu jinsi toza qondan yoki safroli yo balg‘amli qovdan to‘lgan bo‘ladi.

524. Bunda ko‘pincha quvvatlar kuchli bo‘lib, ularni himus og‘irlashtirmaydi.

Qon g‘alabasining alomatlari bayoni

525. Xiltlardan biri bo‘lgan qon agar g‘alaba qilsa, uyqu va bosh og‘rig‘i yuqori darajada bo‘ladi.

526. Tomirlar yo‘g‘onlashadi va qizarish [paydo bo‘ladi] va ko‘pincha fikrlar — tafakkur quvvati chetga chiqadi.

527. Bosh og‘irlashadi, hislar zaiflashadi, lanjlik va qo‘l tegizilganda harorat [seziladi].

528. Kurak suyaklari og‘irlashadi, esnash bo‘ladi va ko‘pincha oyoq-qo‘llar og‘irlashadi.

529. Burundan qon ketadi, kishi kerishadi va ich bir oz bo‘shashadi.

530. Maishatda farovonlikka [intilish], shodlik tushlar va u tushlarda ko‘p ranglar ko‘rish va xushchaqchaqlik bo‘ladi.

531. Qon oldiriladigan yer qichiydi, odatdan tashqari [ravishda] ko‘z qizaradi.

532. Badanda chipqon yoki toshmalar paydo bo‘ladi yohud uyquda biror shirin narsani yeyayotgandek bo‘ladi.

533. Yoki oldin shirin narsani yemagan bo‘lsa ham, og‘izda shirinlik mazasi seziladi.

534. Yo bahor [faslida], yoki yoshlikning avvalgi ajoyib [davrida] araz — yuz beradigan alomatlar [paydo] bo‘ladi.

535. [Yuqoridagilarning hammasi] dardlarning qon mizojli ekanligidan bizga dalolat beradi. [Kitobning] amaliy [qismini] boshlash oldidan sen ularni, albatta, ko‘rasan.

Safro g‘alabasining belgilari bayonida

536. Agar sariq [safro] g‘alaba qilgan bo‘lsa, [badan] terisining rangini sarg‘ayishda ko‘rasan.

537. Og‘izda achchiqlik sezilishi bilan taomga ishtaha ham zaif bo‘ladi.

538. Me‘da achishadi¹³⁵ va safro qusiladi va shu sababli ich suradi.

539. Uyqu qochadi¹³⁶, ko‘zlar ich-ichiga kirib ketadi. Og‘iz bilan til quriydi.

540. Va shuning orasida siydik sarg‘ayadi, hushdan ketish¹³⁷ yuz beradi va teri hurpayadi.

541. [Unda] g‘amginlik va ovqat yemasa ham, tashnalik va uyqu [vaqtida] olovlar ko‘rish [sodir bo‘ladi].

542. Tomir urish sust bo‘ladi, badan qiziydi; issiq suv bilan cho‘milishning ko‘p bo‘lishi [bunga sabab].

543. Janubiy shaharda va yigitlikda qiynchiliklarning unga ketma-ket kelib turishi ham.

544. O‘tkir mazali [yemishlar]dan yemakni davom ettirish ham xususan yozda [bunga sabab bo‘ladi].

Savdo g‘alaba [qilishi]ning belgilari bayonida

545. Agar qora o‘t [savdo] jismga g‘alaba qilsa, uning sababidan jismning tusi, albatta, xiralangan bo‘ladi.

546. O‘ychanlik [tug‘iladi], ovqatga ishtaha ko‘payadi va og‘iz ta‘mida nordonlik

seziladi.

547. Tabiatning lanjligi bilan birga jahldorlik boʻladi va tomir urishi sustligida qattiq boʻladi.

548. Meʼdaning qabziyati, [terida] qoradogʻlar va chidamsizlik paydo boʻladi, bezovtalik boʻlmay turib uyqusizlik [yuz beradi].

549. Siydik oq suyuq va yetilmagan, shunga oʻxshash axlat ham yetilmagan boʻladi.

550. Quruq gʻizo, tashvish, ahyon-ahyonda boʻladigan sabrsizlik va qaygʻu[lar ham unga sabab boʻladi].

551. Va uyqusida halokatli joylar va uni qoʻrqitadigan narsalarni koʻradi.

552. Oʻrta yoshlik, kuz fasli, shimoliy mamlakat va oriqlik ham savdo gʻalaba [qilishining sabablaridandir].

Balgʻam gʻalaba qilganlik belgilarining bayoni

553. Badandagi xiltlarga balgʻam gʻalaba qilsa, bosh ogʻirlashadi va uyqu koʻpayadi.

554. Dangasalik, ishtaha kamligi va quvvatlar [ogʻirlashib ularga] nisbatan toʻliqlik boʻladi.

555. Yurish sust, kaltafahmlik va odatdan tashqari boʻshashganlik paydo boʻladi.

556. Soʻlak oqadi, yuz salqiydi¹³⁸ va rangi xunuk boʻlib oqaradi.

557. Tomir urish dagʻal boʻlib, sust [uradi], siydik quyugʻ, hali yetilmagan [boʻladi].

558. [Balgʻam gʻalaba qilgan kishi] tashna boʻlmaydi, agar tashna boʻlib qolsa, [unda] shoʻr balgʻam borligi yoki balgʻam sasiganligi maʼlum boʻladi.

559. Hoʻl va sovuq mizojli gʻizo, qarilik yoshi va qish vaqtlari.¹³⁹

560. Riyozat bilan shugʻullanmaslik, hammomga tushmaslik va koʻpincha ovqat [yeyishda] ortiqcha qilib yuborish [balgʻamni qoʻzgʻotadi].

561. Anhorlar [koʻpligi] sababli shahar namli boʻlishi va uyqusida dengizlarni koʻrish.

562. Uyqusida bosinqirashdan zorlanadi, hazm qilish [quvvati] kaylusni¹⁴⁰ yaxshilolmaydi.

563. Betobliklarda boʻladigan zaruriy doimiy alomatlarini.

564. Sogʻlom kishilarga yopishgan holda koʻrsang, ularni zoil qilishga qattiq kirish.

**Betoblikda boʻladigan ogohlantiruvchi
belgilar bayoni**

565. Belgilarning bir xili oʻlim bilan qoʻrqitadi, boshqasi sihat-salomatlik bilan sevintiradi.

566. Biz oʻsha belgilarni [oʻz] sifat[i] bilan taʼriflab beramiz, chunki u dalillar bilish-tanishishning muqaddimasidir.

567. Ularni bilish bilan tabib kishining halok boʻlishini koʻra oladi-da, uni davolashda [oʻzini] ushlaydi, tortadi.

568. Oʻshalarni bilish tufayli betob kishining salomat qolishini ham tabib koʻradi va shu bilan [uni] sevintiradi va [sogʻayishini] ochiq aytadi.

569. Oʻsha belgilarning birinchisi vaqtlarni va u vaqtlar ichida koʻriladigan ofatlarni bilishdir.

570. Hamda dardning uzun, qisqa, ogʻir va yengilini bilish.

571. Buhronlarning paydo boʻlishiga qarab [kasalliklarning] vaqti haqida hukm chiqariladi.

Betoblik davrlarini bilish bayoni¹⁴¹

572. Har bir betoblikning turli davrlari bor, ularda oʻlish yoki yashash mumkin.

573. U davrlar kasallikning boshlanishi, koʻtarilishi va tugashidan iborat. Shu [davrlarning] hammasida oʻlish ham, [sogʻayish ham] boʻlishi mumkin.

574. Toʻrtinchi ham borki, uni pasayish vaqti deb ataladi, bu vaqtda xatoliklardan boʻlak sababdan oʻlish boʻlmaydi.

575. Boshlanish [davri aʼzo] ishlariga zarar yetishi va u ishlarning boshqa ishlarga nisbatan zaif boʻlib qolishidan iborat.

576. Sen tupuk, axlat va siydiklardagi choʻkmalarda yetilganlikni koʻrguningcha [shu davr davom etadi].

577. Keyin sen isitmaning navbatlarida va uning taʼsirlarida koʻtarilishni koʻrasan.

578. Shu holatdan keyin tugash [davri boshlanadi], qachonki sen yetilishni toʻla — mukammal holda koʻrsang.

579. [Shu holatda] kasalliklarning tutish navbati koʻpaymaydi, balki yuz berishlari miqdorda bir tekis boʻladi.

580. Va kasallik kamayishga boshlaydi va u davr koʻpincha buhron bilan tugaydi.

581. Agar sen shu belgini ko'rsang, bemorni salomat [qolgani] bilan sevintir.
582. Chunki o'lish [dardning] tushish-pasayish [davrida] yuz bermaydi, mabodo bemor ustida biror xatoga yo'l qo'yilgan bo'lmasa.
583. Yoki havodagi vaboga va tashqaridan keladigan har xil ofatlarga¹⁴² duch kelish bo'lmasa.
584. [Dardning] boshlanish chegarasini [davrini] bilmog'imiz ovqatning yengil bo'lmog'i uchun foyda beradi.
585. Sen [dardning] ko'tarilish [davrida g'izoni] o'rtacha yengillashtir, chunki u, albatta, baxt va yordamdir.
586. Qachon u dard oxirgi [davriga] yetsa, [ovqatni] yengillatishni nihoyatiga yetkazishni ko'zla!

Kasalliklarning uzun yoki qisqaligini bilishning bayoni

587. Har bir kasallik [muayyan] muddatda tugaydi, uning bir xili qisqa muddatli bo'lib, o'tkir [kasallik] deb ataladi.
588. U ozgina vaqtda [kishini] o'ldiradi yoki yaxshi buhron bilan tugaydi.
589. Uning yetilishi ham, vaqtlari ham tez va o'zi og'ir o'tadi, holi xatarli [va] serofatlidir.
590. Uni sen boshlanish [davrining] qisqaligidan bilasan-da, ovqat tadbiriga kirishasan.
591. [Ovqat] ko'p bo'lib, betobning quvvatlariga og'irlik qiladigan ham, oz bo'lib g'izolanishni yo'qotuvchi ham bo'lmasligi kerak.
592. [Shunday bo'lmaganda] uning boshlanishida quvvat tushib ketadi va oxiriga yetmasdanoq bo'shashib qoladi.
593. Balki g'izoning miqdori puxta belgilanib, safardagi kishining ovqatidek o'lchab qo'yilgan [bo'lsin].
594. Agar belgilarning og'irligi, sifatlar¹⁴³ va og'riqlarning xatarliligini ko'rsang;
595. Va quvvat tushkunlik tomon o'zgargan, aql esa kamayish va chalkashlikda bo'lsa.
596. Hamda [kasalning] quvvatlari dardni ko'tara olmasa, u kishini dard oxiriga bormasdan burun o'lishini kut.
597. Bu ahvol belgilarning yomonligidan va kasalliklarning savdoviyligidan bilinadi.

598. [Kasallikning ikkinchi xili] uzoq davom etadi, u boshidan uzoq vaqtni kechiruvchi deb ataladi. U betoblik badanga tezlik bilan kelmaydi.

599. Lekin u tinkani quritish, silga yoʻliqtirish, qon ketkazish va oriqlatish bilan oʻldiradi.

600. Yoki u kishi uzoq vaqtdan keyin shifo topadi va kasallik yetilish va [xiltlarning] tarqalishi bilan tugaydi.

601. Sen uni yuz berishlarining yengilligi va dardlarning [tabiati] sovuqligidan bilasan.

602. Sen u kishini ozgina taom bilan gʻizolantirma, u vaqtda kasalning [quvvatlari] tushib ketadi.

603. Mana shu ikki [xil kasallikning] orasida oʻrtacha bir dard ham bor, uning vaqtlari qisqa ham, uzun ham boʻlmagan.

604. [Shunday dardli kishiga] gʻizoni yengillatishda oʻrtacha yoʻl tut, uni kuchaytirib ham, juda kuchsizlatib ham yuborma.

Buhronni bilishning bayoni

605. Bilginki, buhron deb bir onda, tezlik bilan oʻzgarishga aytiladi.

606. [Bu] oʻzgarish ogʻir alomatlar va betoblik vaqtda nafning [dard bilan] qattiq kurashuvidan vujudga keladi.

607. U ozgina vaqt ichida kishini yo oʻlish, yoki hayot tomonga olib keladi.

608. Quvvatlar bilan uning dardi oʻrtasida [jang maydonidagi] kurash kabi olishuv ketadi.

609. Agar quvvat gʻolib chiqsa, buhron yaxshi boʻlib, hayot va omonlik [boʻladi].

610. Yoki agar dard gʻalaba qilsa, u vaqtda kishiga halokat va oʻlim tushadi.

[Buhrondagi] xilma-xillikning turlari bayoni

611. Kasallikda yuz beradigan xilma-xillikning turlari oltita:¹⁴⁴ bulardan ish [kasalning ahvoli] yengillashadi yoki yaxshilanadi.

612. Ozgina vaqtda jism yaxshilik va hayot [sogʻayish] tomonga qarab oʻzgaradi.

613. Shunda oldindan xursand qiladigan [alamatlar] koʻrinadi – bu tuzuk [va] yaxshi buhrondir.

614. [Buhronning] boshqa xili borki, unda [ahvol] tez oʻzgarib, [kishini] oʻlimga va

yomon halokatga olib boradi.

615. O‘shanda tabibga yo‘l tang bo‘lib qoladi – u halok qiluvchi yomon buhrondir.

616. Uchinchi [xilida ahvol] sust o‘zgaradi va [bemorni] sog‘lom va tuzatadigan holga olib boradi.

617. U buhron emas, balki oz-ozdan keladigan tarqalishdir.

618. To‘rtinchisida ham o‘zgarish sust bo‘ladi, u betobni yomon eshikka kiritib qo‘yadi.

619. U tarqalish emas, balki tinka qurishdir, u bemorning quvvatlarini bo‘shashtiradi.

620. Beshinchisi o‘rtacha o‘zgarishdan iborat, u [betobni] o‘limga va yomon o‘tishga [tasodifga] olib boradi.

621. Va oltinchisi [bemorni] o‘rtacha vaqtda hayot tomonga olib boradi.

622. Mana shu ikkalasi murakkab buhron deb ataladi va ular bir-biriga ziddir.¹⁴⁵

623. Buhronning yaxshisi [kasallikning] oxirida: quvvatlar ortiq va yetilish to‘liq bo‘lgan vaqtda yuz beradi.

624. Uning ziddi [kasallik] ko‘tarilishda bo‘lganda yuz beradi va u buhron yaxshi emasdir.

Buhron haqida bilinishi lozim bo‘lgan narsalar bayoni

625. Buhron bilan birga sen uchta narsani bilishing lozim:

626. Ogohlantiruvchi [belgilarni], [buhron] kunlarini va dalil bo‘ladigan alomatlarini.

627. [Bular] har bir dardning buhroni tugaganda u qaysi navi bilan tugashini bizga bildiradi.

Buhron bilan oldindan ogohlantirib qo‘yuvchi belgilar bayoni

628. Har bir buhronning kelishidan xabar beradigan kuchli belgilar borki, uni quyida bayon qilamiz.

629. U, masalan, aqlda mushavvashlik va sezishda chalkashlik bo‘lishi, quloq yoki boshda og‘riq paydo bo‘lishi;

630. Oqadigan ko‘z yoshlarining ko‘p bo‘lishi, bezovtalik va uyquning kam bo‘lishi;

631. Harakatlarda iztirob, uyqu o‘chishi, ko‘krakda yoki bo‘yinda og‘riq [paydo bo‘lishi];
632. Ko‘zda [bejo] harakat va qizarish bo‘lgan holda suv to‘lqinida [qolgandek uyqudan] cho‘chib uyg‘onish;
633. Tishlarni g‘ijirlatib taqillatish, burunning esa qattiq qichishi;
634. Lablarda ba‘zan tortishish va ba‘zan ularni so‘rish;
635. Tez-tez nafas [olish], sovuq havoni tortib jalb qilish va betoqatlanish;
636. Tomir urishining uzluksiz bo‘lishi bilan birga tezlashishi, [tomog‘ida] g‘arg‘ara bilan yo‘tal kelishi;
637. Hamisha yurak o‘ynashi, o‘zidan ketish, [qo‘rqqan kishidek] to‘shagidan irg‘ib turib yurib ketish;
638. Qizilo‘ngach bilan tomoqning og‘rishi va [og‘riq] davom etsa, ortiqcha ko‘ngil aynish bilan g‘amginlik bo‘lishi.
639. Yon va qovurg‘alarda sanchiq [bo‘lishi], alam va og‘riqlarning qattiqlanishi;
640. Me‘dada ketma-ket og‘riq [bo‘ladi], betob qora talog‘i yoki jigaridan noliydi.
641. Qorin yoki qovda, xuddi shunga o‘xshash buyraklar va qovuqda og‘riq bo‘lishi.
642. Orqada, zakarda yoki bachadonda paydo bo‘ladigan kuchli og‘riqlar;
643. Hamma bo‘g‘inlarda yoki ba‘zisida tashqaridan yoki ich tomondan og‘riq [bo‘lishi];
644. Mana shu [aytilganlar]ni yaxshi buhron kunida zo‘rayayotganini ko‘radigan bo‘lsang, [bilginki] u yaxshidir.
645. Xususan, agar yetilishlik ayon bo‘lgan bo‘lsa, bordi-yu, shunday bo‘lmasa, u vaqtda sen bu xabarni ziddida¹⁴⁶ ko‘rasan.

Buhron kunlarining bayoni

646. Kasalliklarga oyning ta‘siri bor deyilgan xabar agar to‘g‘ri bo‘lsa, buhronning sababi [ham o‘shadir].¹⁴⁷
647. Chunki oy tez harakat qiluvchi narsadir, u ozgina fursatda o‘z falakini bosib o‘tadi.
648. [Ta‘siri] ba‘zan kuchli va ba‘zan kuchsiz bo‘ladi, u ilmi nujumda bilinadi.
649. [Oy]ning ta‘siri suudida ham, nuhusida ham sezilmaydi.

650. Toki uning shakli o'ziga quyosh nuri tushib turgan chog'da hisga zohir bo'lguncha.
651. Oyning to'rtidan biri to'rt kunda va yarmisi esa haftada nur beradi.¹⁴⁸
652. Dard qat'iyani [oriz] bo'lmaydi, [qachonki] oydagi suud o'rni tabiatan zaif bo'lsa.
653. Agar oy suudda¹⁴⁹ uzoq tursa, betob yashaydi va umri uzayadi.
654. Agar u nuhusda uzoq turib qolsa, betob o'ladi, umri uziladi va tugaydi.
655. Agar buhron bir gal to'rtlik kunda va bir gal yettilik kunda kelsa.
656. Mana shu davrlarda buhron yaxshi bo'lgan bo'ladi, [chunki oldida yaxshilikdan] xabar beradi [gan kunlar o'tgan] va yetilganlikni ko'rib turgan bo'ladi.
657. Va shular [muayyan] davriy ravishda yuz beradi, chunki ularning miqdorlari [intizomi] mustahkamdir.¹⁵⁰
658. Ulardan boshqasida davrlilik yo'qdir, qandaydir bir sabab uni yashirgan; u qandaydir mushkul narsa.
659. Ularda yetilish ham, [oldindan yaxshilikdan] ogohlantirish ham yo'q bo'lib, buning ustiga ularning yuz berishlarida qancha xatarlar bo'lsa.
660. Ular buhronning shiddatli kunlari emas, balki yomon qaytalashdir.¹⁵¹

Buhron nima bilan tugallanishini ko'rsatuvchi belgilar haqida

661. Agar kasallikni qonli [qon g'alaba qilgan] qattiq hayajonli va yomon ekanini ko'rsang.
662. Uning yuz berishlari boshda [kallada] zohir bo'lib, unga boshqa sezuvchi a'zolar ham ergashsa.
663. Va burunlarda qizarish va qichish bo'lsa, bilginki, u buhron burundan qon kelish bilan bo'ladi.
664. Agar u [dard]ning yuz berishlari [jismning] pastki tomonidan — kindikka ulangan og'riq bilan bo'lsa.
665. Ilgari uning [xotin kishining] hayz qoni yomon — buzuq [to'xtab qolgan] bo'lgan bo'lsa, uning buhroni, albatta, hayz kelish bilan bo'ladi.
666. Yoki [badanning] yuqori [qism] og'riqlardan salomat bo'lib, og'riq qovurg'alarning pastida bo'lsa.

667. U betob ilgari jigardan nolib yurgan bo'lsa va og'riq orqa teshik tomon tushgan bo'lsa.

668. Sen uni [tuzalishdan] ogohlantirsang, ziyon topgan bo'lmaysan, chunki u bavorir qoni bilan bo'ladigan buhrondir.

669. Agar kasallik safrodan bo'lib, tugash vaqtlarda bo'lsa.

670. Unda barsom g'olib bo'lib, bosh og'rig'i va dardi ko'paysa.

671. Undan sen qo'rquvda bo'lma, chunki u buhron burun qonashi bilan yuz beradi.

672. Agar [kasallikning] yuz berishlari me'dada bo'lib, [bemor] ilgari jigar [og'rig'i] dan nolib yurgan bo'lsa.

673. Va u behuzurlik va ortiqcha ko'ngil aynishda bo'lsa, uning buhroni, albatta, qayt qilish bilan [bo'ladi].

674. Yoki [bemor] bosh og'riqdan salomat bo'lib, qorin og'riqlaridan shikoyat qilib yurgan bo'lsa.

675. Uning kindigi do'ppaygan holda ko'rinsa, undan oldin ichi to'xtab qolgan bo'lsa.

676. Shunda sen ogoh bo'lki, u buhron axlat chiqarish bilan yuz beradi.

677. Yoxud qorin burab [og'rishdan] salomat, kasallik ham og'ir bo'lmasa.

678. Balki u ozgina behuzurlik va uyqusizlikda bo'lib, yuz berishlarida ter bo'lmasa.

679. Kasallik yengil bo'lib, og'riqlar qovuq ostida bo'lsa.

680. Bu ishda sen mening to'g'ri so'zimni ol. U kishining buhroni siyish bilan bo'ladi.

681. Yoki [kasal] siydik tutilishdan salomat bo'lsa, u qovuq haqida nolimasa,

682. Uning badan teshiklari ochiq bo'lsa, ortiqcha og'riqlar ham bo'lmasa.

683. Qattiq quruqlik va uyqusizlik ham bo'lmasa, uning buhroni, albatta, ter bilan bo'ladi.

684. Agar bezlarda og'riqlar bo'lsa, uning buhroni [bo'lajak] shishlar bilan yuz beradi.¹⁵²

685. O'lishga yoki salomatlikka dalolat etadigan quyidagi belgilarga qarab tadbir — chorani ishlat!

**O'limdan ogohlantiruvchi belgilar
va birinchi navbatda [a'zolarining]
ishlaridan olinadigan belgilar haqida**

686. Yorug'ni yoqtirmaslik, [ko'zni] qattiq harakatlantirish va bir tomonga burish bilan ko'z yoshining oqishi.

687. Ko'zning bittasining bir tomonini kichiklashuvi, og'izning esnov bo'lmayin ochiq bo'lishi [ochilishi].

688. Kishi[ning] ikki qo'li yoki ikki oyog'i bo'shashib, ensasi bilan chalqancha yotadigan bo'lishi.

689. U yotgan yeridan tushib ketaveradi[gan] va ikki oyog'i, ikki qo'lini ochaveradi[gan bo'lsa].

690. U o'zi yomon shaklga [ahvolga] tushib kiyimida tuk va iplar [bor deb xayol qilib] ularni e'tibor bilan yula beradi[gan bo'lsa].

691. Yoki uning qo'l-oyoqlari [dardning] nihoyasida og'irlashsa va qaragan narsasiga tikilib qoladi[gan bo'lsa].

692. Tishlarini odatdan tashqari g'ijirlatishi, ikki qo'l[ining] yostiqqa intilaverishi.

693. Ko'ziga qora qo'l ko'rinib, uni o'ldirmoqchi bo'layotgandek bo'lib xayol qilishi.

694. Agar u o'tkir kasallikda bo'lsa, uning shu [dard]dan o'lishi yaqindir.

695. Agar indamay yotgan [kasal] ezmalik boshlasa yoki og'irbosiqli [kasal] besaranjomlana boshlasa.

696. U ko'zi ko'rmayotganidan va qulog'i eshitmayotganidan nolisa yoki og'riqdan quvvati tushib ketsa.

697. U dardning nihoyatida [tushida] tanasi ustiga qor yog'a boshlaganini ko'rsa.

698. [Unda] baland sovuqli, hayajonli nafas [olish bo'lsa], albatta, u halok etuvchi bir narsadir [holatdir].

699. Kechasi uyg'oqlik-u, kunduzi uyqu bo'ladigan bo'lsa yoki betob butunlay uyqusini yo'qotsa.

700. Yoki shu uyquda [uning] holi yomon bo'lib, uyqu [uning] dard-alamlar[iga] sabab bo'lsa.

701. Agarchi u [bemorning] tabibi [tibbiy] qonunga¹⁵³ murojaat qilsa ham, uning ishi [dardi] uchun biror ochiq [chorani] topolmaydi.

**Badanning holatlaridan olinadigan
va oʻlimdan darak beruvchi belgilar bayoni**

702. [Dardning avvalida betobning] yuzi oʻlikning yuziga oʻxshasa va chakka[si] mashaqqat [dard] tufayli tirishsa.¹⁵⁴

703. Oʻsha [kasallikning] sovuqligidan ikki quloq burishib toʻntariladi va koʻzlari ich-ichiga tushib ketadi.

704. Ikki koʻz qizaradi yoki qorayadi, yoki ular turtib chiqadi yoki xiralashadi.

705. [Koʻz] harakati kamayadi, baqrayib qoladi yoki soviydi, yoki ikkala qovogʻi agʻdarilib qoladi.

706. Burun oʻtkirlashib, bir tomonga qiyshayadi, labining cheti tortishadi.

707. Kishining qoʻl-oyoqlari soviydi, tilida yara va qoralik paydo boʻladi.

708. Shu bilan birga, unda iztirob va bezovtaliklar ham boʻladi, bular, albatta, kuydiruvchi isitmada yomondir.

709. Tirnoqlar qizil va yashil rangda boʻladi va badandagi [yara] izlari qorayadi.

710. Yettinchi [kundan] avval sariq kasalligi keladi, qovurgʻa uchlarida ozish zohir boʻladi.

711. Agar tananing sathida sovuqlik zohir boʻlib, uning ichkarisida issiqlik yashirinsa.

712. Xususan, shu [ahvol] boshqaruvchi aʼzolarida uzoq vaqt qolsa.

713. [Oʻtkir isitmalarida] ikki haftadan ilgari qoʻl-oyoqlari bilan yuzi keriksa — shisha, bu yetarli alomatki.

714. U kishining halokati. Albatta, tez boʻlib, ikki haftaga yetishi gumon.

715. Isitma yo buhronsiz toʻxtaydi, yoki uning juft kunlarda kuchaygani koʻrinadi.

**Badandan chiqadigan narsalardan olinadigan
oʻlimdan darak beruvchi belgilar bayoni**

716. Agar axlat qora, yashil, sassiq, yogʻlik yoki qizil boʻlsa.

717. Va suvdek [suyuq], koʻpikli va oq [boʻlsa], bularning hammasi yomon [belgi].

718. Agar u har xil rangda boʻlib koʻrinsa va bu ahvol buhron [tufayli] boʻlmagan boʻlsa, u oʻlim[dan darak demakdir].

719. Agar ishtahani zaiflikda koʻrsang, [axlat] toza oʻtdan iborat boʻlsa.

720. Unda eski qon bo‘laklari [bo‘lsa], keyinidan et bo‘laklari ham kelsa.
721. Safrodan keyin qonli [axlat] kelsa, u har safar [qon kelishdan oldin] achitib og‘ritmasa.
722. Kasallik natijasida uning badani oriqlab ketgandan keyin axlati savdoviy bo‘lib ko‘rinsa,
723. Kuydiruvchi [isitmada] ichi bog‘lanib [to‘xtab] qolsa, u, albatta, miya ayniganidandir.¹⁵⁵
724. Agar u uyalgan holda [o‘zidan] ovoz [bilan yel] chiqarsa va bunday odati bo‘lmagan bo‘lsa, bu yomon [belgidir].¹⁵⁶
725. Suyuq, qora va ozgina siydik kasal kishidan sodir bo‘lsa, bu o‘lim [nishonasidir].
726. Suyuq siydik siyish bilan [unda] alahlash [bezovtalik] ham bo‘lsa, bu unga yetadigan musibatlarning eng kattasidir.
727. Qora va sassiq qusish, burundan ham shunday qon kelishi [xiltlarda] buzuqlik borligidan [dalolat beradi].
728. Sil kasalligida ketma-ket [yo‘talish] va oz-ozdan tupuk tashlash yomonlikning belgisidir.
729. Qiynalish va yo‘talish [bilan] har xil rangda tupuk tashlash o‘limdan nishona.
730. Miyaga xos bo‘ladigan va bo‘shangandan [qutulgandan] keyin rohatlantirmaydigan terlash ham [yomon alomat].

Salomatlikdan darak beruvchi¹⁵⁷
belgilar bayoni

731. Yuz agar sihatlik vaqtda bo‘lganidek bo‘lib ko‘rinsa, [betobning] tuzalishi, albatta, ayon bo‘lgan bo‘ladi.
732. Agar harorat o‘rtacha holda ko‘rinsa va qovurg‘a kemirchaklari oriq bo‘lmasa.
733. Yettinchi [kundan] keyin sariq kasali zohir bo‘lsa-da, zehni salomat bo‘lsa, [u vaqtda] halokat yo‘qdir.
734. Hisda yoki harakatda quvvat bo‘lishi hamda badanda¹⁵⁸ umumiy yengillik bo‘lishi.
735. U [bemor] odatdagidek yotib, kechasi uxlab orom olishi.
736. Kunduzning ko‘proq [qismi]da uxlamasligi, uyqudan keyin tinchlanishi.

737. Og'riqni qisman ketkazgan har bir uyqu, dardni qisman yengillantirgan alahlash.
738. Miya va kasalliklarda miyaga sherik bo'ladigan [bosh pardasi va ko'krak kabi] a'zolarining kasalida.
739. Muttasil alahlashdan salomat bo'linsa, bu bemor, albatta, tuzaluvchi bo'ladi.
740. Barsom vaqtida aksirish bo'lsa, u hol tuzalish belgilarining biridir.
741. Bosh kasalligida burun va quloqdan keladigan qonlar badanga shifodir.
742. Tez ham, sekin ham bo'lmagan nafas [olish] jarayonlarning eng yaxshisidir.
743. Uning [nafasning] uzilmasligi va tikka bo'lmasligi [ham yaxshi], chunki betob o'ziga yetgan musibat uchun puflamaydi [uh tortmaydi].
744. Uning tomir urishi kuchli bo'lib, tor bo'lmaydi va nafasi kuygandek [issiq] bo'lmaydi.
745. Ishtaha va hazm quvvati yaxshi, axlatining quyuk-suyuqligi o'rtacha.
746. Uning tusi kuygandek qora yoki yashil bo'lmay, o'rtacha sariq bo'ladi.
747. Yoki buhron kunida xilt [axlat] gijjalar bilan qo'shilib chiqsa, u hayot belgisi-dandir.
748. O'sha xiltdan betoblik [paydo] bo'lgan edi, o'sha yuz berish ketishi bilan u betoblik ham ketadi.
749. Agar safro chiqsa, karlik ketadi va miya kasalligidan og'riq ham ketadi.
750. Bavoisr qoni [oqishi] qora taloq [kasalligi] va melanxoliyadan¹⁵⁹ [qutulish va] ahvolning tuzalishidir.
751. Sariq suv kasalligi [vaqti]da [sariq] suv chiqishining ko'payishi va unga balg'amning aralashib [chiqishi] u kasallikning shifosidir.
752. Ko'z og'riq [payti]da chiqqan safro tez muddatda tuzalish haqida [dalil]dir.
753. Agar siydikni limonsimon [rangda] va undagi oq quyqumni pastga cho'kuvchi holda ko'rsang.
754. Agar betobdan mo'tadil [bir tekis] ter chiqsa, bu qon isitmasi¹⁶⁰ tufayli bo'lgan [yaxshi belgidir].
755. Agar anginada boshning sirtidan shishni ko'rsang, u foydalidir.
756. Doimiy yo'tal[lik kishi]da ikki moyakning shish[gani]ni ko'rsang, u badanning tuzalishi[ga dalildir].

757. O'pka shamollaganda oyoqning shishishi va shishning chovga tushishi [ham yaxshi belgi].

758. Kun ora tutadigan isitma [davri]da burunning kavagida yoki labda yara [bo'lishi], bu sog'lomlik bilan ogohlantiruvchidir.

759. "Davoli"¹⁶¹ va "tulki kasalligi"ning, qorin va qora taloqdagi [dard]ning tuzalishi belgisidir.

760. Xuddi shunga o'xshash ichaklardagi toyg'anoqligi [kasalligi]dagi nordon kekirik jonni saqlab qoluvchidir.

761. Tirishish yoki tutqanoq [dardi] ustiga isitma zohir bo'lsa, u darddan [tirishish va tutqanoqdan] qutqazishdir.

762. Agar kishida [rutubat tufayli] hiqichiq tutganini ko'rsang va unga aksa urish ham kelsa, u, albatta, o'ziga kelgan [tuzalgan] bo'ladi.

Dalillarga asoslanib hukm qilish chog'ida qanday ish qilish kerakligi haqida¹⁶²

763. Belgilar bilan bemor haqida hukm qilishni o'ylasang, [to'g'ri] taqqoslashni o'z ustingga ol!

764. Chunki dalillar kuchli va to'g'rilari bo'lib, ulardan boshqasi esa yolg'ondir.¹⁶³

765. Xabar berishda to'g'ri chiqadigani, bosh a'zolarida paydo bo'luvchisidir.

766. Dalillardan [salomatlik yoki halokatga] to'g'ri guvohlik beruvchisini va shunga o'xshash badanda unga qarshi keladiganini ham ko'rmog'ing [bu ikkinchi xilidir].

767. Sen bir-biriga qarama-qarshi ko'radigan hamma dalillar zaif badanda [yo salomatlikka, yoki kasallikka bo'lgan] guvohlardandir.

768. [To'g'ri dalilli] ma'lumotlarga xilof bo'ladigan har bir dalil o'limni tasdiqlaydi, [bemor] barhayot qolmaydi.¹⁶⁴

769. Agar belgilar zaif holda senga bir-biriga zid bo'lib [ko'rinsa], demak, u doimiy shakdan iboratdir.¹⁶⁵

770. Sen [u vaqtda] hukm chiqarishda to'xta va ishning [hal bo'lishi]dan umidda bo'l.

771. Agar belgilar [bir fikrga] kelishda [ikki tomonga] barobar bo'lsa, sen to'xta. Bordi-yu, bir tomonga bossa, shu g'olibroq [bo'lgan] tomonga hukm qil.

URJUZANING IKKINCHI QISMI.

BU AMALIY QISM VA UNING TAQSIMLANISHI

772. Tib haqidagi nazariy kitobda nazmdan sen eshitgan [soʻzlarni] ipga tizganimda.¹⁶⁶

773. [Amaliy qismni] ham nazm qilish istagim boʻlgan edi. Mana hozir men oʻsha amaliy qismni boshlayman.

774. Shu bobda aytmakka ehtiyojim tushgan narsalarni men bu kitobning boshlanishi-da aytib oʻtgan edim.

775. Tibning amaliy qismi ikki xil: biri qoʻl bilan qilinadi.

776. Va boshqasi esa dori bilan va tayinlangan gʻizo bilan qilinadi.

777. [Turli] tadbirlar bilan qilinadigan nazarga ilinmaydigan ish emasdir.

778. U ikki xilga [boʻlinadi]: bittasi sogʻliqni saqlash deb ataladi.¹⁶⁷

779. Va uning oxirgi boʻlagi¹⁶⁸ kasallikning tuzalishidir. Oʻz hayotim bilan qasam ichamanki, tabiblarning gʻoyasi mana shudir.¹⁶⁹

Sogʻliqni saqlash ishining boʻlinishi va u gʻizo va dori bilan [boʻladigan] ishning avvali

780. Sogʻliqni saqlash sogʻlom kishilarga tegishli, bu bizning istisnosiz va ravshan aytgan soʻzimizdir.

781. Sogʻligʻi toʻliq boʻlmagan kishi uchun ham [tegishli]; u amaliy ish paytida ikki xilga ajraladi:

782. [Bir xili shunday boʻladiki], kishining zaifligi butun zotiga [aʼzoyi badaniga] va bor vaqtlarining hammasiga taalluqli boʻladi.

783. Qari kishi, kasaldan yangi turgan kishi va yosh goʻdak bolalar kabi. Ularning zaifligi hamma [holatida] aralashgandir.

784. Yana shunday kishiki, uning tanasida bir belgi koʻrsan, shu belgidan u kishining betob boʻlish xavfi boʻladi.

785. Yoki [ikkinchi xili] bir kishining terisi, eti va suyagi kabi jismining ayrim qismida zaiflikni koʻrsan.

786. Masalan, bir kishining meʼdasi zaif, tabiiy sovuq mizojli va yupqa boʻlsa.

787. Baʼzilarning ofatlari, bachadonda[lik] vaqtda paydo boʻladi; oltinchi barmoq

yoki shish [hosil bo'lishi] kabi.

788. Ba'zilarning [nuqsoni] yoshlariga qarab bo'ladi va bir vaqt bo'lib, bir vaqt bo'lmaydi.

789. Masalan, mizoji ho'l kishi bolalik vaqtida zaif bo'lib borib, kattalikda [katta bo'lganda] baquvvat bo'lib ketishi.

790. Va [mizoji] quruq odam kuz faslida zaiflashib, bahorda zaif bo'lmasligi kabi.

Sog'lom [deb e'tirof etilgan] kishining havosi va xususan yoz faslidagi [havosining] tadbiri haqida umumiy so'z

791. Sog'liqni saqlash uchun tibning amaliy qismi ikki amalni o'z ichiga oladi.

792. [Kishining] mizojini o'z holida qolishini istasang, uning g'izosini o'z [mizoji]ga moslashtir.

793. Agar sen badanni tabiatidan [mizojidan] chiqarish niyatida bo'lsang, uning mizojiga teskari bo'lgan tadbirni ko'r.¹⁷⁰

794. Mutlaq sog'lom kishini sog' holda barqaror qoldirish uchun.

795. Uni to'rtinchi iqlimdagi shaharlarda va ularning sog'lom bug'li [havosi buzilmagan] bo'lgan yerlarda istiqomat qildir.

796. Ulardan sahroga qarab turganlarini [tanla] va sharq tomondagisining payida bo'l, chunki u latifroqdir.

797. Yozda tog' tomonlarga va shimol tomondan ochiq bo'lgan shaharga moyil bo'!

798. Kechasi baland joylarda o'tir, kunduzi esa past yerlarga tush.¹⁷¹

799. Jun va paxtadan [to'qilgan] kiyimlardan yuz o'gir va zig'irpoyadan [ishlangan] yengil [kiyimlar] tomon moyil bo'!

800. Xushbo'y o'simliklardan sovuq [mizojlisini] va hidli yog'lardan esa qizil gul yog'ini ishlat!

801. Ikki ko'zingni changdan, tutunlardan va bug'dan ehtiyot qil.

802. Quyosh shu'lasidan, issiq shamoldan va o't alangasiga qarshi kelishdan [ham saqlan].

803. Mayda yozuvlar va chaplashgan ta'liq¹⁷² xatlarini uzoq o'qima.

**Yeyiladigan narsalarning hamma vaqt
va xususan yoz faslidagi tadbiri**

804. Bir kecha-kunduzda eng kami bir marotaba ovqatlanilsin.¹⁷³
805. Eng ko‘pi esa ikki marotaba yeyilsin, o‘rtachasi esa ikki kunda uch marotaba.
806. Yeyish vaqtini uzaytir — shunda ishni oxirigacha yetkazgan bo‘lasan. Chaynaladigan narsani [ovqatni] maydala, shu bilan uning hazm bo‘lishini istagan bo‘lasan.
807. Tish bilan chaynashni qabul qilmaydigan har bir narsani hazm qilish senga qiyin bo‘ladi.
808. Ishtahang tushgan har bir yomon narsani [yemakni] ixtiyor qilsang-u, u bilan g‘izolanishga [uni hazm qilishga] ko‘ngling chopmasa.
809. O‘sha narsaning mizojini tuzatadigan ziddi bilan muolaja qilishga hikmat — donolik bilan qasd qil!
810. Tekis bir xilda bo‘lmagan [mo‘tadil] ba’zi mizoj[lar] borki, ular g‘izoning yomoni bilan tuzatiladi.
811. Kishining odati — quvvatga [tabiatga] o‘xshashdir; shuning uchun ko‘ngling tusagan narsadan yuz o‘girma.¹⁷⁴
812. Zarar yetkazadigan har bir odatning ildizini asta-sekin, zamon o‘tishi bilan qirq!
813. Ho‘l — rutubatli [ovqat]ni oldin, qobizini esa keyin iste’mol qil. Shirin mazaligi-ga nordon mazalikni aralashtir.
814. Quruq [ovqatni] ho‘l [mizojligi] bilan, sovuq [mizojlisi]ni esa issiq [mizojligi] bilan tuzat.
815. Agar u issiq [mizojli] bo‘lsa, sovuq [mizojlisi] bilan, ho‘l [mizojli] bo‘lsa, teskari-si bilan aralashtir.
816. Agar semiz [go‘shning] ta’bingga yoqmasligidan va yog‘liq [ovqatning] hazmni yomonlashtirishidan qo‘rqsang.
817. Uni tuz yoki o‘tkir narsalar bilan aralashtir; bular [ovqatni] muloyim — yoqimli qilishga yordam beradi.

Taom yeyish vaqtlari

818. Ovqat riyozat [jismoniy harakat]dan so‘ng hamda o‘zingdan najosat chiqqandan keyin yeyilsin [yemak kerak].
819. Yemog‘ing uchun istirohat vaqtini va shamollari salqin yerni talab qilgil!

820. Va buning uchun sovuq vaqtini [mo‘ljalla] va bu to‘g‘rida [doimo] shu tadbirni qasd qil.

Yoz [fasli]da yemakning tadbiri

821. Yozda g‘izoni kamaytir, yeydigan narsangni yengil tomonga bur!

822. Go‘shtlarning g‘alizidan chetlan. Ko‘kat va sutlar tomon yuzlan!

823. Yangi baliq, kattaroq bo‘lib qolgan erkak uloq va qo‘zilarga mayl qil.

824. Jo‘ja, tovuqlar, kaklik go‘shiti va qirg‘ovullar [tanovul qil!].

825. *Kuzburiya*, *sikboj*,¹⁷⁵ *hisrimiya*¹⁷⁶ va *zirboj* iste’mol qil.

826. *Xabis*¹⁷⁷ kabi holvalardan va gandano solingan quymoq va *fususlardan*¹⁷⁸ chetlan.

827. *Xulom*¹⁷⁹ va *karislarga*¹⁸⁰ mayl qil, *tafshil*¹⁸¹ va *masuslardan*¹⁸² yegin.

Ichimliklar tadbiri

828. Agar sen xomsemizlikdan omon bo‘lmog‘ingni istasang, ichingni uchga taqsim qil!

829. [Uning] uchdan biri nafas olish uchun, yana uchdan bir qismi g‘izo uchun va qolmishi esa suv uchun joy bo‘lsin.

830. Sovuq suvning ozginasi ham tashnaligingni qondiradi. [Ammo] iliq — turib qolgan [suv]ning ko‘pligi senga shifo bo‘lmaydi.

831. Muzni ichimlikda ko‘p ishlatma, chunki u asablarga zarar qiladi.

832. Muzli [suvni] semiz, eti qon [mizoj]li, zuvalasi pishiq kishidan boshqaga ichirma!

833. Insonda [uchraydigan] ovqat tiqilish [hodisasi] bo‘lmasa, dasturxon tepasida hirs qo‘yib suv ichma!

834. Ovqat ustida va hammomdan chiqish bilanoq suv ichma.

835. Kuchli jismoniy harakat va yoki jinsiy aloqadan keyin ham [suv ichma], chunki bu bir ofatdir.

836. Agar chidab bo‘lmaydigan biror zarurat taqozo qilib qolsa, u vaqtda ozgina ich.

837. Qachonki ovqat qorinning pastki qismiga — hazm bo‘lish tomonga burilsa

838. O‘zingni qondiradigan suvdan yoki kifoya bo‘ladigan sharobdan ichaver.

839. Agar [suvdan] yoki mast qiladigan ichimlikdan to'yib qonganingdan keyin

840. Senga yana tashnalik kelsa, ehtiyot bo'l, chunki u tashnalik yolg'onchi narsa.

**Nabiz¹⁸³ va shunga o'xshash (ichimliklar)
tadbiri**

841. *Nabizdan ko'p* ichishga qasd qilma, uning oziga qanoat qil!

842. Har kuni nabiz [ichishni] davom ettirma, och qoringa ichadigan bo'lma.

843. Latif muloyim taom ustidan va o'tkir achchiq g'izo ustidan [ham ichma!]

844. Hamma vaqt mast bo'lishdan o'zingni saqla, bo'lmasa, bir oyda bir martasi [ki-foya] qiladi.

845. [Mastlikning] ahyon-ahyonda bir bo'ladiganida manfaat bor, uning ko'pida turli ziyonlar bor.¹⁸⁴

846. Sharob kimning boshini og'ritadigan bo'lsa va unga harorat, xumorlik oriz bo'ladigan bo'lsa.

847. Unga sen rayhoni¹⁸⁵ sharobni ichir va ketidan u anorning nordonini gazak qilsin.

848. Behi¹⁸⁶ va bodring yesin va unga sen sharobni suv aralashtirib ber.

849. Kimki sharob tufayli ichida bodlar [paydo bo'lishidan] nolisa, unga sharobning nuqul o'zini ichir.

850. Bunday kishilar uchun kuchli sariq sharob foydali, ularga gazak sho'rttang narsalar [bo'ladi].

851. Yoz [faslida] suvdek oq ichimliklarni [iste'mol qiladi], chunki u latifroqdir.

852. Unga suv aralashtir va nordon narsalar totin, ovqat yemoqchi bo'lsang, ustidan qobiz narsa[larni] yegin!

Uyquning tadbiri

853. Ko'p uxlama, u vaqtda sen nafsga ozor bergan bo'lasan, nafsni uxlatmaslik ham bo'lmaydi, sezgilarga ozor bergan bo'lasan.

854. Ovqat hazm bo'lmaganda yoki sassiq kekirik vaqtida uzoqroq uxla.

855. Ochlik vaqtida uyquni uzun qilma, bo'lmasa, axlatning bug'i boshga uradi.

856. Ovqatdan keyin [biron narsaga] suyanib uxla, toki ovqat hazm bo'lish yeriga tushsin.

Harakat [badantarbiya] qilish tadbiri

857. Kuchli badantarbiya qilma va [uni] juda tashlab ham qo‘yma, balki o‘rtacha holatda bo‘l!
858. A’zoga yomon xilt yig‘ilishidan qo‘rqqaningda unga yordam berish uchun riyozat qildir.
859. Istasang, [uni] nafas tezlashguncha piyoda yurish yoki kurash tushirish bilan [qil].
860. Oriq kishilarni riyozat qildirma, toki tahlil [bo‘shashish] ortib ketmasin.
861. Yog‘i ko‘p va semiz odamni riyozat qildir, agar u qorinli bo‘lsa, unga belbog‘ bog‘lat!
862. Yoz [fasli]da charchatadigan [harakatlarni] kamaytir, chunki sen terlash bilan bo‘shashib ketasan.
863. Men nazariy qismda badan uchun sen muhtoj bo‘ladigan narsalar tadbirini aytib o‘tdim.
864. [Ular badandagi] chiqindilarni bo‘shatish [chiqarish] yoki to‘xtatish va nafsning sen istaydigan [boshqa] xohishlaridan iboratdir.¹⁸⁷

Yil fasllari ichida [qilinadigan] boshqa tadbirlar

865. Yoz [fasli] haqida aytganlarimning hammasi, undagi tadbirlarning qaysi kayfiyatda bo‘lishi haqida edi.
866. Ularni sen issiq mizojlilarga va yoshlarga hamda janubiy mamlakatlarda qo‘lla.
867. Qishda esa uning teskarisiga bo‘yin qo‘y: shunda sen uning alamli sovug‘iga qarshi kela olasan.
868. Bahor va kuz [fasllarida] esa qish bilan yoz [fasli] o‘rtasidagidek ish ko‘r.
869. Bahorda [tadbirni] quruq qil, kuzda esa ho‘l qil, hatto uni quruqlikdan uzoqlatgin.
870. Bahorning [oxiri] va kuzning boshlanishida yozdagi holdek tadbir qil!
871. Bahorning avvali tadbirda kuzning oxiriga o‘xshashdir.
872. Bu ikkalasida ham qishdagi holdek, ya’ni [kishini] qizitadigan g‘izo bilan tadbir qil.
873. Bu tadbir bir yerda turganlarga qo‘llaniladi. Kimki safarda bo‘lsa, bu tadbirni undan tushir.

**Safarda bo‘luvchi va xususan dengiz
[safari]dagi kishining tadbiri**

874. Kimki dengizda [kemaga] minib yuruvchi yoki kunlardan birida quruqlikka bo‘ruvchi bo‘lsa.

875. Uni qishda dengizda yurishdan, qattiq shamol va bo‘ron [paytida] safar qilishdan qaytar.

876. Kimki dengizda ko‘p yursa, unga suvni ko‘proq [g‘amlab] ber va suv idishning yaroqlisini tanlab ber.

877. Yo‘lga ho‘l va ichni yumshatuvchi ovqatlardan ber.

878. Agar boshi aylanishidan qo‘rqsang, unga surgı qil, shundan keyin uni [dengizga] tushiraver.

879. Unga nordon meva suvlarini ber va ularga qabz [qiluvchi] suvlarini ham aralashtir.¹⁸⁸

880. U kishini issiq suvda cho‘mlitirib kirdan [tozala] va kiyimlarni unga tayyorlab ber.

881. Safardagi kishilardan kimni bit bossa-yu, ularni o‘ldirishga qodir bo‘lmasa.

882. Yungni olib undan arqoncha esh va *simob moyi*¹⁸⁹ bilan pishitib u arqonchani moylagin:

883. U kishining kiyimi orasiga o‘sha arqonchani taqib qo‘y, to undan bitlar to‘kilib tushguncha.

884. Agar kishi quruqlikda safar qilsa, uni sovuqdan [saqlash] iloji ustida ishlagin.¹⁹⁰

**Quruqlikda va xususan sovuq [payti]da
safar qiluvchi kishining tadbiri**

885. Uni qorda qolishdan ehtiyot qil, shunda u muzlab qolishdan qutuladi.

886. Unga to‘ydiradigan taomdan yedir, toki u ochlikdan o‘limga erishmasin.¹⁹¹

887. Agar u sovuq qotsa, hammomga tushir, uni yana badani yashnagan kishilarga yaqin qil.¹⁹²

888. Uning ko‘zlarini qor [o‘z oqligi bilan] qoplaydigan bo‘lsa, ustiga qora ro‘mol tashlab qo‘y.

889. Uning oldiga qora narsalarni ko‘p qo‘y, toki unga uzoq qarasın.

890. Qo'l-oyoqlarini sovuqdan ehtiyot qil. [Ularni] o'raydigan narsalarini qust yog'iga¹⁹³ botirib ber.

891. Ikki oyog'iga maxsi kiyishdan oldin paytavani ko'p o'rat.

892. Agar u sovuq yetgandan keyin [oyog'ida] og'riqni sezmasa, bilginki, uni sovuq olgan bo'ladi.

893. U vaqtda paytavani yechgin va uni to'xtovsiz ishqala yoki uni isit.

894. Gorchitsa yog'ini qizitib surt va shundan keyin uni bog'lab qo'y va ehtiyot qil.

895. Agar [oyog'i] qorayib ketgan bo'lsa, uni tig' bilan tilgin, buzilgandan fasod boy-lasa, uni yaxshilab tozalagin.

896. [Buzilishdan] sochilib ketsa, uni kesib tashla, ya'ni o'lgan etni demoqchiman.

897. Charchashga duchor bo'lgan kishini [musofirni] moylash bilan davola va unga ovqatdan muloyimini [yedir].

898. Hamda uni hammomda ishqala va uqala, shundan keyin u bir necha kun dam olsin.

Issiqda safar qiluvchi kishining tadbiri

899. Kimki issiqda safar qiladigan bo'lsa, borishida ham, qaytishida ham uning tadbirini ko'r:

900. Uni samum¹⁹⁴ shamoliga kirishidan qaytar, toki uning issig'idan isitmalamasin.

901. Tomiridan anchagina qon ol, shunda qon olishing bilan u kishi shishdan salomat bo'ladi.¹⁹⁵

902. Kishi agar qattiq safro mizojli bo'lib, [uning] tashna bo'lishidan qo'rqsang, [undan] safroni chiqar.

903. Safarga chiqishdan avval pishirilgan [sovuq mizojli] meva suvlari¹⁹⁶ [murabbotlar] bilan [safrosini] so'ndir, chunki bu odam [safro] haroratidan xatar ustida bo'ladi.

904. Sovuq [mizojli] ko'katlardan unga ozgina yedir va bir yo'la suvidan ichirib qondir.

905. Qo'lingdan kelgancha [uni] tinchlikdan ayirma va imkon boricha u g'azablanmasin.

906. Soyada bo'l va boshingni yop, baqirish va gapirishni ozaytir.

907. Munozara va janjallashishni tashla, kuydiradigan issiqda uzoq turma.

908. Kunning qizigan paytida yurishda tashna bo'lsang.¹⁹⁷
909. Kofur kulchalaridan ishlanadigan kichik "Misr boqilasi"¹⁹⁸ donini og'zingga ol.
910. Semizo'tning suvi va g'o'ra uzun sharobi bilan suvni qo'shib ich.
911. Agar quyoshning betga ta'siridan qo'rqsang — chunki u ochiq yuzga shilish bilan yomon ta'sir qiladi.
912. Uning tadbiri uchun sham bilan qo'shib eritilgan moyini ishlat. Bu ayollar uchundir.

**Go'dak bolaning va, birinchidan, onasining
qornidalik vaqtidagi tadbiri**

913. Go'dak onasining qornida ehtiyot qilinishi kerak, toki uning tanasiga biror ofat yetmasin.
914. Homilador xotinning me'dasini ehtiyot qil, toki [nojo'ya narsalarni yeb] iahtahasida buzuqlik ko'rinmasin.¹⁹⁹
915. Onaning qoni tuzatiladi, chiqindilardan tozalanadi [toki] bola o'sha toza qondan paydo bo'lsin.
916. Agar go'dakka enaga ovqat yoki ichadigan narsasini beradigan bo'lsa, [bolani] tarbiyat qilish yoshining muddatini o'zing tanla.
917. Agar onada qon hayajonga kelsa, undan qon olma, balki sovuqlik narsalar bilan hayajonini so'ndir.
918. Yoki biror xilti qo'zg'alsa, unga surgı qildırma, unga [xiltıni] yumshatuvchi narsalar berish bilan muomala qil!²⁰⁰

[Bola tug'ishda] dard tutishning tadbiri²⁰¹

919. Homilador xotinning tug'ish vaqti yaqinlashsa, uning tug'ishini yengillashtir.
920. [Masalan] hammomda bellarini va bolaga yondashadigan tomonlarini.
921. Moy bilan ishqala, toki asablar yumshasin va tug'ish paytida qiynalmasin.
922. Uning ovqatini yog'li [taomlardan] qil va unga moyli sho'rva ichir.
923. Uni baqirish, sakrash, cho'chish, dodlash va urishdan ehtiyot qil.
924. Tug'ishi qiyinlashganida [ya'ni qattiq dard tutganda] ichiga yo'ng'ichqa suvi solingan xurmo qaynatmasini ichir.
925. Unga bir ziyrak doya xotin [tayin] qil, u ayamasdan uning ikki oyog'ini cho'zib tursin.

926. Keyin uni birdan oʻrnidan turgʻazib, ustalik bilan qornini siqsin.
927. Agar undan ortiqcha qon olsa, qahrabo kulchalaridan bir nechtasini ichir.
928. Yoki biror zarar [kasallik] tufayli undan qon ketmasa, [toʻxtab qolsa] *murrdan* bir necha kulchani ichir.
929. Agar bola turadigan parda [qogʻonok] tushmasa, ochib eritadigan [davolar] bilan bugʻla.
930. Masalan, *murr*, *qitron*, archa urugʻi, oltingugurt va Abu Jahl tarvuzi kabi narsalar bilan.
931. [Chaqaloq] uchun oʻrta yoshlik boʻlgan juvonlardan emizuvchi tanla.
932. U etlik boʻlsin, biroq badani boʻshashgan boʻlmasin, mizoji moʻtadilga yaqin boʻlsin.
933. U gavdalik, ikki emchagi katta, boshi²⁰² va ikki koʻzi toza boʻlsin.
934. Har qanday ichki kasalliklardan sogʻlom, aʼzolari va boʻgʻinlari sogʻ ayol [boʻlsin].
935. Uning suti suyuq ham, quyuq ham boʻlmasin.
936. [Suti] oq rangli, mazasi shirin va xushboʻy boʻlsin, sassiq va toʻkilganda choʻziladigan — yopishqoq boʻlmasin.
937. Unga shirin va yogʻli taom hamda sariyogʻ bilan [qovurilgan] yangi baliq goʻshti-ni ber.

Goʻdakning oʻziga xos tadbiri

938. Uni yoʻrgaklash oldida qobiz burishtiruvchi [moylar] bilan moyla, to uning terisida pishqlik koʻrganingcha.
939. Uni choʻmiltir, shunda uni xiltlardan [kirlardan] tozalagan boʻlasan. Uning yoʻrgak bogʻini oʻrtacha bogʻla.
940. Uni koʻp emizma, meʼdasi buziladi va emizishni uzoq vaqt toʻxtatib ham qoʻyma, isitmalanadi.
941. Bolani bezovta qiladigan narsa bilan unga muomala qilmaki, uni uxlashga qoʻymaydi yoki uyqusini oʻchirib yuboradi.
942. Sen uning uxlashini istasang, yumshoq beshik [belanchak]dan ayirmaki, u unga qorongʻulik tushirib tursin.

943. Agar biror betoblik [uni] uxlashga qo‘ymasa, taom[i]ga ko‘knor aralashtirib ber.²⁰³

944. Uyg‘oqlik vaqtida yorug‘likdan uni ayirma, toki u osmon va yulduzlarni ko‘rsin.

945. Bolani ko‘rishga o‘rgatmoq uchun kunduz kuni unga har xil rang[li narsalar]ni ko‘p ko‘rsat.

946. Uni so‘zlashga o‘rgatmoq uchun ta’limda ovoz bilan unga erkalatib gapirgin.

947. Unga asal yalat yoki uni tanglayiga sur va uni tiliga surib ishqala.

948. O‘sha [asalga] ozgina chuchukmiya o‘tining shirasi va kundur qo‘shib bolaning og‘ziga qo‘y.

949. Burni bitishini yo‘qotish va uni tozalash uchun o‘sha [tarkibdan] burniga ham tomiz.

950. Chunki bu ish uning sezgisi va tovushini yaxshilaydi hamda nafasini ochadi.

951. Undan qon olish yoki unga surgı qilishdan saqlan, to u katta bo‘lib balog‘atga yetganga qadar.²⁰⁴

952. Unda shish yoki toshmalar paydo bo‘lsa, [ularni] tortadigan dorilar bilan qarshi turma.²⁰⁵

Kasaldan yangi turgan kishining tadbiri

953. Kasaldan yangi turgan kishilar sog‘lom [lekin rangi] o‘chgan suratlarga o‘xshash badanlari zaiflashgan kishilardir.

954. Ularning jonlari liqillab qolgan va badanlari esa qonni yo‘qotgan.

955. Qara, agar ularning badanlari uzoq vaqt[li kasallikdan] orig‘lab ketgan bo‘lsa,

956. Ularning [g‘izosini] oz-ozdan ko‘paytirib bor, [ammo] u kishilar ustida shoshiltirishga mayl qilma.

957. Yoxud qisqa vaqtda kasallikdan badanlari ozib qolsa, u paytda uni [g‘izosini] ko‘p- ko‘pdan ko‘paytir.

958. Lekin buni muloyimlik va asta-sekinlik bilan bajar, to badanlari kengayishda bo‘lganini ko‘rganingga qadar.

959. Ularga quvvatli va uzoq turadigan g‘izolardan oz-ozdan ber.

960. Ularni doimo osoyishtalik va harakatsizlikda tut, chunki ularning a‘zolarida zaiflik bor.

961. [Ularning] nafsini yaxshi, shirin soʻz va yaxshi hamsuhbatlar bilan davolashga mayl qil.

962. Ularga xushboʻy atirlardan va yaxshi hidli gullardan²⁰⁶ ber.

963. Ularga shodlik va kuylar eshittir, fikr qilish va mashaqqat chekishdan qaytar.

964. Ularni vanna va hammomga tushir, [lekin] u yerda uzoq turgizma.

965. Ularni iliq suv ichida oʻtkaz va aʼzolariga moy surt.

966. Ularga jismoniy harakat qildirma va qattiq ishqalama, chunki bu ish ularga isitma haroratini keltirib chiqaradi.

Qari kishilarda sogʻliqni [saqlash] tadbiri

967. Albatta, qari kishilarning quvvatlarida orqaga ketish bor. Har kuni ahvollarida nuqson boʻladi.

968. Ularga kuchli ovqat ber, [ammo] oz ber, toki aʼzolariga ogʻirlik qilmasin.

969. Agar ularga surgı qilinsa, safroni surma; qoʻy, safro badanlariga davo boʻlsin.

970. Kimki [avvaldan] qon oldirishga odatlangan boʻlsa, undan shu odatni uzma.

971. Lekin kimki oltmish yoshga yetsa, [shu bilan birga] u gavdali va [zuvalasi] pishiq boʻlsa.

972. Undan bir yilda ikki marotaba qon ol, bu ishda ikki fasldan oʻtma²⁰⁷.

973. Uni bilak tomiri [qifoli]²⁰⁸dan qon oldirishdan qaytar. Bu ishga ahamiyat bilan qara.

974. Agar u yetmish yoshga yetgan boʻlsa, undan [yilda] bir martaba qon ol; qon olishni shu [bir] marotabadan orttirma.

975. Uni qoʻldagi akhal²⁰⁹ tomiridan qon olishdan [tabibga] man qil, agarchi uning badanini [qon bilan] toʻlgandek koʻrsang ham.

976. Agar u kishi [yetmish yoshdan] besh yil oshsa, *bosliq*²¹⁰ tomiridan ikki yilda ikki marta qon ol.

977. Oʻsha [yosh]dan keyin har qanday qon olishdan u kishini qaytar, chunki u ish qarilarni halokatga soluvchidir.

978. Ularning badanidagi shishlarni qaytarma va shishlariga kuchli tortuvchi dorilarni ishlatma.

979. Ishqalash va terlatish bilan ularni tozala. Moylarni ularga [birdaniga emas] taratib-taratib surka.

980. Taomlarning muloyimi bilan ularni[ng badanini] tozala. Dori bilan hujum qilishdan o'zingni saqla, [ya'ni dori berma].

Ba'zi bir a'zosida va o'qtin-o'qtinda sog'lig'i

kamayadigan kishining tadbiri

981. Kimki vaqti-vaqti bilan [kasallikdan] shikoyatlanadigan bo'lsa, u kishini [kasallik] vaqti kelishidan burun davola.

982. O'sha vaqtda [paydo bo'lishidan] qo'rqiladigan betoblikka qarshi keluvchi narsa bilan [davola] va uning uchun zamonni zamonga aralashtir.²¹¹

983. Kimki a'zolaridan birining zaifligidan nolisa, uning davosiga kirish.

984. Kasallikni davolash haqida aytganlarim bo'yicha uni [kasallik] belgisi yo'qolguncha davola.²¹²

Betoblikni yuzaga chiqishidan burun sindirish haqida chora ko'rish²¹³

985. Kimning badanida biror betoblikning alomatini ko'rsang, uning uchun o'sha kasallikni sindirish ustida hiyla-chorasini ko'r.

986. Chunki u kasallik uning badanida yashiringandir, u yuzaga chiqib qolishidan burun chorasini ko'r.

987. Kelajagi xavfli bo'lgan kasallikka dalolat etadigan yuz berishlarni men aytib o'tganman.

988. Kasallikning o'sha men aytgan sabablarini sindirish [yo'li] bilan uni o'z bobidan [topib] davolash ustida ishla.

[Tibning] amaliy qismidan ikkinchisi. Betob kishilarga dori va ovqat bilan sog'liqni qaytarish

989. Men sog'liqni saqlash bo'limini nazm qilib bo'ldim, endi kasallikni tuzatish [bo'limini] boshlayapman.

990. Bu amaliy qismlardan bir jinsdirki, u [kasallikka] zid bo'ladigan narsa bilan qarshi keladi.

991. Kasallik haroratdan bo'lsa, sovuqlik [bilan], sovuqlikdan bo'lsa, uning teskarisi bilan [davolanadi].

992. Yoxud u [rutubatdan] bo'lgan bo'lsa, quruqlik bilan, quruqlikdan bo'lsa, teskarisi [ya'ni rutubat] bilan [tuzatiladi].

993. [Xiltlarning] to‘lib ketishini turli a‘zoldan va miyadan bo‘shatish bilan davola!

994. [Har xil] to‘siqlar bilan yopilib qolgan yerni ochish [yo‘li] bilan, son-adadlardagi ortiqlikni kamaytirish bilan [davola].

995. To‘silgan yer ochilib qolsa, [uni] bekitish [kerak], toki uning buzilganini tuzalgan [holda] ko‘rguningcha.

996. Badanga ozor beradigan silliqlikni dag‘al qil va undan dag‘allashib qolganini esa silliqlik qil!

Dori turlarining bayoni

997. Mana men xiltlarni is‘hol bilan chiqaradigan dorivor narsalarni zikr qilaman.

998. Va xilti chiqarmasa ham mizojga g‘olib keladiganlarini.²¹⁴

999. [Masalan:] to‘siqlarni ochadiganlarini yoki yumshatuvchi, kuydiruvchi, yoki chiritadiganini.

1000. Yetiltiradigani, qotiradigani, ochilgan yerni bekitiladigani yoki tortib oladiganini.

1001. Shuningdek, tozalovchilarini, g‘ovaklashtiruvchilarini, etni undiruvchi yoki [yarani] bitiruvchilarini.

1002. Va shularga o‘xshash ikkinchi [darajali boshqa] quvvatlardan va uchinchi darajali quvvatlardan erinmay [zikr qilaman].²¹⁵

Surgi dorilar bayoni va, avvalo, safroni suruvchilari haqida

1003. Sariq o‘tni *saqamuniyo* qattiq kuch bilan chiqaradi.

1004. Undan *qirotning* uchdan biridan to bir *qirotgacha* ichiladi va unda xiltlarga qarab — ustunlik bordir.

1005. Me‘da va jigarga zarar qilmaslik uchun behi [iste‘mol qilib] uni tuzatiladi.

1006. Sabirdan bir dinor ichiriladi, agar ehtiyoj bo‘lsa, uni ikki barobar ko‘paytir va [boshqa] dori [lar] bilan [aralashtir].

1007. Agar unga [sabirni] ko‘p ichirib qo‘ygan bo‘lsang, arab yelimi²¹⁶, yahud yoki Makka muqli va katirolar bilan uni tuzat.

1008. Halilaning sariq xilidan bir uqiyya ichir va gunafshadan ham shuncha.

1009. Xiyorshanbar eti va tamarinddan ham [ichir], lekin ko‘p bo‘lmasin.

Balg'amni chiqaradigan narsalar bayoni

1010. Abu Jahl tarvuzi etining tozalanganidan ikki doniqni muql bilan tuzatilgan — aralashtirilgan holda ichiladi.

1011. Shunga o'xshash yovvoyi bodringdan o'shancha [ichiriladi], uning islohi [aralashtirilishi], ta'siri va o'lchovi ham yuqoridagiga o'xshashdir.

1012. Tanakor va tuzdan yarim dirham; mana shular hammasi balg'amni chiqaradi.

1013. Turbitdan ikki dirham ichir va pishirilgan taomlarga solib ikki *misqol* ichir.

1014. Daraxt po'kagini bir dirhamdan kam ichir va shunga o'xshash *habb an-nildan* ham ichir.

Sariq suvni chiqaradigai narsalar bayoni

1015. Mozariyundan ikki doniq va yangi farfiyundan bir doniq ichadi.

1016. Sabirdagi kabi qilganing tadbir bilan ishlangan yelimli suto'tdan bir doniqni [ichadi].

1017. Lufodan ham bir dirham [miqdorida] ichir. Mana shular [sariq] suvni chiqaradigan dorilardir.

Savdoni chiqaradigan narsalar bayoni

1018. Makkiy sano, bistpoya, devpechak va halilaning po'stidan ichir.

1019. Halila [qora xilidan bo'lsin], shohtara va govzabondan ozgina ichir, shunda ular [savdoni] chiqaradi;

1020. Savdodan qancha chiqarishni istasang, [yuqoridagi dorilardan] bab-barobar yarim uqiyyadan ichirgin.

1021. Va yarim dirham lojuvard [ichir], chunki u savdoni quvlashga xoslangandir.

1022. Xuddi shunga o'xshashdir “arman toshi” ham; u savdoni chiqarishda kuchli bir narsadir.

Dorilarni tarkib qilish dasturilamali²¹⁷ va birinchi (darajadagi) quvvatlar

1023. Dorini ichirish aslida tanho holda bo'lishi kerak, toki uning ta'sirini hamma kasalliklarda ko'rasan.

1024. Men [quyida] aytadigan sabablar uni tarkib etishga — qo'shishga da'vat etadi.

1025. I. Dardlarning murakkablashuvi; II. Biron dorini tuzatish va uni shirin qiladigan g'izoni [qo'shish].

1026. [Biror dori badanga] o'tishdan ojiz bo'lgan chog'da uni o'tkazishga yordam beradigan [dorini qo'shish].

1027. [Achchiq dorini] yutishga tayyorlaydigan [yengillashtiradigan] va ichni bo'shatishda yordam beradiganini [qo'shish].

1028. Sen bir nechta dorini tarkib qilmoqchi bo'lsang, ularni dasturilamal[ga muvofiq] tarkib qil.

1029. Masalan, turli xillarni suradigan har bir surgidan bir ichimlikni ol va ularni sana, chunki u muhmal qolmasin — bekor ketmasin.

1030. Unga sen istagancha hijobni²¹⁸ aralashtir va o'lchangan narsalarni [dorilarni] hisob bilan to'pla [qo'sh].

1031. Keyin o'sha o'lchanganlarni ichimlarga bo'l. [Hamma] murakkab [dori]lar xuddi shunday yo'l bilan ishlanadi.

1032. Sanoqdan [har bir] ichimga qancha to'g'ri kelsa, uni ichir yoki uni asrab qo'y!

Dorilarning quvvati bayonida

1033. Dorilik narsalarda birlamchi quvvatlar va shunga o'xshash amal qiluvchi ikkilamchi quvvatlar bo'ladi.

1034. [Yana] dorilik narsalarda uchlamchi quvvatlar ham bo'ladi, hodisalar yuz berganda ular sodir [darkor] bo'ladi.

1035. Birlamchi quvvatlar issikli, sovuqlik, ho'llik va quruqlikdan iboratdir²¹⁹.

1036. Mana men dorilik moddalarning sovuqlik keltiradiganlaridan boshlayman.

Sovuqlik keltiradigan va kerak bo'lgan yerda burishtirish vazifasini ham o'taydigan

dorilar bayoni

1037. Mirta daraxti, tatim, balila, jumrut va halila.

1038. Arab akatsiyasining shirasi, marjon, omila, arman loyi va dashqol.

1039. Salib, xuni siyovushon, oromangiz kabi omila shirasi, sukk va "yer olati", ya'ni uning mulk aralashtirilgani.

1040. Taboshir bilan aralashtirilgan anor guli, areka palmasining danagi va kashnichning qurigani.

1041. Bargizub bilan malobatr. Mana shular ta'sir qilganda burishtiradi.

1042. Mozi, qo‘ziquloq, rovoch va zirkalar sovuqlik va [ichni] bog‘lovchidir.

Sodda dorilardan qizitadigan,

[lekin] ichni surmaydiganlari

1043. Bilginki, dorivorlarning qizdiruvchisi [quyidagi] mahorat bilan tajriba qilinganlaridir.

1044. [Ular] yetmak, kundur yelimi, murch, yovvoyi zira va uzun murch.

1045. Mahsar, yalpiz, qora chayir, qalampirmunchoq po‘stlog‘i [qirfa], kamxastak va kon cho‘plar.

1046. Darmana, qichitqio‘t, kakliko‘t, ushna, may‘a yelimi va anbar.

1047. Ud, igir yoki qashqarbeda, zarpechak va zanjabillar.

1048. Gentiana ildizi, oq karrak, pion gul, lakk va rovoch ildizi.

1049. Malobatr, ladan, lavr, julah, juvona va to‘paloq.

1050. Ukrop, kanakunjut, “parilar tirnog‘i”, galban yelimi, tog‘ sunbulining ildizi va *murr*.

1051. Qora beda, kanavcha, eron qavragi va rum arpabodiyoni.

1052. Qora zira, zira bilan gazako‘t, tog‘ petrushkasi.

1053. Sunbul, parsiyovushon, tog‘jambili va dor shisha‘on.

1054. Seylon dolchini, xavlinjon, asorun ham koncho‘p.

1055. Smola, zufo, qitron, nazla o‘ti va balzam daraxti.

1056. Tog‘ rayhon, boldirg‘on bilan lolagacha.

1057. Qushqo‘nmas, arpabodiyon, xushbo‘y qamish va bobuna ham.

1058. Sedana yoki angusa, saqich daraxtining mevasi yoxud oltingugurt.

1059. Qavrak yelimi, [gorchitsa], neft, sarimsoq, kaboba va qustlar.

**Ho‘l [mizojni] quruqdan ajratib olish
qoidasi va sodda dorilarning darajalari**

1060. Sen ko‘rayotgan har bir sovuq yoki issiq [mizojli dorini]yo quruq yoki ho‘l deb topasan.

1061. Qurug‘i burishtirishidan, ho‘li esa burishtiruvchini bo‘shashtirishidan bilinadi.

1062. [Oddiy dorilarning] darajalari haqida tabiblar orasida kelishmovchilik bor, ularning kelishmovchiligadagi ish, albatta, oydinlashgan.

1063. [Badanga] o'zgarish kiritishi aqlga muvofiq keladigan [ya'ni dalillarga asoslangan] har bir dori birinchi darajadadir.

1064. Va qaysi bir oddiy [dorining] o'zgartirishi sezgi [quvvati bilan bilinsa] sezilsa va ushlab ko'rilganda u kuchli bo'lmasa.

1065. Bu uning darajalardan ikkinchisidaligiga mukammal dalildir.

1066. Har bir [sodda dorining] o'zgartirishi kuchli, lekin a'zoni buzishdan uzoq bo'lsa.²²⁰

1067. Va u aralashgan narsasini [umuman] buzuvchi bo'lmasa, demak, u darajalarning uchinchisidandir.

1068. O'zgartiradiganini buzadigan har bir [sodda dori] shiddat bilan [issiq bo'lganda] kuydirsa yoki [sovuq bo'lganda] uvishtirsa, [ya'ni sezgini yo'qotsa].

1069. Uni sen [issiqlik yoki sovuqlik] darajalarning to'rtinchisida deb aytishingga hech monelik yo'q.

Sodda dorilardan ikkilamchi²²¹ quvvatlari [va shulardan shishlarni] pishirish²²² quvvatiga ega bo'lganlarining bayoni

1070. Bilginki, [shishlarni] pishiradigan har bir [sodda dorida], albatta, harorat va [badan teshiklariga] yopishqoqlik, [ya'ni to'sish] bo'ladi.

1071. O'sha dorining harorati sen pishirmoqchi bo'lgan a'zodagi shishning haroratiga teng bo'lishi kerak.

1072. Hayvon yog'i, smola, sanavbar yelimi yoki sham bilan aralashgan o'simlik moyi.

1073. Issiq suv bilan aralashtirilgan o'simlik moyi va o'simlik moyi bilan pishirilgan bug'doy kabi.

Yumshatuvchi dorilar bayoni

1074. [Badanda oriz bo'lgan qattiqlikni] yumshatuvchi deb biladiganing har bir dorining yumshatiladigan a'zodan haroratda quvvatliroq [bo'lishi].

1075. Lekin latifligi tufayli [xiltini] eritib yubormasligi uchun u [dorining] quvvati o'rtacha bo'lishi kerak.

1076. [Masalan] galban yelimi, kavrak yelimi, muql, *may'a* yelimi va tog' echkisi boldirining iligi kabilar.

Mahkam [qattiq] qiluvchi dorilar haqida

1077. Sovuq ho‘l [mizojli sodda dori] — [a’zoni] mahkam qiluvchilardandir; masalan, ituzum yoki qurbaqa o‘ti kabi.

[Yo‘llarni] to‘suvchi dorilar haqida

1078. To‘suvchi deb biladigan har bir dori [a’zoni] qizdiruvchi ham, sovituvchi ham [bo‘lmaydi].

1079. U [dorining tabiati] biror a’zoga aralashsa, uni achitmaydi.²²³ Demak, u yo yer jinsi[dan] yoki yopishqoq [dori bo‘lishi kerak].

To‘siqlarni ochuvchi dorilar haqida

1080. Ma’lum [yo‘llardagi] to‘siqni ochuvchi har bir [dori], albatta, kesuvchi [achchiq, sho‘r va o‘tkir] va muloyim qiluvchi bo‘ladi.

1081. Masalan, u ta’mi tanakorga yoki *murr*ga o‘xshash dengiz piyozi va achchiq bodomlar kabi.

1082. Gulsafsar va nargiz ildizi, tanakor, kovul va “Misr boqilasi” kabi.

1083. Agar sen qobiz ochuvchi [bilan] muolaja qilsang, u[ni] sirtan emas, [balki ichki a’zolarga qo’yilsa, to‘g‘ri bo‘ladi].

1084. Lekin u doriga qo‘shib ichiladi [ichga yuboriladi] — shunda u ichdagi to‘siqlarni ochadi.

**Yaraqlatuvchi — [yaralarni tozalovchi]
dorilar haqida**

1085. Sen tozalovchi deb aytadigan har bir [sodda dori] latiflikda [ochuvchi dorilardan] kamroq bo‘ladi, masalan, boqila kabi.

1086. Yana asal va shirin bodomga o‘xshagan shirinlik narsalarda uchratadiganing kabi.

G‘ovak qiluvchi dorilar haqida

1087. Sen g‘ovak qiluvchi deb hisoblaydigan har bir dori qizitishda [haroratida] mo‘tadil bo‘ladi.

1088. Kanakunjut yog‘i, moychechak, turp yog‘i va arpabodiyon kabi.

Tomirlar ogʻzini ochuvchi dorilar haqida

1089. Tomirning ogʻzini ochuvchi deb bilinadigan har bir dori [oʻtkir haroratli], jarohatlovchi [modda] kabi boʻladi.

1090. U haroratda qattqlik bilan [aʼzoga] taʼsir qiladi. Sarimsoq, piyoz va hayvon oʻti kabi.

Qobiz dorilar toʻgʻrisida

1091. Tomir [ogʻzi]ni toʻsishda foyda beradigan har bir narsa [dori] qobiz, lekin u [harorat bilan] lovullatib achishtirmaydi[gan boʻladi].

Kuydiradigan dorilar

1092. Har bir kuydiruvchi narsa [dori] issiqlik va gʻalizlikning nihoyasida boʻladi.

Iritib sasituvchi dorilar

1093. Sen iritib sasituvchi deb topadigan har bir dori haroratda yuqori [darajali], oʻzi latif va qizituvchi boʻladi.

[Etni] yeyuvchi dorilar haqida

1094. Etni kamaytiruvchi [dori] uni [yeydiganidan] zaifroq va jarohatni bitiruvchisi esa [uni] quritadiganidir.

Tortuvchi dorilar haqida

1095. Toʻlgan [rutubatlarni yoki moddalarni] tortishga xos boʻlgan har bir dori [tortuvchilar]; u bodzahr²²⁴ [toshi] va surgi dorilar kabidir.

1096. Tortishi kayfiyat [harorat] bilan boʻladigan har bir dori haroratli va latif boʻladi.

1097. Oʻz tabiati bilan [haroratli boʻlgani] qavrak yelimi va muqlga oʻxshash va harorati sasitish bilan boʻladigani esa tezak kabi narsalardir.

1098. Bodzahr manfaatda kuchlidir, u [issiq, sovuq kabi birlamchi] kayfiyati bilan yoki tabiati bilan [yomon] holatni [yaxshiga] aylantiradi.

1099. [Doridan] bir xili borki, u zararli moddani surdirish yoʻli bilan foyda beradi, yoki [oʻzi zaharli boʻlib] oʻldiruvchi quvvatga ega boʻladi.²²⁵

1100. Uni [keyingisini] sogʻliq vaqtda isteʼmol qilish zarar qiladi, shuning uchun u [tabobatdan] xabarsiz kishini baʼzan aldab qoʻyadi.

Ogʻriqni toʻxtatadigan dorilar haqida

1101. Ogʻriqni toʻxtatadigan narsa [dori] qizituvchi, ochuvchi, uzuvchi [qirquvchi] va

muloyim qiluvchi bo‘ladi.

1102. Ularning bir xili borki, u uvishtirish [yo‘li] bilan foyda beradi, dorilarga qo‘shib beriladigan qoradori kabi.

Sodda dorilarning uchlamchi quvvatlarining bayoni

1103. Bundan keyin hodisalardan [dorilar ta’siridan] nimani zikr qilsam, uni sen uchlamchi quvvatlardan deb topasan [bilasan].

1104. Masalan, sen [tabiatida] yechuvchi — erituvchi[lik xususiyatiga ega] deb topgan har bir narsa [dori] u buyraklardagi mayda toshni uvalatib tashlash kabi.

1105. [U dori] uzuvchi — latiflashtiruvchi va yumshatuvchi bo‘lib, unda aniq haroratni uchratmaysan.²²⁶

1106. Morcho‘ba ildizi, qamish ildizi, kuydirilgan shisha va kamxastak[lar kabi].

1107. Va shunga o‘xshash o‘zida ozgina harorat va muloyimligi bor [narsalar — dorilar]ki, ular ko‘krakdagi [xiltlarni] chiqaradi.

1108. Agar u narsa [dori] isitishda mo‘tadil bo‘lsa, u, albatta, sut paydo qiluvchi bo‘ladi.

1109. Balg‘am tashlatadigan har bir narsa, albatta, hayz qonini ham chiqaruvchi bo‘ladi.

1110. Shu [yuqoridagi]larning hammasi siydikni yurgizadi; har bir achchiq [o‘tkir] narsa ham unga loyiqroqdir.

Dorilarning qaysi sifatda bo‘lishi — ishlatilishi to‘grisida

1111. Qachonki men [dorilar] mizojining quvvatini ta’riflab bo‘ldim. Mana endi davolash [ta’rifini] boshlayman.

1112. Davolanish uchun ishlanadigan har bir narsa yo ichdan, yoki sirtdan yuboriladi.

1113. U [dorilar] o‘rash, hab qilish, [og‘izdan] ichirish va kaf ottirish kabi [sifatda].

1114. Moylanadigan, ishqalanadigan, burunga tomiziladigan, badanga nina suqib o‘rniga nil²²⁷ qo‘yish, rang surish — bo‘yash va yuviladigan [dorilardir].

1115. Ko‘zga quyiladigan, ma’jun qilinadigan, ipni pilta qilib, kovakli yaraga quyish va misvok bilan [og‘izni tozalash] kabi [ishlatiladi].

1116. [Dorini] suykash, malham qilib qo‘yish, ko‘zga surma [sifatida] qo‘yish, burun-

dan yuborish va [uni siydik yo‘li orqali] yuborish kabi.

1117. Va shunga o‘xshash quruq dorilardanki, ularni sen orqa tomondan ko‘tararding [ichga yuborarding] va ichiradigan surgi dorilaring kabi.

1118. [Ichni yumshatish uchun] orqa tomondan huqna — klizma qilish hamda ichga tutun kiritishing²²⁸ kabi [yo‘llar bilan ishlatiladi].²²⁹

Yomon mizojni davolash va uning belgilari haqida

1119. Bizning bosh sochidan to oyoqning tirnog‘igacha zikr qiladigan hamma kasalliklarimiz.

1120. U xoh badanning hammasini qamrab bo‘lgan bo‘lsin yoki bitta a’zoga xos bo‘lsin.

1121. Yoki u [betoblik turli] aralashma [xilt]lardan holi bo‘lgan bo‘lsin, sen u xiltlarni chiqarishga urinma.

1122. [Balki] uni asta-sekin muolaja qilishga kirish va mizojini teskarisiga o‘zgartirish bilan davola.

1123. Sen [moddasiz] betoblikni pishiqlab-sinchiklab sinab ko‘rsang, u [modda bilan] to‘lgan jism betobligidan farq qiladi.

1124. Unda badan to‘liqligidan keladigan dardning belgisi ochiq ko‘rinib turmaydi.

1125. Agar biron dori bilan uning zararlanayotganini ko‘rsang, u vaqtda [bilginki] bu dorining mizoji u dardning mizoji[ga zid emas, balki] o‘xshash ekan.

1126. Buzilishni [dardni] keltirib chiqaruvchi biror sabab borligi uchun [uni mizojining] ziddi bilan [davolash] foyda beradi.

1127. Qo‘l bilan ushlab ko‘rishda va [a’zo] ishlarining zaiflashganligida ham undagi [betoblik haqida] kuchli dalil bordir.

1128. [Hamda kasallik borligiga] ahvol yomonlashganidan va chiqadigan najosatdan ham [dalil topasan].

1129. Lekin siydikda cho‘kma bo‘lmasa, tomir urishi mo‘tadillikdan chiqqan bo‘lsa.

1130. U vaqtda jismda to‘lalikka ega bo‘lgan [kasalli bo‘lmagan], balki bunday kasallik jinsidan u xoli bo‘lgan bo‘ladi.

1131. Agar og‘riq bir joyga xos bo‘lsa, u, albatta, o‘sha joyda dard borligining dalilidir.

1132. Hamda dardning [tabiati va sababi] yoshga, badan mizojiga va ranglarga qarab ham belgilanadi.

1133. Va yil fasllari, zamonlar, turar-joy va shaharlarga [qarab ham belgilanadi].

1134. Yuqorida aytib oʻtilgan tadbirlar ham [mizojni] oʻzgartirishga, albatta, yordam beruvchidir²³⁰.

Sovuq yomon mizojli kasalga dalil izlash

1135. Kishining mizoji sovuq boʻlsa, u, albatta, sovuq narsalardan zararlanadi.

1136. Unga foyda yetkazish har bir issiqlik [narsalar] bilan boʻladi. Ushlab koʻrilganda badanida sovuqlik [seziladi].

1137. Siydigi oq rangli boʻlib, tomir urishi sust boʻladi.

1138. U kishida tashnalik ham, uyqusizlik ham boʻlmaydi. Agar u uxlamaydigan²³¹ boʻlsa ham, bezovtalanmaydi.

1139. Rangi ganchsimon [boʻlib], badani boʻshashgan boʻladi: agar shimoliy mamlakatlarda va keksa yoshda hamda

1140. Qishda [yuqorida] oʻtgan sovutuvchi sabablar mavjud boʻlsa, bu [sovuq yomon mizojli kasalga] ajoyib dalildir.

1141. Agar [uni] muolaja qilmoqchi boʻlsang, qizitish bilan davola va uni davolashda falajli kishini davolash kabi yoʻl tut!

Issiq yomon mizojga dalil izlash

1142. Agar kishi badanida harorat boʻlsa, unga issiqlik [dorilar] zarar beradi.

1143. Unga qoʻl tegizilsa, issiq [seziladi] va siydigi qizil rangli, tomir urishi tez va uzluksiz boʻladi.

1144. Yana tashnalik, bezovtalik, uyqusizlik, ozib ketishlik va rang sarigʻligi boʻladi.

1145. Janubiy shaharlarda, yoshlik [davrida], yoz [faslida] va oʻtmish sabablar mavjud [boʻlsa]

1146. Sen [uni] qizdiruvchi [isitmani] va bezovta qiluvchi boʻlib koʻringan har bir kasallikni sovutishni vujudga keltiradigan dorilar bilan davola.

1147. Uning gʻizosini oʻz quvvatiga va unda sen koʻrayotgan ishtahasiga yarasha qil!

Ho'l yo quruq yomon mizojli dardga dalil izlash

1148. Mana shu ikkita kasallik ikki narsaning biridan hech holi bo'lmaydi.
1149. Agar [mizoj] quruq bo'lsa, sen [bemorni] oriqlashda ko'rasan. Yoki u ho'l bo'lsa, uni bo'shashgan holda ko'rasan.
1150. Latif va mustahkam amal bilan, ho'l [mizojli dardga] quritishni o'tkaz [qo'lla!]
1151. U xoh issiqda, xoh sovuqda bo'lsin, quruq [mizojni] esa ziddi bilan davola.
1152. To'g'ri muolaja qilishingdan avval hammasida ham sabablarini uz! [Ya'ni ularni aniqlab yo'qot].

To'lib qolish kasalliklarini davolash va bo'shalishning shartlari

1153. Betoblik [masalan, qon] to'lib qolishdan paydo bo'lgan bo'lsa, unga bo'shatishdan boshqa davo yo'qdir.²³²
1154. Bo'shatishning hamma [navida] o'nta sharti bor, agar shu shartlar bo'lmasa, bo'shatishdan foyda yo'q.²³³
1155. Ulardan birinchisi: [kasallikning] arazlari [yuz berishlariga] qarash va u [haqiqatda] to'lib qolishdan bo'lgan kasallik ekanini [aniqlash].
1156. Va yigitlikdan tortib to o'rta yoshgacha [bo'lishiga], betobning odati va quvvatiga [qarash].
1157. Faslning kuz yoki bahor ekanligiga, hamma [tomoni] mo'tadil bo'lgan shaharlarga qarash.
1158. Vaqtga, mizojning issiq [va] ho'lligiga va badanning o'zida farovonlik zohir bo'lib turishiga [qarashdan iboratdir].

Bo'shalishning turlari

1159. Sen bo'shatadigan har bir [a'zoda] paydo bo'lgan narsani [qonni] uni yo qo'zg'algan o'rni [yaqin joyidan] tort!
1160. Yoki uni boshqa a'zoldan qarshisiga yoki to'ppa-to'g'risiga tort.²³⁴
1161. Ko'pincha sen uni o'sha kasallikka sherikligi bo'lgan a'zoldan tortasan.
1162. Qortiqchining qortig'ini emchakka qo'yishimizga o'xshashki [u bilan] biz bachadondagi qonni to'xtatishni [ko'zlardik].

1163. To‘lishlik dalillari va [uni] bo‘shatadigan dorilar yuqorida zikr qilinib o‘tildi.

Qon olinadigan hamma qonli kasalliklar

va birinchi galda jasadning qayerida

bo‘lishidan qat’i nazar falag‘munli

shishdan qon olish haqida

1164. Himus ko‘paygan [tabiiy nisbatidan] oshgan vaqtda Jolinus tomirdan qon olishni tavsiya qiladi.

1165. Qachonki badanda qon belgilarini ko‘rsa, xususan u shish[li bo‘lsa].

1166. Shunday bo‘lsa, shu shartlar bilan sen ham qonli dardlardan qon ol, boshqa xiltli [dardlar]dan emas.²³⁵

1167. Shu ish bilan sen uning [Jolinusning] qasd qilganini qasd qil va u qon olgan kasalliklardan sen ham qon ol.

1168. Qachon sen [uning falag‘munli shish ekaniga] ravshan guvohlik beruvchiga ishonsang, hamma falag‘munli shishlardan qon olishga kirish.

1169. Boshning sirtidan va tashqarisidagi [falag‘muniydan] hamda bo‘g‘inlarda bo‘ladigan [falag‘muniydan] qon ol.

1170. Ikki quloq ostidagi shishdan va ikki ko‘z og‘rig‘idan [hosil bo‘lgan] shishdan ham.

1171. Tish milklari [va] tilning shishi, angina²³⁶ va laklukdagi shishdan [ham qon ol].

1172. *Nag‘onig‘a*²³⁷ va bodom bezlarda[gi shishlarda] tomoqdagi shilliq pardalarda va nazlalarda ham.

1173. Zotiljam va o‘pka yallig‘lanishida, emchak va chovdagi shishda.

1174. Jigar shishida, me‘da shishida, ichaklar shishida, keyin orqa teshikdagi shishda.

1175. Taloqda, ikki moyakda, qovuqda va ikki buyrakdagi shishlarda.

1176. Bachadondagi yoki kindikdagi shishlarda va saramas navlaridan eshakemda ham [qon ol].

Yara va toshmalar badanning qayerida

bo‘lmasin, ular [uchun] tomirdan qon olish

1177. Bosh va ikki ko‘zdagi yaralarda, qasmoq va ikki quloqdagi yara-chaqalar

[uchun tomirdan qon olinadi].

1178. Va yuguruvchi [yaralar], o'pkadagi va og'izdagi yaralar va chechakda [ham].

1179. Ichakdagi [shishli] yarada, agar u haqda to'g'ri tushuncha bo'lgan bo'lsa va ichida et o'sayotgan [yarada ham].

1180. Xuddi shuningdek, badanning qayerida bo'lmasin toshmalardan va ko'ringan [qonli] ho'l qo'tirdan ham.

1181. Og'iz va ko'zlardagi toshmalar va ikki biqinda o'sadigan [yara]lar kabi.

Tomirlarning to'lishi va qonning otilib

chiqishida²³⁸ tomirdan qon olish

1182. Tomirlarning to'lishida, burundan qon ketishda va burunlarning bavorisida [tomirdan qon olinadi].

1183. Qon agar tishlardan oqsa yoki shunga o'xshash quloqlardan oqsa;

1184. va orqa teshikdagi bavorisidan va hayz [vaqtida] va yiring chiqqanda;

1185. Va og'iz ichida bo'ladigan va bachadon oldida chiqadigan bavorisida ham [tomirdan qon olinadi].

Turli kasalliklarda qon olish

1186. [Qon tufayli bo'lgan] bosh og'rig'i, uning aylanishi va [xiltlar ko'payib, badanning ichkarisiga kirishidan] og'izning hidlanishi va tish og'rig'ida hamda soch to'kilganda [tomirdan qon olinadi].

1187. Biror a'zo lat yeganda, bo'g'in og'rig'i va tumovda [ham shunday].

1188. Yana tutqanoqda, *sabalda*²³⁹, *tarfaza*,²⁴⁰ *tutada*²⁴² va ishtaha yo'qligida.

1189. Orqa teshikdan yorilishda, *irqunnasoda*²⁴² va me'dadagi [shish tufayli bo'lgan] og'riqda.

1190. Shuningdek, jigardagi sanchiqli og'riqda hamda unda paydo bo'lgan to'siqlarda.²⁴³

Qonli kasalliklarni muolaja qilish

1191. Bu [qonli] kasalliklarni davolashda *sunuxus*²⁴⁴ [isitmasini] davolash tomonga yo'llan [ya'ni uni davolagan dori bilan davola].

1192. Tomirdan qon olishdan keyin safroni sur — bo'shat! Ovqatlardan bo'lsa sovuqliklarga moyil bo'!

1193. Ovqatlarning issiqliklaridan va qonni ko‘paytirib yuboradiganidan chetlan!

1194. G‘izolarning burishtiradigan, nordon-chuchuk va nordonlariga moyil bo‘li!

1195. Bu dard haqida qonning g‘alabasi ustidagi bobdan dalil izla.

1196. Mehribon, usta tabib qilgani singari sen ham sovutish va quritish tomonga mayl qil!

Safroli kasalliklar

1197. Safrodan paydo bo‘ladigan kasalliklar, masalan, ichaklarning tayg‘anoqligidan hosil bo‘ladigan yaralar.

1198. Alahlash, bachadonning bo‘g‘ilishi, kunora tugadigan isitma, irkunnaso va ichdan qon o‘tishi.

1199. Yo‘tal, bosh og‘riq va tanada tez yuruvchi bo‘lib ko‘rinadigan [namla deyiladigan] shishlar.

1200. Ikki quloqdagi qattiq og‘riq va ikki qovoqdagi qo‘tir [qichimaning] ko‘p bo‘lishi.

1201. Bo‘g‘inlarda yara, shishlar va amali qattiq og‘riqning [bo‘lishi].

1202. Barmoqning yorilishi, tirnoq orasidagi chiqiq [noxina] va yasmiqdek bo‘lib ko‘rinadigan boshqa izlar [yaralar] kabi.

1203. Va kishining tishi sarg‘ayishi va qovug‘ida og‘riqning qattiq bo‘lishi.

1204. Behush bo‘lib qolish, qon ketish, ustini parda qoplagan shish, terining sarg‘ayishi va [boshqa] toshmalar kabi.

1205. Va qora ingichka izlar hamda jigarlarda bo‘ladigan to‘siqlar.

1206. Bachadon shishi, *shusa*,²⁴⁵ ichak shilinishi va ishtaha ketishi.

1207. Bosh aylanish, labning yorilishi, lakluning og‘rishi yoki hayza²⁴⁶ kabi.

1208. Yara agar yugursa, *dubayla*²⁴⁷ va orqa teshikda zohir bo‘lgan qattiqlik [qalinlik] kabi.

1209. Qichima yoki qizamiq yoki *namla*,²⁴⁸ saramas yoki o‘pka yaralari kabi.

Safroli kasalliklarni davolash

1210. Shundaylarni davolashda kunora tutadigan isitmani davolashga mayl qil!²⁴⁹

1211. Tomirdan qon olmay [surgi bilan] safroni chiqar! Uni sovutishda o‘rtacha to-

monni ko‘zla!²⁵⁰

1212. Yuqorida aytib o‘tilgan qonli kasalliklarda qasd qilganingdek qasd qil! [Ammo safrodan bo‘lgan dardlarni esa [faqat] rutubatlashga xoslagin!

1213. Chunki [safroviy illatlar] haroratda va kishi uchratadigan har bir kasallikda [qonli illatga] sherik bo‘ladi.

1214. Bu kasalliklarga [yuqorida aytilgan] safroning g‘alabasi bobidan dalil izla!

Balg‘amli kasalliklar

1215. Balg‘am tufayli bo‘ladigan har bir kasallik sen ko‘radigan bo‘shashgan shishdan iboratdir.

1216. Falaj, bo‘shashganlik kasali sovuq [mizojli] bosh og‘rig‘i va hushdan ketishlik [tutqanoq] kabi.

1217. G‘aliz qo‘tir, *zahir*²⁵¹ va bo‘yin shishi, ya‘ni qulg‘una.²⁵²

1218. Boshning qasmoqlanishi, unutish va quloqlarda [paydo bo‘ladigan] sovuq og‘riqlar kabi.

1219. Peslik, sepkil [namash], sakta kasalligi, yumshoq yo‘tal va *laqva* [yuz falaji].

1220. Fil kasalligi,²⁵³ ishtaha kesilishi, bitlash va orqa teshikning g‘alizlashuvi kabi.

1221. Katarakta,²⁵⁴ ko‘z qorachig‘ining kengayishi va ikki qo‘ltiqda paydo bo‘ladigan hid kabi.

1222. Qorinda bo‘ladigan ofat [kasallik]larki, ular ichaklarning tayg‘anoqligi va gijja²⁵⁵ qurtlari kabidir.

1223. Tug‘ish vaqtida paydo bo‘ladigan qiyinchilik va shuning oqibatida [bolaning] pardada ushlanib qolishi kabi.

1224. Buyrak og‘rig‘i, isitma tutishi,²⁵⁶ qora taloq yoki jigarda sovuq [paydo bo‘lishi];

1225. Kindikning turtib chiqishi, balg‘amning turliligidan kelib chiqadigan kasalliklar.

1226. Bo‘g‘inlarning og‘rig‘i yoki qorayib ketishi va ularning ustida bo‘ladigan ko‘karish va gungurtlik.

1227. Istisqo²⁵⁷ning ziqqiy, lahmiy va tabliy deb ataladigan turlariga o‘xshagan sariq suv kasali kabi.

Balg‘amli kasalliklarni muolaja qilish

1228. Shu xil [dardda] ho‘l va sovuq mizojni davolashga o‘t!

1229. Uni bilishda balgʻamning gʻalaba qilgan[iga dalolat etuvchi] alomatlarini dalil qilib ishlat.

1230. [Yuqorida] aytganim dori bilan [xiltni] boʻshat, shunda u darddagi balgʻamni boʻshatgan boʻlasan.

1231. Shundan keyin oʻsha badanga qizdiruvchi [dorilarni] kirit!

1232. Qizitish bilan birga quritishga va qizdiruvchi muloyim ovqatga ham moyil boʻl!

1233. Mana [gap shu], umuman xoh ichdan, xoh sirtidan boʻlsin, qizdiruvchi [moddalar] bilan muolaja qil!

1234. Va falaj kishida qoʻllaniladigan sassiq hablar va *najotijni*²⁵⁸ ishlat.

Savdoga tegishli kasalliklar

1235. Badanda qora oʻtdan paydo boʻlgan hamma dardlar [quyidagilardir].

1236. Soʻgal, kunora tutadigan isitma, bavo sir va tutqanoq kasalligi.

1237. Burun uchida boʻladigan bispoya,²⁵⁹ soʻgallar va badanning tirishishi.

1238. Yurakburigʻ, saraton, [qora] bahaq, sepkil, bosh ogʻrigʻi va uyqusizlik.

1239. Qattiq shish, moxov va qorinda buzilib qolgan ovqat.²⁶⁰

1240. Quruq yoʻtal, bod [yoki yel] va taloqda [paydo boʻladigan] qattiqlik — dagʻal-lik.

1241. Boshda [yuz beradigan] melanxoliya kasalligi va siydikka oriz boʻladigan tut-ilish.

1242. Qulanj kasalligi, “tulki kasalligi”²⁶¹ va quturgan itning tishlashidan boʻlgan ka-sallik.

1243. *Quvabo*²⁶² ichda ivib qolgan sut va jigardagi sovuqlik.²⁶³

1244. “It ishtahasi”²⁶⁴ kasalligi va orqa teshikda boʻlgan yorilish.

1245. Buyrak va qovuq[qa kelgan] tosh va qovuq tepasini ogʻritadigan damlik.²⁶⁵

1246. Qorinda, ikki biqinda, bosh va ikki quloqdagi damlik.

1247. Ikki qovoqda²⁶⁶ paydo boʻladigan shatar²⁶⁷ va ikki oyoqda²⁶⁸ boʻladigan niqris [kabilar].

Savdo kasalliklarining muolajasi

1248. Dardlarning bu xilini davolashda moxov kasalligini davolashdagi dorilar to-

monga moyil bo'li!

1249. Bu kasallikka savdo g'alaba qilishi degan bobdan dalil axtar!

1250. Devpechak yoki bispoya bilan [uni] bo'shat va [yuqorida] aytgan [dorilarim] bilan muolaja qil.

1251. [Unga qarshi] qizitish va ho'llash [tadbirini] ishlat, shunday qilsang, to'g'ri qilgan bo'lasan.

**[TIBBIY] AMALIYOTNING IKKINCHI BO'LAGI. U
HAM BO'LSA QO'L BILAN QILINADIGAN
AMALLAR, BULAR UCH QISMDAN IBORAT**

1252. Men foydali tartibni [aytishdan] bo'shagach, endi qo'l amallaridan boshlayman.

1253. Birinchisi tomirlarda— ularning kattasi — yo'g'oni, ingichkasida ham bu ish qilinadi.

1254. Va ikkinchisi go'shtda qilinadi, uchinchisi esa suyakda ishlanadi.

**Shu uchtadan birinchisi tomirlar ustida
qilinadigani hamda tomirdan qon olishning
manfaatlari to'g'risida**

1255. Tomirlar jinsidan shundaylari borki, ularni sen yorasan [qon olasan], ba'zisini tortib olasan va tagi bilan kesasan.²⁶⁹

1256. Shishga o'xshagan, bosh va ko'krakdagi har bir og'riqda qo'ldagi akhal tomiridan qon olinadi.

1257. Qattiq bosh orig'i va burundan qon ketishida qiyfol tomiridan asta-sekin qon olinadi.

1258. Ko'krakni va o'pkada paydo bo'lgan og'riqni davolashda [qo'ltiqdagi] *bosliq* tomiridan [qon olinadi].

1259. Jigar va taloq dardlaridan ahvoli yomonlashgan kishida *moziyon*²⁷⁰ degan ikkita tomirdan [qon olinadi].

1260. Agar bosliq tomirining jismini topmasak, *habl uz ziro*²⁷¹ tomiridan qon olamiz.

1261. Hamma vaqt bo'lib turadigan miya og'rig'ida chakkadagi tomirlardan qon olamiz.

1262. Shaiqa²⁷² va boshdagi eski yarada quloq orqasidagi tomirdan [qon olinadi].
1263. Ikki koʻzdagi kasallikda koʻz burchagidagi ikki tomirdan qon olamiz.
1264. *Yofux* [bosh tepasi]dagi yaralar va bosh sathida paydo boʻladigan shishda undagi [*yofuxdagi*] tomirdan [qon olinadi].
1265. [Turli] ogʻriqlarda, xususan moxov kasalligida boʻyin tomiri [vadaj]dan qon olamiz.
1266. Koʻzni davolashda, doimiy bosh ogʻriqda va bosh-yuzlarga toshadigan yaralar [saʼfa]da peshona tomiridan [qon olamiz].
1267. Hamma vaqt boʻlib turadigan bosh orgʻrigʻi va koʻz tinishda boshning orqa tomonidagi tomirdan [qon olamiz].
1268. Yuzning yuqori tomonida koʻrinadigan toshmalarda burun uchidagi tomirdan [qon olamiz].
1269. Tilning tagidagi shishda va tomoq ogʻriqda tilning tagidagi tomirni qasd qilasan-da, undan qon olasan.
1270. Kindik ostida joylashgan ichki aʼzolar kasalligida tizzadagi tomirdan qon olamiz.
1271. Ikki sondagi kasallikda ikki pochadagi *sofin* [tomiridan] qon olasan.
1272. *Naso* tomiridan *irqunnaso* kasalligida va oyoq panjasidagi tomirdan esa undagi yuz berishlar [ogʻriqlar]da qon olinadi.

**Ur ib turadigan tomirlar [arteriyalar]
ustida**

1273. Bosh ogʻrigʻida va koʻzda seziladigan ogʻriqlarda arteriyalar kesiladi.
1274. Qachonki bu dardning shiddatidan, koʻzga suv tushishidan qoʻrqsak.
1275. Bir shishning paydo boʻlishi arteriyaning ochilib qolgani va sathi [atrofi]dan qon oqmasligidan boʻlsa.
1276. Uni yor, uni kes yoki sugʻurib tashla, istasang, undan qon ol²⁷³ yoki hammasini kesib tashla!
1277. Atrofini bogʻlash yoki dogʻlash bilan qonlarni oqishdan toʻxtat.
1278. Uni jarohatni davolagandek davola, toki uning egasi [bemor] tinchiguncha.

**Qo'l bilan qilinadigan amalning ikkinchisi
go'sht ustida bo'ladi
Birinchi navbatda tilish haqida**

1279. Go'shtning amali tilish, kesish, dog'lash va yorishdan [iborat].

1280. Tilishdan bir xili [bevosita] qonni yurgizadi [oqizadi], yana bir xilida, tilingandan keyin, qonni qortiq bilan so'riladi.

1281. Shunda har xil chiqiq va yaralik badanning sathidan qon oqadi.

1282. Ba'zan xilt [qon]ni boshqa yerga [a'zoga] ko'chirmoqchi bo'lganimizda tilmasdan qortiq solamiz.

1283. Ba'zan [qortiqni] bo'shligicha yopishtiramiz, ba'zan kuydirilgan paxta bilan [yopishtiramiz].

1284. [Bunday tadbirni] biron yerdan [ichak va me'da qattiq og'riqni paydo qiluvchi] yelni chiqarish uchun va qizitish yo'li bilan a'zolari tuzatish uchun [qo'llaymiz].

Go'shtni kesish bilan [qilinadigan] amal

1285. Kesilishi [lozim] bo'ladigan har bir et, ular: *masomir*,²⁷⁴ so'gal va shatoirlar²⁷⁵ kabidir.

1286. Chekka a'zoldagi sasigan [etlar], masalan, [zararlangani] va burunlarning bispoyasi — chilpoyasi.

1287. Ortiqcha yoki yopishib [o'sadigan] barmoq va ko'zning [bir-biridan] ajralmay qoladigan qovog'i.

1288. Turtib chiqqan *inabiyya*,²⁷⁶ siydik yo'lining yopilib-bekilib qolgan sirtqi terisi.

1289. Biron yaraning buzilgan eti va ezilish natijasida paydo bo'lib buzilgan yara.

1290. Til hamda quloqlarda bo'ladigan ortiqcha et kesiladi.

1291. Shisha, o'q va nayza uchlarini chiqarish uchun ularning ustidagi [et] kesiladi.

1292. Erkaklarda [gi ayollarnikiga o'xshab o'sgan]²⁷⁷ emchak va pochada [yomon xiltlar sababli] kengaygan tomirlar kesiladi.

1293. Bavosirlarning hamma [xillarini] va sasigan usti, parda qoplagan shishlar ham [kesiladi].

1294. Qorayib ketgan yara ustidagi yog', chirigan etlar ham.

1295. Uzayib qolgan lakluk va tishning milkida — oshib o'sib ketgan yeri ham [kesiladi].

1296. Rishta [kasalligida] va quloqni bekitib qo‘ygan to‘siqlar tufayli ham et kesiladi.

1297. Ko‘zning ustida ortiqcha bo‘lgan har bir et va ko‘z ichida ko‘rinadigan parda [noxuna]²⁷⁸ ham [kesiladi].

1298. Qovoq ichida paydo bo‘ladigan *tuta*, shatra²⁷⁹ va *zafarani*,²⁸⁰ xunasa,²⁸¹ kishining erlik olati va kindakdagi dabba [kesiladi].

1299. Bizning – erkaklarning jinsiy olatimiz pardasidan qorayib ketgani va orqa teshikning to‘silib qolgani [ham kesiladi].

1300. Manfaat yetkazish uchun sen kesadigan har bir [a‘zo] va shunga o‘xshash chetdan voqe bo‘lgan [kesilishda].

1301. Yorilganining iloji tikish bilan, shilingan²⁸² a‘zonikini esa et bitirish bilan bo‘ladi.

Etni dog‘lab kuydirish [yo‘li] bilan [bo‘ladigan] amal

1302. Badanlarda bo‘ladigan har qanday dog‘lash harakatli tomirdan qonni to‘xtatish uchundir,

1303. Va kesilgan katta tomirlardan hamki, ulardan oqayotgan qon [dori bilan tiyilmay] tabibni ojiz qilardi.

1304. Rutubatli badanlarni quritish va bo‘sh etlarni qattiqlatish uchun [ham dog‘lanadi].

1305. Dog‘lash sovugan badanlarni isitadi va namli [badanlarda] qancha davom etgan bo‘lmasin uni qaytaradi.

Etida qo‘l bilan qilinadigaya ishlardan biri yorishdir

1306. Sening yorishdan iborat bo‘lgan har bir ishing xiltlarni chiqarish uchundir.

1307. Masalan, shishdan yiringni chiqarish va to‘planib, sasib qolgan qonni chiqarish uchun.

1308. Ikki ko‘zdagi suv [kataraktani chiqarish] yoki *barada*,²⁸³ suv [rutubat] va tugunchaklarni [yorish] kabi.

1309. Va [ichdan chiqariladigan] toshlar, *sal’a*,²⁸⁴ *shiryon*²⁸⁵ va bezlar;

1310. Sariq suv kasalligi, suvlik va etlik *qila* kasalligi [kabi].²⁸⁶

**Qo'l bilan [qilinadigan] amallarning
uchinchi qismi suyak ustida qilinadigani,**

Avvalo suyakni o'z o'rniga qo'yish

1311. Suyak singanda yoki chiqqanda sen qiladigan har bir ish.
1312. Va sen davolaydigan har bir siniqning iloji o'z joyiga solish bilan bo'ladi:
1313. Ya'ni undagi siniq parchalarini o'z ta'biga muvofiq joy-joyiga tushirish, teshib chiqqanini arralab tashlash.
1314. Uni mustahkam — tibbiy hunar bilan siqmay va bo'sh ham qilmay bog'lanadi.
1315. Lattalarni²⁸⁷ o'rashni o'rtadan boshlanadi, keyin to o'ralib bo'lguncha mahkamlay beriladi.
1316. Uning ustidan boyloqlar va uning ustidan taxtakachlarni terib bog'lanadi.
1317. Avval [bemorning] ovqatini yengillashtir va to'lishsin [semirsin] uchun oxirida uni quyuq qil!
- 1318.. Avvalo uni qon oqib kelishi sababli issiq shish paydo bo'lishidan ehtiyot qil.
1319. O'sha shishning oldini olish uchun qo'lingdan kelgancha har bir sovuq[li narsa] bilan uni man' qil!
1320. To bitib tuzalguncha [bemorni] harakat qilishdan man' qil, uzoq [vaqt] sabr etmakka uni majbur qil!

Suyak chiqqanini davolash

1321. Chiqqan [suyak] o'z yeriga tushguncha uni tortasan.
1322. Uni o'z yeriga qaytarganingdan keyin bog'laysan va o'zing belgilaydigan vaqtgacha qo'yib qo'lasan.
1323. [Bemorga] doimo burishtiradigan — qobiz dorilar [ichirib], nordon ovqat yedirasan.
1324. To u shishdan salomat qolganini va qonning yig'ilib qolish xavfi ketganini ko'rguningcha [shunday qil].
1325. Uni tuzatishing uchun kamida bir oy va ba'zan o'n [kun] ham kifoya qiladi.
1326. Men amallarning hammasidan bo'shadim, endi mukammal so'zni tugallayman.

IZOHLAR

“URJUZA” TARJIMASIGA IZOHLAR

¹ T.(Toshkent nusxasi qo‘lyozmasi)da: “sochuvchi”.

² 5-baytga qarang.

³ T.da: “ko‘rsatganingdek”.

⁴ T.da 8—16- baytlar quyidagicha farqlanadi:

Tanqidiy matnda bo‘lmagan, lekin T.da bor qo‘shimchalar:

1. Ulug‘lik egasi bo‘lgan tangrining rahmatlari rostgo‘y xabarchi [payg‘ambar]ga bo‘lsin.

2. [Uning nomi] Muhammad, tangri unga elchilik [vazifasini] berdi-da, u xalqni yo‘ldan adashishdan qutqazdi.

3. Tangri uning tabiiy aqliga eshitilgan [naqliy] hujjatli haq [so‘zini] tuhfa qildi.

4. Keyin u[ning aqli] to‘lin oy yoki quyoshga tutashgan sezgi ko‘zining nuri kabi [ravshan] bo‘ldi.

5. Shuning uchun u uzoqni ham, yaqinni ham idrok eta oladi va fikrida gumonsirovchi bo‘lmadi.

6. Uning yaxshi fikri yomonini tarqatadi. Uning so‘zida to‘g‘rilik ayon bo‘lib turadi.

7. U kishi aqli nafsining xohishiga g‘olib keladi, u dunyodan oxiratni afzal ko‘radi.

8. U porloq nur [ya‘ni, Qur‘on] va asosli, qat‘iy hujjat-dalillar bilan haqiqatni gullatadi.

⁵ Abu Ali ibn Sinoning bu jumladagi fikridan inson hayvondan faqat mehnat qilish qobiliyati bilan ham ajraladi degan ma‘no anglashiladi.

⁶ Yuqorida Ibn Sino “Urjuza”ni Eronga kelganidan keyin yozganligiga ishora qilgan bo‘lsa, bu 15- va 16-baytlarda olim “Urjuza”da takomillashgan nazariy va amaliy tibbiy masalalar bayon qilinganligini va nasrda qo‘lga kiritilgan bilimlarini endilikda nazmda bayon qilayotganligini aytadi. Bu ikki baytdan, garchi aniq aytilmagan bo‘lsa ham, “Urjuza” Ibn Sinoning “Tib qonunlari” nomli nasrda yozilgan tibbiy asaridan keyin yozilganligi anglashiladi.

⁷ T.da “Tibning ta‘rifi haqida”.

⁸ Ya‘ni, quyidagi uch narsani o‘z ichiga oladi.

⁹ Yettita tabiat deyilganda quyidagilar tushuniladi: 1. Rukn (“Urjuza”yaing 23- va undan keyingi baytlariga qarang); 2. Mizoj (va undan keyingi baytlarga qarang); 3. Xiltlar (sakson va undan keyingi baytlarga qarang); 4. A’zolar (to’qson olti va undan keyingi baytlarga qarang); 5. Ruhlar (bir yuz yetti va undan so’nggi baytlarga qarang); 6. Quvvatlar (bir yuz o’n ikkinchi baytga qarang); 7. Ishlar (bir yuz yigirma olti va undan keyingi baytlarga qarang).

¹⁰ Oltita zaruriyat deyilganda quyidagilar anglashiladi: 1. Havo (“Urjuza”ning 131- va undan keyingi baytlariga qarang); 2. Yeyish va ichish; (162- va undan keyingi baytlarga qarang); 3. Uyqu va uyg’oqlik (180- va undan keyingi baytlarga qarang); 4. Harakat va harakatsizlik (189- va undan keyingi baytlarga qarang); 5. Bo’shanish va bo’shanmaslik (197- va undan keyingi baytlarga qarang); 6. Nafsoniy kayfiyatlar (209- va undan keyingi baytlarga qarang).

¹¹ Araz deb kasallikning tashqi alomatiga aytiladi.

¹² Rukn turli jismlarni paydo qiluvchi to’rtta asosiy unsur (yer, suv, havo, olov)dir (Qarang: “Qonun”, “Fan”, 1978-1983, VI-k; 437-bet).

¹³ Ya’ni badan bir xil tabiatli ruknlardan emas, balki issiq, ho’l va quruqlikda bir-biriga zid bo’lgan to’rt rukn tarkibidan paydo bo’lgandir. Bir narsaning buzilishi unga zid bo’lgan boshqa bir narsaning borligidan dalolat beradi. Agar shunday ziddiyat bo’lmasa, hech vaqtda tirik jonda kasallik yuz bermas edi.

¹⁴ Ibn Sinoning yozishicha, “unsurlarning nihoyatda mayda bo’laklaridan, qarama-qarshi kayfiyatlarning bir-biriga ta’siridan paydo bo’ladigan kayfiyatga mizoj deyiladi. Unsurlar o’z quvvatlari bilan bir-biriga ta’sir qilishlari natijasida bir kayfiyat vujudga keladi. Ana shu kayfiyat mizojdir. Unsurlardagi dastlabki quvvat to’rtta: issiqlik, sovuqlik, ho’llik, quruqlik” (“Qonun”, I, 11-bet).

¹⁵ Masalan, falonchining mizojiga issiqlik yoki sovuqlik g’alaba qilgan desa, bu yolg’iz-yolg’iz aytgani bo’ladi. Unga issiqlik va quruqlik yoki sovuq va ho’llik g’alaba qilgan deganda ikki xil mizojni birga qo’shib aytgan bo’ladi.

¹⁶ Bu yerda zamonga yilning to’rt fasli, o’sadigan narsalarga hamma jonivorlar va joyga esa yer yuzidagi yashash mumkin bo’lgan hamma joylar kiradi.

¹⁷ “Ustuqus” — yunon tilidan olingan so’z bo’lib, unsur yoki badan tarkibiy qismining dastlabki asosi demakdir.

¹⁸ Masalan, olovni issiq, suvni sovuq desak, demak, olovdan issiqroq va suvdan sovuqroq narsa yo’qdir va ular boshqa kayfiyat aralashgan issiq yoki sovuq narsalarning hammasidan issiqroq yoki sovuqroq degan bo’lamiz.

¹⁹ Bu yerda bulut deb havoni, tuproq deb yerni aytmoqchi. Qadimgi va o’rta asr olim-

larining ta'limoticha, ustuslardan biri bo'lgan olov [o't]dan murod bu bizga ma'lum olovimiz emas, chunki u vujudga emas, fasodga sababdir. Ammo vujudga sabab va ustuslardan biri hisoblanadigan olov falak qa'rida va havodan tepada turadigan olovdir. Bu olovda rang bo'lmaydi, chunki rang araz [keyin paydo bo'lgan narsa], ustusga hech narsa oriz bo'lmaydi (Ibn Rushd, 8b—9a-varaqlar).

²⁰ To'rt kayfiyat bir jihatdan muxtalif [kelishmovchi], ikkinchi tomondan muttafiq bo'lgan javhar [modda]lar orasida taqsimlangan. Shu jihatdan ular bizga kavn [hayot] ni baxsh etadi. Javharlarning muxtalifligi bir-biriga qarama-qarshiligidan, muttafiqligi esa bir kayfiyatda ikkitasining ishtirok etishidan kelib chiqadi. Masalan, olov bilan havoning issiqlikda, suv bilan yerning esa sovuqlikda ishtirok etgani kabi.

²¹ Masalan, falon narsaning mizoji issiq deyilsa, unda boshqa kayfiyatlar ham bor, lekin issiqlik g'olibroq, degan ma'no anglashiladi.

²² Ya'ni to'rt kayfiyatni bab-barobar o'ziga olgan mo'tadil mizojni biz qonun [o'lchov birligi] qilib olamiz. Qaysi narsaning kayfiyatini ta'riflasak, o'sha mo'tadilga nisbatan olgan bo'lamiz.

²³ Olovlikdan murod issiq-quruq, tuproqlikdan sovuq-quruq, suvlikdan esa sovuq-ho'ldir.

²⁴ Yeldan murod havodir.

²⁵ Mizojlar, umuman, to'qqizta, shundan bittasi mo'tadil, qolgani ikki xil kayfiyatga ega bo'lgan murakkab va bir xil kayfiyatga ega bo'lgan oddiy sodda mizojlardir.

²⁶ Ya'ni badan tabiatini o'zgartib, unga o'z ta'sirini o'tkazadigan narsa dori, badan unga g'olib kelib, u bilan g'izolansa — o'ssa, g'izo bo'ladi.

²⁷ “Yoshlar, — deydi Ibn Sino, — umuman, to'rt qismdir: 1. “O'sish yoshi”, bunga “o'smirlik” deb ham ism beriladi. Bu o'ttiz yilcha davom etadi. 2. “O'sishdan to'xtash yoshi” yoki “yoshlik davri”. Bu o'ttizdan o'ttiz besh yoki qirq yoshgacha bo'lgan davr. 3. Qisman quvvat bo'la turib cho'kish, bu o'rtacha yoshdagi kishilarga mansub bo'lib, oltmish yoshgacha davom etadi. 4. Kuchsizlik bilan birga “cho'kish yoshi”, bu umr oxirigacha cho'zilib, qarilarning yoshidir” (“Qonun”, V, 18-bet).

²⁸ Chunki keksalarda araziy rutubat bor.

²⁹ Bu haqda Ibn Sino “Qonun”da mufasssalroq gapirgan (“Qonun”, I, 21-bet).

³⁰ O'rtacha, ya'ni ortiqcha semiz ham, oriq ham bo'lmagan gavda yuqoridagi ikki darajaga nisbatan mo'tadil hisoblanadi.

³¹ Ya'ni kishi rangining o'zgarishiga ob-havoning ta'siri bo'lgan bo'lsa.

³² Zanj [yoki Zinj] Afrikaning sharqiy sohili va o'sha yerning aholisi.

³³ Saqlab jami saqoliba — slavnnya.

³⁴ Yetti iqlim. Bu haqda qarang: H. Hasanov. Oʻrtaosiyolik geograf va sayyohlar. Toshkent, 1964, 110—111-betlar.

³⁵ Jolinus moʻtadil iqlim deb toʻrtinchisini eas, beshinchisini qabul qilgan.

³⁶ Ibn Sinoning yozishicha, “qon yogʻlik, quyuq va yopishqoq boʻlar ekan, moʻy qora boʻladi, agar qon suvsimon boʻlib qolsa, moʻy oqara boshlaydi” (“Qonun”, I, 534-bet).

³⁷ al-Jalidiya.

³⁸ al-Bayziya.

³⁹ Asos qilib olingan matnda boʻlmasa ham T., S. — P. qoʻlyozmalarida va Ibn Roʻshdda bor boʻlmaganligi uchun bu bayt qoʻshildi.

⁴⁰ Shahlo koʻz deb, koʻkligi ozroq va koʻrkamroq yoki unga qizillik aralashgan koʻzga aytiladi. Oʻzbekchadagi qoʻykoʻzga toʻgʻri keladi.

⁴¹ Oʻrta asr Sharq tabobatida, shu jumladan, Ibn Sino asarlarida fiziologiya bilan patologiyaning negizi toʻrtta badan suyuqligi — xiltlar haqidagi taʼlimotga asoslanilgan edi. Yunonlar, xususan, Gippokratdan qabul qilingan bu taʼlimotga muvofiq, odamning badanida toʻrt xil xilt, chunonchi: qon, balgʻam, safro va savdo bordir. Qon arteriya va venalarda, balgʻam miyada, safro jigarda va savdo taloqda boʻladi. Bu xiltlar maʼlum miqdorda aralashganida va ularning oʻzlari moʻtadil [normal] boʻlganlarida kishi sogʻ boʻladi. (“Qonun”, I. Kirish, 1-bet).

⁴² Bu xili tabiiy saffrodir (“Komil as-sinoat at-tibbiya”, I, 46-bet).

⁴³ Asosiy, (yaʼni boshqaruvchi) aʼzolarga bosh miya, yurak, jigar va ikki moyak kiradi (“Urjuza”, 97, 88, 100 va 101-betlar).

⁴⁴ T.da: “badanni tirgazadi”; Ibn Roʻshdda: “badandagi haroratga”.

⁴⁵ Katta arteriya.

⁴⁶ “Ruh” yunoncha “pnevma”dan olingan boʻlib, inson gavdasida yuruvchi efirsimon bir jismni ifoda qiladi. Ibn Sino ruhga faylasuflar bergan “jon” maʼnosini bermaydi (“Qonun”, I, 107 va 437-betlar). Ibn Sinodagi ruh taʼbiri eski yunonchadagi “Pneumasoluk” taʼbirining ekvivalenti boʻlib, bu taʼbirdan koʻzda tutilgan maʼno Yevropada XVIII asrda (“force vitale” — “jon quvvati” nomi bilan takror maydonga chiqdi. Ibn Sinoning fikricha, ruh unsur [elementlar]ning aralashuvidan vujudga kelgan va osmon jismlariga oʻxshash bir holga ega boʻlgan jismoniy modda — jismdir. U yurakdan boshqaruvchi aʼzolarga oʻgib tarqaladi. Ibn Sino ruh bilan nafsni bir-biridan farqlaydi. Nafs nafsoniy hayotning moddiy boʻlmagan boshlanishi, sezuv, iroda va

aqliy quvvatlarning jamidir. Ruh esa boshlanishda moddiy bo‘lib, inson va hayvonlardagi hayotiy quvvatni tashuvchidir. Ruh va nafs orasidagi bunday farqni biz Platonda ham, Aristotelda ham uchratmaymiz, bu o‘rinda Ibn Sino fikri originaldir (“Ibn Sino Psixologiyasi”, 15-varaq).

⁴⁷ Ya’ni miya ichida, parda ostida bo‘ladigan ruh. Unga nafsoniy ruh deyiladi.

⁴⁸ Mana shu nafsoniy ruh uch xil bo‘lib, ular miya qorinchalarida yetiladi. Old qorinchada sezish va xayol qilish, o‘rta qorinchada tafakkur qilish, orqa qorinchada eslash va yodda saqlash moddalari mavjuddir (Ibn Rushd, 32a—32b).

⁴⁹ Quvvatlar — gavdadagi turli jarayonlarni yuzaga chiqaruvchi kuchlardir. Quvvatlar turlarining soni o‘ntadir:

1. Nafsoniy quvvat. 2. Tortuvchi quvvat. 3. Oziqlantiruvchi quvvat. 4. Shakl beruvchi quvvat. 5. O‘zgartiruvchi quvvat. 6. O‘stiruvchi quvvat. 7. Hazm quvvati. 8. Haydovchi quvvat, ya’ni organizmda paydo bo‘lgan chiqindilarni tashqariga chiqaruvchi quvvat. 9. Hayvoniy [yoki hayotiy] quvvat, yani a’zoldagi sezish, harakat va faoliyatni yuzaga chiqaruvchi quvvat. 10. Harakatlantiruvchi quvvat (“Qonun”, I, 441-bet).

⁵⁰ Ya’ni unga hali biron shakl berilmaydi-yu, lekin shaklga surat berishga tayyorlaydi.

⁵¹ T.da bu baytdan so‘ng “Hayotiy quvvatlar haqida” deb alohida sarlavha qo‘yilgan.

⁵² Ya’ni arteriyalarni.

⁵³ Hayotiy quvvatning ikkinchisi shahvoniy quvvat bo‘lib, u ta’sir etadigan har bir narsadan, ya’ni yaxshi narsalarni sevish va yomonlarini yomon ko‘rish bilan ta’sirlanadi (Ibn Rushd, 33b—34a-varaqlar).

⁵⁴ Ishtirok bilan, ya’ni iborati bitta-yu, tushunchasi bir necha bo‘lgan fe’l sifatida ishlatiladi. Fe’l oddiy va murakkab degan ikki qismga bo‘linadi. Masalan, “tortish”, “o‘zgartirish” va “tutish-ushlash” oddiy fe’ldir. Ammo “g‘izoning o‘tishi”, “ovqat talab bo‘lish” kabilar esa murakkab fe’ldir. Tabiblar so‘ziga ko‘ra ishtahani ochadigan a’zo oshqozon og‘zidir. Badan a’zolariga g‘izo yetishmay qolsa, oshqozon og‘zidagi g‘izoni tortadi-da, me’da og‘zi o‘sha g‘izoni yo‘qotganini sezadi va o‘rniga boshqa g‘izo talab qiladi. Ana shu holat och qolish deyiladi. Demak, a’zolarining me’da og‘zidan g‘izolarni tortishi va o‘sha tortib olingan g‘izoni yo‘qotganini me’da sezishidan murakkab bo‘lgan fe’llardan ishtaha hosil bo‘ladi. (Ibn Rushd, 34—35-varaqlar).

⁵⁵ “Urjuza”ning barcha nusxalarida: “va in tak” shaklida yozilgan. Arab tili grammatikasi qoidasiga muvofiq “va in takun” shaklida yozilishi kerak edi. Bu yerda vazn taqozosi bilan “takun”dagi “nun” tushirib qoldirilgan.

⁵⁶ “Munajjimlar ra’yiga ko‘ra yulduzlarning ba’zisida nuhus [bexosiyatlik], ba’zisida esa su’ud [xosiyatlik] bo‘ladi.

⁵⁷ Barcha nusxalarda “va in tak” shaklda yozilgan. Aslida “va in takun” deb yozilishi kerak edi. Bu joyda ham she’r, vazn buzilmasligi uchun keyingi “nun” tushirib qoldirilgan.

⁵⁸ T.da bular quyidagi ayrim-ayrim ikkita sarlavha ostiga olingan: “Shaharlarga qarab havoning o’zgarishi”; “Tog’larga qarab havoning o’zgarishi” (T. 379b-varaq).

⁵⁹ T.da bular quyidagicha ayrim-ayrim ikkita sarlavha ostida berilgan: “Dengizlarga qarab havoning o’zgarishi”; “Shamollarga qarab havoning o’zgarishi” (T. 379b-varaq).

⁶⁰ T.da: “Bu haqda ilm ahllarining aytishicha”.

⁶¹ Razroziy-toshlar ustida oqib keladigan suvda yashaydigan baliq.

⁶² Ibn Sino “Qonun” kitobida yozishicha, “miyaning uzunasiga uchta qorinchasi bo’lib, har bir qorincha eniga ikki bo’limga bo’linadi. Biroq miya oldingi qorinchasininggina o’ng va chap [qism]larga ajralib turishi [yaqqol] sezilarlidir” (“Qonun” III, 1-jild, 14-bet). Hozirda bu qorinchalar ikkita “yon qorinchalar” deb ataladi. Bundan tashqari Ibn Sino miyani “orqa qorincha” (hozirgi kunda “to’rtinchi qorincha” deb ataladi) va “o’rta qorincha” (hozirgi vaqtda “uchinchi qorincha” deb ataladi)ga bo’lgan. “O’rta qorincha”ni oldingi qismdan orqa qismga o’tadigan yo’l kabi va ikkisining o’rtasidagi “yo’lak” kabi deydi (“Qonun”, III, 1-jild, 14, 675—676-betlar).

⁶³ “Jismni oriqlatadi” o’rnida Ibn Rushd sharhida “jismda sovuqlik paydo qiladi”.

⁶⁴ Mo’tadil badantarbiya tabiiy haroratni kuchaytirish bilan birga badanni ham mo’tadil qiladi. Kishining harakati va o’sha tabiiy harorat yordami bilan badandagi xilt va kirlarni chiqaradi, chunki tabiiy harorat kuchaysa, chiqaruvchi va boshqa quvvatlar ham kuchayadi (Ibn Rushd. 46a-varaq).

⁶⁵ T.da og’irlik.

⁶⁶ Ya’ni mo’tadil riyoza o’sish davridagi bolalarning o’suvchi quvvatlariga quvvat qo’shadi. Riyoza bilan shug’ullanish, deydi Ibn Rushd, so’ngra hazm qilish ishi tugagandan keyin bo’lishi kerak; hazm qilish tugal tamom bo’lmay turib riyoza kirishish zararlidir. Hazm qilish me’dada, jigarda va a’zolarining o’zida bo’ladi (Ibn Rushd, 46a-varaq).

⁶⁷ Begona, ya’ni tabiiy bo’lmagan.

⁶⁸ *Misvok* — tish tozalagich, u arok nomli daraxtning novdasidan tayyorlanadi.

⁶⁹ Sariq suv kasalligi — istisqoni Ibn Rushd o’z sharhida “istisqo ziqqiy” deb sharhlaydi.

⁷⁰ Qulanj — [kolit, kolika] — yo’g’on ichak shilliq qavatining yallig’lanishi (“Qonun”, III, 2-jild, 199-bet).

⁷¹ Chunki maniyning badanda yigʻilib qolishi har xil yomon dardlar paydo qilishiga sabab boʻladi.

⁷² Yaʼni, jinsiy aloqaga koʻp ruju qilishdan ularni qaytar.

⁷³ *Niqris* — podagra.

⁷⁴ Qoʻrqish [fazaʼ an-nafs]; P.da: farax an-nafs [shodlik] shaklida yozilib, bosma xatoga yoʻl qoʻyilgan.

⁷⁵ Boʻlaklari bir-biriga oʻxshagan aʼzolar deb hammasining ham, bir boʻlagining ham nomi bir xil boʻlgan aʼzolar aytiladi, goʻsht va suyak kabi. Goʻshtning koʻpi ham, ozi ham goʻsht deyiladi. Ammo boʻlaklari bir butun-u, bir nomga ega boʻlmagan aʼzolar qurol aʼzolari deyiladi. Bunga qoʻl va boshni misol qila olamiz, chunki qoʻlning bir boʻlagi qoʻl deyilmaydi, har qaysi boʻlagining nomi boshqa-boshqa. Bosh ham shunga oʻxshash (Ibn Rushd, 49b—51a-varaqlar).

⁷⁶ Bu kasalliklar 8 xil boʻlib, issiqlik, sovuqlik, hoʻllik va quruqlikdan kelib chiqadi. Ularning har qaysisi yo modda [xilt]lik yo moddasiz boʻladi. Bularni Ibn Sino 213—221-baytlarda bayon qilgan.

⁷⁷ P.da: as-sahna; oʻqilishi kerak as-sahna.

⁷⁸ Bir butunlikning buzilishi boʻlaklari bir-biriga oʻxshash aʼzolarida ham, qurol aʼzolarida ham boʻlishi mumkin, chunki buzilish-ajralish qurol aʼzolarida, bir aʼzoning ikkinchi aʼzoga yopishganligida, boʻlaklari bir-biriga oʻxshash aʼzolarida esa bir aʼzoning oʻzida boʻladi; suyak sinishi va et uzilishi kabi (Ibn Rushd, 53a-varaq). Quyida 231—237-baytlarda Ibn Sino arab tilida maʼnosi bir-biriga yaqin boʻlgan, lekin tabiblar oʻrtasida maxsus termin sifatida ishlatiladigan soʻzlarni izohlaydi. Shu qoidani biz uning “Tib qonunlari”da va Ali ibn Abbos al-Maxusiyning “Komil as-sinoat”ida ham uchratamiz.

⁷⁹ T.da va A.da: “juftlangan”.

⁸⁰ Sabablar badan sirtidan va badan ichidan keluvchi degan ikki turga boʻlinadi. Birinchisi “bodiya” deb ataladi. Badan ichidan keluvchi sabablar yana ikki xilga ajraladi: biri yaqin sabablar, ular “vosita” — bogʻlovchi sabablar, ikkinchisi uzoq sabablar, ular “sobiqa” — oldingi sabablar deyiladi. Yaqin sabablar deb bir kasallikka xos boʻlgan, orada boshqa sabablar aralashmagan sabablar aytiladi. Uzoq sabablarga toʻlishlikni misol keltiriladi, chunki toʻlishlik toʻsiqlarga, toʻsiqliklar sasish-chirishga va sasish-chirish esa isitmaga sabab boʻladi (Ibn Rushd, 54a—54b-varaqdar).

⁸¹ Qachon sasish-chirish ketsa, sasish isitmasi ham ketadi. Chunki bu isitmaga oʻsha sasish-chirish bevosita bogʻlangan sabab boʻlgan edi.

⁸² Toʻlganlik toʻsiqlarga, toʻsiqlar chirish-sasishga, sasish-chirish esa isitmaga sabab

bo'ladi. Shuning uchun ham "uzoq sabab" deb ataladi.

⁸³ T.da bu sarlavha yo'q.

⁸⁴ T.da "suyuq".

⁸⁵ Hammom va pechkalarda tuynuk-teshiklar bo'lsa, issig'i ketib qolganidek badan g'ovak bo'lsa, undan issig'i ketib qoladi.

⁸⁶ T.da "yoki yuqoriga chiqishda".

⁸⁷ Ifriz al-varik.

⁸⁸ Bu yerda Ibn Sino "asab" so'zini she'r uchun "asaba" shaklida bergan. Arab tilida nerv ma'nosidagi "asab" so'zi bu shaklda kelmagan.

⁸⁹ A.da: "shishlarning ko'pi".

⁹⁰ Bunda ham "ad-davo al-qobiz" jumlasida o'rnida "al-qobiz ad-davo" deyishi arab tili qoidasiga xilofdir, chunki arab tilida avval sifatlanmish, keyin sifat kelishi kerak. Ibn Sino vazn taqozosi bilan aksincha qilgan va nahviy xatoga yo'l qo'ygan.

⁹¹ "Aqqor" ko'pligi "aqoqir" — dori yoki dorivor o'simliklar.

⁹² Qurbaga kasalligi — til ostida bo'ladigan lapsha kasalligi ("Qonun", III, 347—348-betlar).

⁹³ Ya'ni sanoqda kam bo'ladigan har bir a'zo moddaning kamligidan kelib chiqadi.

⁹⁴ Ibn Rushda "og'irlik" o'rnida "chiqindi-axlat" deb sharhlangan.

⁹⁵ Yuz beradigan belgi — "araz"lar uch xil bo'ladi: 1. A'zolarga yetadigan arazlar, ya'ni ularga yetishadigan zararlar. 2. Jism hollariga yetadigan arazlar, sarg'ayish va bo'shashish kabi. Ya'ni kasallikdan keyin badanda yuz beradigan o'zgarishlar. 3. Badandan chiqadigan [axlat, siydik va ter] narsalarga yetadigan arazlar (Ibn Rushd, 62a-varaq).

⁹⁶ Ya'ni a'zolarning funksiyalarida.

⁹⁷ Ya'ni bitta narsa unga ikkita bo'lib ko'rinishi (Ibn Rushd, 2b-varaq).

⁹⁸ "Dalillardir" o'rnida Ibn Rushdda "dardlardir" deyilgan.

⁹⁹ T.da "Fe'l".

¹⁰⁰ Ya'ni, amplitudasi.

¹⁰¹ Shunda aytilgan o'n xil kengayish miqdori 343—395-baytlarda zikr qilinadi. Shu raqamlar orasidagi sarlavhalarga qarang.

¹⁰² Uradigan tomirlarning uchta tarafi, ya'ni uzunlik, kenglik va chuqurligi nihoyasi-gacha yoyilsa, kengaysa.

¹⁰³ Tabiiy tomir urishining nisbati yoshga, yil fasllariga va yoylarga qarab turlicha bo'ladi. Teng — bir xil o'ldovli tomir urishi deb mo'tadil mizoj, mo'tadil yosh, mo'tadil joy va mo'tadil vaqtda bo'ladiganiga aytiladi (Ibn Rushd, 70a-varaq).

¹⁰⁴ Ya'ni yosh, yil fasllari va joylar taqozosi mos bo'lmaydi.

¹⁰⁵ Vazn, harakat va harakatsizlik vaqtida, quvvat va zaiflikda mo'tadil bo'lgan tomir urishi "e'tilofli" tomir urish, buning aksi "ixtilofli" tomir urish deb ataladi (Ibn Rushd, 70a—70b-varaqlar).

¹⁰⁶ Ya'ni muayyan bir davra qilgandan keyin boshqa davra qilmaydi. "Sichqon dum-chasi" deb sichqon dumiga o'xshab avval katta bo'lib, keyin kichiklashib boradigan xiliga aytiladi.

¹⁰⁷ Ya'ni nomlangan.

¹⁰⁸ Quvvati zaif bo'lgan paytda qurtga o'xshab harakat qilishi uchun "qurtsimon", undan ko'ra qattiqroq bo'lgani chumolisimon", to'ldinlanadigani "to'ldinsimon" va bo'laklari arra tishiga o'xshagan o'tkiri "arrasimon" deb nomlangan (Ibn Rushd, 72a-varaq).

¹⁰⁹ Ya'ni birida ortiqlik, ikkinchisida kamlik mavjud bo'ladi.

¹¹⁰ Tomir urishini mo'tadil mizojli kishining tomir urishi bilan o'ldanadi. Biror to-monga moyil bo'lgani aniqlansa, u mo'tadillikdan chiqqan bo'ladi.

¹¹¹ Ibn Sinoning yozishicha, unsurlarning nihoyat darajada mayda bo'laklaridan, qara-ma-qarshi kayfiyatlarining bir-biriga ta'siridan paydo bo'lgan kayfiyatga mizoj deyila-di. Unsurlar o'z quvvatlari bilan bir-birlariga ta'sir qilishlari natijasida bir kayfiyat vu-judga keladi. Ana shu kayfiyat mizojdir. Unsurlardagi dastlabki quvvat to'rtta: issiqlik, sovuqlik, ho'llik, quruqlik. Buzilib va mavjud bo'lib turgan jismlardagi mizojlar das-tlabki quvvatlardan vujudga keladi. Umuman qarashda, mizoj, aqlan taqsim e'tibori bilan ikkiga bo'linadi. Birinchisi, mizojning haqiqiy mo'tadil bo'lmog'i shu asosdagi, mizoj egasidagi qarama-qarshi kayfiyatlarining miqdori teng bo'ladi. Ana shu miqdor oralaridagi o'rta kayfiyat haqiqiy mo'tadil mizojdir. Ikkinchisi, qarama-qarshi kayfi-yatlar orasidagi mizoj mutlaqo barobar bo'lmay, ikki tomonning biriga, ya'ni sovuqlik yoki issiqlikning biriga yoki har ikkisiga moyilroq bo'lishidir ("Yurak dorilari" riso-lasi, birinchi nashri, 138-bet).

¹¹² Ya'ni ikkalasi ham mo'tadil bo'ladi.

¹¹³ Ya'ni tashlangan balg'amning quyuv bo'lishi g'aliz xilt borligiga va dardning qur-ishi sust bo'lishiga dalildir.

¹¹⁴ *Barsom* — zotiljamning bir xili (“Qonun”, III, 1-jild, 467-bet).

¹¹⁵ Jigar tabiiy quvvatlarning kelib chiqish joyi bo‘lgani uchun ular shu jigardan yordam oladi. Hayotiy quvvatlar yurakdan, sezish quvvatlari miyadan yordam olganidek (Ibn Rushd, 76a—76b-varaqlar).

¹¹⁶ *Kabid* — jigar so‘zini Ibn Sino ba‘zan muzakkar, ba‘zan muannas siyg‘asida berayapti. Haqiqatan, u har ikkala siyg‘asida ham kelaveradi. Bu Ibn Sinoning arab tilini yaxshi bilganiga dalolatdir.

¹¹⁷ Ya‘ni jigar o‘ziga borgan suvni xiltlardan ayirib buyrakka, buyrak esa uni siydik yo‘liga — qovuqqa uzatadi.

¹¹⁸ Yoki siydik tuta olmaslik.

¹¹⁹ “Isitma” so‘zi o‘rinda Ibn Rushdda “xina” deb tafsir qilingan.

¹²⁰ T.da bu bayt yo‘q.

¹²¹ “Andam”ni xuni siyovushon, baqam daraxti yelimi ham deyiladi (“Qonun”, II, № 186).

¹²² “Yorilgan” so‘zi o‘rinda Ibn Rushdda “otilib chiqqan” deyilgan.

¹²³ “Dubayla” ichki a‘zolarida bo‘ladigan yetilishi qiyin bo‘lgan yiringli shish. Agar u a‘zolarining tashqarisida bo‘lsa, “sal’a” deyiladi (Ibn Rushd, 80b—81a-varaqlar).

¹²⁴ “Falag‘muniy” yoki flegmona shishi — ichki a‘zolarida yuz beradigan kasallik nomi. Ibn Sino “Qonun”da bachadon va miyada bo‘ladigan flegmona haqida to‘xtalgan (“Qonun”, III, 1-jild, 97-bet; 2-jild, 440-bet). Falag‘muniy shishi, tabiblar tajribasiga ko‘ra, qon g‘alaba qilganidan bo‘ladi. Shuning uchun shu kasallikka muftalo bo‘lgan kishi sassiq qon siyadi (Ibn Rushd, 81a-varaq).

¹²⁵ Ya‘ni uning rangi, cho‘kmasi, suyuq-quyuqligi va hidi haqida.

¹²⁶ “Mosoriqo” — ingichka qattiq tomirlar bo‘lib, ichaklarning hammasi bilan bog‘langandir. Kaymusning suyuq qismi mosoriqoga tushib, jigar darvozasi nomli tomirga boradi, shunda jigarga, jigar darvozasining jigarga kirgan juda kichik qil kabi ingichka bo‘laklariga o‘tadi. O‘sha qil tomirlarning og‘izlari jigar do‘ngidan chiqqan tomir ildizlari bo‘laklarining og‘izlari bilan uchrashgan bo‘ladi (“Qonun”, I, 30—31-betlar).

¹²⁷ Ya‘ni u ter — “buhron” vaqtida chiqadigan foydali ter kabi emasdir.

¹²⁸ Shularning hammasi terning oz bo‘lishiga sababdir.

¹²⁹ Ya‘ni u chuchuk bo‘lsa, qon; achchiq bo‘lsa, safro; nordon bo‘lsa, savdo va sho‘r bo‘lsa, balg‘amdan darak beradi.

¹³⁰ “Buhron”ning ma’nosi “ajrim qilish” bo’lib, tibda sog’ayish yoki kasallikka tomon daf’atan o’zgarish demakdir (Mukammal ma’lumot olish uchun qarang: “Qonun”, IV. 159—168-betlar; “Urjuza”, “Buhronni bilishning bayoni” nomli fasli, 605—610-baytlar).

¹³¹ Ya’ni ter o’z vaqtida — isitma davrlarida va buhron kuniga birgalashib kelmasa.

¹³² Ya’ni dam olib yotmaslik, ovqatning ozligi, hammom va riyozatlarning kam bo’lmashligi.

¹³³ “Himus” yoki “kaymus”, ya’ni me’dada, ichaklarda va jigarda ovqatlarning fermentlar bilan aralashishi natijasida paydo bo’lgan va hazmga tayyorlangan modda.

¹³⁴ Bu yerda “qurib-qotib qolgan” so’zi o’rnida Ibn Rushd “maxfiy emasdir” deb sharhlagan (Ibn Rushd, 87b-varaq).

¹³⁵ Jig’ildon qaynashi ma’nosida bo’lsa kerak.

¹³⁶ S.P.da: “ter”.

¹³⁷ T.da: Ibn Rushdda ham “ko’ngil aynash”.

¹³⁸ S.P.da: “tirishish” hosil bo’ladi”.

¹³⁹ Shular balg’amni keltirib chiqaradigan sabablardandir.

¹⁴⁰ “Kaylus” — me’dada birinchi hazmidan o’tgan taomlarning sutga o’xshash shirasi.

¹⁴¹ “Bilginki, — deydi Ibn Sino, — kasalliklarning ko’pchiligida to’rt davr bo’ladi. Boshlanish davri, zo’rayish davri, nihoyatga yetish davri va pasayish davri. Bu davrlardan tashqari vaqt — sog’liq davridir (“Qonun”, I, 148-bet).

¹⁴² S.P.da “zarb”.

¹⁴³ T. va S.P.da: “dard va og’riqlar”.

¹⁴⁴ Buhrondagi xilma-xillikning oltita davri turi quyidagilardan iborat: 1. Ozgina vaqtda jism yaxshilik va hayot tomonga qarab o’zgaradi — bu tuzuk va yaxshi buhronidir. 2. Ahvol tez o’zgarib, kishini o’limga va yomon holatga olib boradi — bu halok qiluvchi yomon buhronidir. 3. Ahvol sust o’zgaradi va kasalni sog’lom holga olib boradi — buni tarqalish ham deyiladi. 4. O’zgarish sust bo’ladi, bunda betobning quvvatlari bo’shashib, yomon ahvolga tushib qoladi — bu so’lish ham deyiladi. 5. O’rtacha o’zgarishda bo’lib, kasalni o’limgacha olib boradi. 6. O’rtacha o’zgarishda bemorni hayotga qaytaradi.

¹⁴⁵ Chunki bu beshinchi va oltinchi xil buhronning har biri yuqoridagi to’rt buhronning ikkitasidan, ya’ni yaxshisi yaxshisidan va yomoni yomonidan tarkib topgandir (Ibn

Rushd, 97b-varaq).

¹⁴⁶ Ya'ni yomon buhron kunida va yetilish bo'lmaganda.

¹⁴⁷ Ibn Sino "Tib qonun"larida kasalliklardagi buhron kunlariga oy va quyoshning ta'siri haqida birmuncha mufassal to'xtaladi. Ibn Sino buhron kunlarini oy va quyoshga qarab belgilashda bir qancha shak-shubhalar va tortishuvlar borligini aytgach, bu masala bilan shug'ullanish tabiatshunos olimning ishi ekanligini, tabib esa ko'p tajriba orqali hosil bo'ladigan natijani bilishi lozimligini ta'kidlaydi ("Qonun", IV, 216—217-betlar).

¹⁴⁸ Ya'ni betoblikning to'rtinchi va yettinchi kunlarida buhron bo'lishining sababi o'ynig to'rtidan biri o'sha kunlarda va yarmi yettinchi kunlarda nur berishidir.

¹⁴⁹ "Su'ud" — yoki "Sa'ud" — oy manzillaridan 24-si.

¹⁵⁰ To'rt kunliklardagi buhronlar.

¹⁵¹ Bular aslida buhronlik kunlar emas, faqat qaytalanishi yomon bo'lgani uchun buhron kunlari deb hisoblanadi

¹⁵² Bu ishlar quloq orqasida, bo'yinda, qo'ltiq ostida, bo'g'inlarda va ba'zan hamma a'zolarida yuz beradi (Ibn Rushd, 104s-varaq).

¹⁵³ "Qonunga" degan so'zidan ikki xil ma'no anglashiladi: biri muallif o'zining "Tib qonunlari" nomli asarini ko'zda tutadi. Shunga ko'ra, "Urjuza" mazkur asardan keyin nazm qilingan bo'ladi. Yoki undan murodi tabobat qonuni, yo'l-yo'riqlari demoqchi. Ibn Rushd shu keyingi fikrdan boshqasini aytmagan (Qarang: Ibn Rushd, 106a-varaq).

¹⁵⁴ Ya'ni chakkasining eti suyagiga yopishib ketsa.

¹⁵⁵ Xiltlar miyaga chiqib, unga ta'sir qilganidandir.

¹⁵⁶ Ya'ni o'zi uyatchan odam bo'la turib, kishilar oldida ovoz bilan yel chiqarib yuborish yomon dard belgisidir, chunki u o'zini tuta olmay yelni chiqarishidan bo'lak iloj topmagan yoki bu hol uning aqliga xalal yetganidan nishonadir.

¹⁵⁷ T.da "sevintiruvchi".

¹⁵⁸ T., S.P. va Ibn Rushdda: "va yengillik ham bo'lsa hammasi uning tuzalishiga bir-lashuvchidir".

¹⁵⁹ "Melanxoliya" so'zi yunoncha ("melan chole") bo'lib, "savdo" xiltiga aytiladi. Kishi a'zosida savdo xiltining oshib ketishi natijasida yuz beradigan kasallikka "savdoyi" yoki "melanxoliya" deb ataladi ("Qonun", III, 1-jild, 12b-bet; "Yurak dorilari" risolasi, birinchi nashri, 160-bet).

¹⁶⁰ “Hummo mutbiqa”.

¹⁶¹ Venalarning kengayishi — ko‘pincha tananing pastki qismlarida — oyoqlarda uchrab, venalar ichidagi tazyiqning ko‘payishi, klapanlar ishining buzilishi va vena tomiri devorining kengayib xaltalanishi natijasidir.

¹⁶² Tda: “dalillarga asosan hukm qilish yo‘llari bayoni”.

¹⁶³ Dalillar ikki xil: biri to‘g‘ri dalil, bunda o‘ziga qarshi keladigan boshqa dalil badan-da bo‘lmaydi. Ikkinchisi – o‘ziga qarshi boshqa dalillar ham bo‘ladigan dalillar.

¹⁶⁴ T.da qo‘shimcha bir bayt bor: Har bir alomat — belgilarni, u [yomon] alomatga zid bo‘ladigan bo‘lsa, u salomatlik bilan shifo topishga duch keladi.

¹⁶⁵ Ya’ni u tabibni boshi berk ko‘chaga kiritib qo‘yadi.

¹⁶⁶ S.Pda: “so‘zlab bo‘lgan chog‘imda”.

¹⁶⁷ Bunda g‘izo va boqa narsalar bilan sog‘liqni qanday saqlash kerakligi bilinadi.

¹⁶⁸ S.P.da: “boshqa birisi”.

¹⁶⁹ Ya’ni dardni qanday qilib ketkazish va qanday dori bilan tuzatish chorasini ko‘rish-dan iborat.

¹⁷⁰ Agar u kishi issiq mizojli bo‘lsa, sovuq mizojli dori va ovqatlar bilan, aksincha bo‘lsa, issiqlik narsalar bilan davolash chorasini ko‘r.

¹⁷¹ Bu yerda Ibn Rushd “daholis” so‘zini yer ostidagi uy — yerto‘la deb sharhlagan (Ibn Rushd, 116b-varaq).

¹⁷² “Ta’liq” xati deb Temur davrigacha yozilib kelgan va shu davrdagi mashhur ixtiro-chi xattot Mir Ali Tabriziy tomonidan o‘zgartirilib, “nasta’liq” xatiga almashtirilgan xatga aytiladi. Hozirgacha ba’zi savodxon kishilarimiz o‘rtasida shu xat qo‘llanilib kelinadi.

¹⁷³ Qadimiy tabiblar fikricha, hazm a’zolari uchta bo‘lib, ovqat ularning hammasi-da o‘n sakkiz soat ichida to‘liq hazm bo‘ladi. Ikki kunda uch marta ovqat yeyilsa, uning to‘liq hazm bo‘lish vaqtiga yaqin yeyilgan bo‘ladi. Ya’ni har o‘n olti soatda bir bor yeyishga to‘g‘ri keladi. “Yaxshisi, – deydi Ibn Rushd, – ovqatning yaxshi hazm bo‘lishi har kimning o‘z holiga bog‘liq, shunga rioya qilish kifoya” (Ibn Rushd, 117a—117b-varaqlar).

¹⁷⁴ Ya’ni kishining odatlangan g‘izosi garchi yomon bo‘lsa ham, unga ko‘p zarar qil-maydi. Shuning uchun ko‘ngil tusagan ovqatdan tortinmaslik kerak. Ko‘ngil tusagan ovqatning foydasi oz bo‘lsa ham, ko‘ngil sevmagan foydali ovqatdan yaxshiroqdir, deyilgan (Ibn Rushd, 118a-varaq).

¹⁷⁵ “Sikboj” — go’sht va sirkadan tayyorlangan sho’rva, agar unga za’faron qo’shilsa “sariq sikboj” deyiladi.

¹⁷⁶ “Hisrimiya” — uzum g’o’rasidan tayyorlangan ovqat (“Qonun”, III, 1-jild, 733-bet).

¹⁷⁷ “Xalis” yoki “xabisa” — yog’ va xurmodan tayyorlanadigan holva.

¹⁷⁸ “Fusus” — sarimsoq solingan quymoq.

¹⁷⁹ Mol go’shti va shunga o’xshash go’shtlarni tuz bilan qaynatib pishirilgandan keyin suvi siqilguncha bir joyga qo’yiladi; keyin ehtiyojga qarab issiqlik va sovuqlik sabzavotlarni sirkada pishirib, mazkur go’shtni o’sha sirkaga solinadi; shu “hulom” yoki “hulomiya” deyiladi (“Qonun”, III, 1-jild, 737-bet).

¹⁸⁰ Baliq va echki bolasining go’shti kabi yengil go’shtlardan sirka, nordon narsalar, ho’l va quruq mevalar va xushbo’y dorivorlar bilan tayyorlanadigan ovqatga “qaris” yoki “qarisiya” deyiladi (“Qonun”, III, 1-jild, 737-bet).

¹⁸¹ “Tafshil” — sho’rvaning bir xili.

¹⁸² “Masus” — g’aliz va yengil go’shtlardan tayyorlanadigan ovqat nomi. Masus ich ketishni davolashda ham qo’llaniladi (“Qonun”, III, 2-jild, 184—185-betlar). Masusning bir xili shunday: issiqlik dorilardan gazako’t, zira va petrushka qo’shib qovurilgan tovuq go’shti sirka bilan yetiltiriladi.

¹⁸³ Xurmo va boshqa mevalardan tayyorlanadigan spirtli ichimlik.

¹⁸⁴ Ibn Sinoning may va mastlik haqidagi bu fikri uning may haqida yozgan fors-tojikcha to’rtligida ham takrorlangan.

¹⁸⁵ A’lo sifatli xushbo’y sharob.

¹⁸⁶ S.P.da: nordon-chuchuk behi.

¹⁸⁷ Ya’ni nafsoniy yuz berishlarda o’z sog’lig’ini saqlab qolishni istagan kishi nima qilmoq’i kerakligi haqida “Urjuza”ni nazariy qismining “Zaruriy ishlar” bobida aytib o’tilgan edi.

¹⁸⁸ Chunki ular qusishni daf qiladi va me’dani baquvvat qiladi.

¹⁸⁹ S.P.da: “yasmin moyi bilan”.

¹⁹⁰ Bu baytda T. va S.P.da keyingi fasl sarlavhasidan keyin berilgan.

¹⁹¹ Bu yerda arabcha jumla teskari tushgan: o’lim tufayli ochlikka erishmasin emas, balki ochlik tufayli o’limga erishmasin, demoqchi.

¹⁹² Ya'ni badani yumshoq va iliq bo'lgan kishi uni o'z quchog'iga olsin, shunda uning issig'idan foydadanib badani jonlanadi.

¹⁹³ T.da: — neft moyi bilan.

¹⁹⁴ “Samum” — issiq shamol, bu ko'pincha kunduz kunlari bo'ladi.

¹⁹⁵ Chunki harakatdan qon qiziya va ko'payadi-da, tomirlarga sig'may boshqa a'zolar-ga tushib ularni shishirishi mumkin. Qon olish shunday holatdan qutqazadi. Shuning uchun kishining qoni ko'payganda yoz fasli boshlanishi bilan undan qon olish kerak-ligini Jolinus ham ta'kidlaydi (Ibn Rushd, 126a-varaq).

¹⁹⁶ Uzum g'o'rasi, behi va achchiq anor kabi sovuq mizojli meva suvlari shular jum-lasidandir.

¹⁹⁷ Ibn Sinoning bu yerda arab tili balog'atiga qo'llaniladigan “Xitobdan g'aybatga va g'aybatdan xitobga o'tish” degan qasidasini ishlatayapti. U yuqorida 889—905-bay-tlarda tabibga yoki safarga chiquvchining kuzatuvchisiga xitob qilib kelib, keyingi 906—912-baytlarda to'g'ridan to'g'ri o'sha safarga chiquvchining o'ziga xitob qila boshladi.

¹⁹⁸ Chunki kofur mizojni sovitadi va tashnalikni ketkazadi.

¹⁹⁹ Ya'ni homilador ayollar ba'zan g'ayritabiiy — yeb bo'lmaydagan va hatto me'daga ziyon qiladigan narsalarga boshqorong'i bo'ladi. Binobarin, uning me'dani baquvvat qiladigan va yomon — zararli narsalarga ishtaha qo'yishdan qaytaradigan narsalar berish bilan me'dasini ehtiyot qilish kerak (Ibn Rushd, 127a-127b-varaqlar).

²⁰⁰ Chunki ungaurgi dori berishda qorindagi bolani tushirib qo'yish xavfi bo'ladi.

²⁰¹ Bu sarlavha faqat lotincha tarjimadagina bor.

²⁰² S.P.da: “tishi va ikki ko'zi toza bo'lsin”.

²⁰³ Ibn Rushdning mulohazasiga ko'ra, go'dakning tishi chiqmaguncha unga sutdan bo'lak ovqat berilmagani yaxshi, chunki uni chaynamasdan ichiga yutishi oqibatda ba'zi kasallikka chalilib qolishi ehtimoldan uzoq emas (Ibn Rushd 129b-varaq).

²⁰⁴ Ya'ni o'n to'rt, o'n besh yoshga.

²⁰⁵ Chunki bolaning mizoji rutubatli bo'lgani uchun ular zarar keltirishi mumkin.

²⁰⁶ Gul xushbo'y hidi bilan ruh javhariga yoqimlidir; xususan [ruhning] mizoji issiq bo'lsa, shunday bo'ladi. Chunki keyingi holda u o'zidagi sovuqligi bilan ruhga foy-da qiladi. Burishtirish bilak ruhni mustahkamlaydi. Shuning uchun gul suvini oz-oz xo'plab ichirilsa, issiqdan bo'lgan behushlikka va issiqdan bo'lgan xafaqonga juda foyda qiladi.

²⁰⁷ Ya'ni bahor va kuzda.

²⁰⁸ “Qifol” — qo‘lning yelka qismidan tashqi tarafda teri ostida joylashgan vena.

²⁰⁹ “Akhal” — tirsak bo‘g‘inining oldingi sathida tashqi va ichki teri osti venalarini biriktiruvchi vena.

²¹⁰ “Bosliq” — teri osti venasi.

²¹¹ Ya'ni betoblik oriz bo‘ladigan vaqtdagi muolajani uning oriz bo‘lishidan ilgari bajar.

²¹² Bu haqda 985—988-baytlarga qarang.

²¹³ Bu sarlavha faqat lotincha tarjimada bor.

²¹⁴ Ya'ni xiltlarni chiqarmasa ham, buzuv mizojga g‘alaba qilib, uni yaxshiga aylantiruvchi dorilarni ham zikr qilaman demoqchi.

²¹⁵ Quvvatlar birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi deb uch xilga ajraladi. Birlamchi quvvatlarga to‘rt kayfiyat — mizojlar (issiq, sovuq, ho‘l, quruq) va shularning tarkib topganlari kiradi. Ikkilamchi quvvatlar deb mazkur kayfiyatlarga tobe bo‘ladigan ta’sirlar aytiladi. Ular: yarani pishiruvchi, yumshatuvchi, qotiruvchi va to‘siqlarni ochuvchi, ularni toraytiruvchi, kuydiruvchi, etni kamaytiruvchi va uni o‘stiruvchi, bitiruvchi va og‘riqni to‘xtatuvchi kabi sifatlarga ega bo‘ladi. Bularning ta’siri hamma a’zolarida bo‘ladi. Ammo uchlamchisiga ega maxsus a’zolarida bo‘ladigan maxsus ta’sirlar kiradi. Ular: badandagi toshlarni maydalab — yo‘qotuvchi, siydik va hayz qonlarining kengayishini osonlantiruvchi, ko‘krak va o‘pkadagi xiltlarni chiqarishga yordam beruvchi, sut va maniyni kelishini osonlashtirib ko‘paytiruvchilardan iborat (*Qarang*: Ibn Rushd, 135a-varaq; “Komil as-sinoa at-tibbiya”, II, 92—98-betlar).

²¹⁶ Gummiarabik.

²¹⁷ “Qonun”, V, 10—13-betlaridagi “Murakkab dorilarning kerakligi” haqidagi “Nazariy maqolaga” qarang.

²¹⁸ Shu baytdagi “hijob” so‘zi tushunarli emas, lug‘atlarda unga berilgan ma’no yashirish — pardalash mazmunidan nariga o‘tmagan.

²¹⁹ Unsurlardagi dastlabki quvvat to‘rtta: issiqlik, sovuqlik, ho‘llik, quruqlik. Buzilib va mavjud bo‘lib turgan jismlardagi mizojlar shu dastlabki quvvatlardan vujudga keladi (“Qonun”, I, 11-bet).

²²⁰ Ya'ni o‘zgargirishning kuchliligi his qiluvchi a‘zo bilan sezilsa-yu, lekin unda o‘sha o‘zgartirilgan a‘zoni buzish, yomon ta’sir qilish bo‘lmasa.

²²¹ Sodda dorilarning umumiy ta’siriga kelganda, ularni Ibn Sino “Tib qonunlari”da

ham ikkiga boʻlgan. Birlamchilari — sovitish, qizdirish, hoʻllash va quritishdan iborat toʻrt taʼsirdir. Ikkilamchilariga kelsak, ular mazkur birlamchi taʼsirlarning oʻzlaridek boʻlsalar ham, lekin ogʻriqlik yoki ozlik chegaralari bilan oʻlchangan, solishtirib aniqlangan boʻladilar. Bularga kuydirish, sasitish, chiritish, qotirish va oqishdan toʻxtatish kabilar kiradi (“Qonun”, II, 25-bet). Ibn Sino “Tib qonunlari”da dorilarning oʻzlarida boʻlgan sifatlariga koʻra yana bir qancha tabaqalarga boʻladi. Birinchi tabaqa taʼsirlarga quyidagilar kiradi: qizdiruvchi, shimdiruvchi, erituvchi, tozalovchi, yellarni haydovchi, dagʻal qiluvchi, ochuvchi, boʻshashtiruvchi, yetiltiruvchi (yoki pishiruvchi), hazm qiluvchi, parchalovchi, yelni sindiruvchi, tortuvchi, achishtiruvchi, qizdiruvchi, qichituvchi, yara qiluvchi, yeyuvchi, kuydiruvchi, maydalovchi, sasituvchi, dogʻlovchi, shiluvchi kabi (“Qonun”, II, 27-bet).

²²² Pishiruvchi yoki yetiltiruvchi dori shundayki, u xiltini yetiltiradi, chunki u xiltini moʻtadillik bilan qizdiradi (“Qonun”, II, 28-bet).

²²³ T.da “chaqmaydi”.

²²⁴ “Bodzahr”, “fodzahr”, “bozahr” va “podzahr” shakllari ham uchraydi. Umuman, zaharlarga qarshi ishlatiladigan va ularni tortib oladigan dori.

²²⁵ Yaʼni oʻzi zaharli boʻlib, zaharlangan badanga oʻz xususiyatini aksi bilan foyda beradi; zaharlangan badandagi zaharni kesadi (Ibn Rushd, 145a-varaq).

²²⁶ Yaʼni bular ham buyraklardagi mayda toshni uvalatib tashlash xususiyatga ega.

²²⁷ “Vashm”.

²²⁸ T.da: “va biz tutatadigan tutatqilar kabi”.

²²⁹ S.P.da 1118-baytdan soʻng qoʻshimcha bir bayt kiritilgan: “Latta bilan bogʻlash, bugʻlash, paxtadogʻ qilish va ogʻizni gʻargʻara qilish kabi”.

²³⁰ Ibn Rushdda “oʻzgartirishga” soʻzi oʻrnida “taʼbir etish”, “tushuntirishga” deyilgan. Yaʼni, bular hammasi betobning dardi nimadan iborat ekanligini tushunish uchun tabibga yordam beruvchidir.

²³¹ S.P.da “besaranjomlanmasdan”.

²³² Yaʼni, qon oldirishdan boshqa.

²³³ Boʻshatishda shu oʻnta shartlarning hammasi mavjud boʻlishi va boʻlmasligiga eʼtibor berish kerak boʻladi. Mabodo ulardan bittasi yoki bir nechitasi mavjud boʻlmay qolsa, shunga qarab boʻshatish miqdorini kamaytirish lozim boʻladi. Aks holda, betob zararlanishi mumkin.

²³⁴ Olinmoqchi boʻlgan qonni u yigʻilgan aʼzoning oʻzidan emas, qandaydir bir sabablar bilan boshqa aʼzodan olishga toʻgʻri kelsa, u vaqtda oʻsha qon yigʻilgan aʼzoning

ro‘parasadagi a’zoga tomiri ulashgan a’zodan olinadi. Masalan: hayz qoni ko‘p oqqanda tabiblar emchakka, burunning o‘ng kavagidan qon oqqani uchun jigarga va chap kavagidan oqqanda qora taloqqa qortiq qo‘yishlari kabi (Ibn Rushd, 152a—152b-variantlar).

²³⁵ Ya’ni yuqorida aytib o‘tilgan o‘nta shart yoki qon g‘alaba qilganlik belgilarini ko‘rish sharti bilan.

²³⁶ Tomoqdagi bodom bezlarining yallig‘lanishi.

²³⁷ Lakluk va hiqildoq orasidagi joy.

²³⁸ P. (Parij nusxasi) tarjimasida “bavosir” deyilgan.

²³⁹ Ko‘zning ichki tomirlarining shishidan paydo bo‘ladigan yupqa parda yoki sirtqi tomirlarning shishidan vujudga keladigan tutunga o‘xshash xiralik.

²⁴⁰ Zarb yoki biron boshqa hodisa orqali ko‘zda qon yig‘ilib qolishdan paydo bo‘ladigan qizil nuqta.

²⁴¹ “Tut shaklidagi o‘sma”. “Dam-badam qonab turuvchi — usti yaralangan polip va papilloma bo‘lsa kerak” (“Qonun”, III, 1-jild, 254—698-betlar).

²⁴² Quymuch [o‘g‘irg‘ich] asabi Nervus Ischiadicus bu asabning yallig‘lanishi “ishias” deb ataladi. Ibn Sino bu asabning o‘zi ham, uning yallig‘lanishini ham bir termin bilan ataydi.

²⁴³ Bu baytda Ibn Sino arab tili qoidasiga xilof bo‘lsa ham, siyg‘asi muzakkar bo‘lgan “vaja” [og‘riq] so‘ziga sifat qilib, zarurati she’r uchun muannas siyg‘ada “naxisat” [sanchiqli] shaklida qilib berishga majbur bo‘lgan. Qoidaga ko‘ra, u so‘z “to” siz bo‘lishi kerak edi.

²⁴⁴ Yunoncha so‘z bo‘lib, isitma xillaridan “mutbiqa” deb ataladigan qon [mizojli] isitma (Ibn Rushd, 165a-variant).

²⁴⁵ Zotiljamning bir xili.

²⁴⁶ Ichburug‘.

²⁴⁷ Sovuq g‘aliz moddadan paydo bo‘ladigan dumaloq shakldagi shish. Uning rangi teri rangiga o‘xshaydi va og‘rig‘i bo‘lmaydi.

²⁴⁸ Isitma bilan badanga chiqadigan chiqiq, uning o‘rni bir oz shishadi. U o‘z joyidan boshqa joyga chumoliga o‘xshab o‘rmlab o‘tadi.

²⁴⁹ Kunora tutadigan isitmani qanday dorilar bilan davolasang, shularni ham shunday dori bilan davolagin.

²⁵⁰ Qon mizojli dardlarga ishlatiladigan sovuq mizojli dori va gʻizolarni ishlat.

²⁵¹ Ichburugʻ.

²⁵² Qulgʻuna [yogʻli oʻsmaga oʻxshaydi], lekin u yogʻli oʻsmadek etdan ajralib turmay, balki etga yopishib turishi bilan undan farq qiladi. Qulgʻuna yumshoq gʻovak etda paydo boʻladi. Buning ham asabli pardasi boʻladi. Qulgʻunaning juda kattasi ham boʻladi. Baʼzan uning bittasidan bir qancha qulgʻuna tugʻiladi, bu xususda u soʻgalga oʻxshaydi. Baʼzan ular marjondek tizilishib uzum boshiga oʻxshab ketadi. Qulgʻuna, koʻpincha, boʻyin va qoʻltiq tagida paydo boʻladi. Uni “xinzir” [choʻchqa] yoki “xanozir” [choʻchqalar] deb atalishi choʻchqalarda koʻp uchrashi sababli boʻlsa kerak. Yoki bunday atashga sabab qulgʻunaga uchragan kishi gardanining koʻrinishi choʻchqa gardaniga oʻxshab qolishidan boʻlsa kerak (“Qonun”, IV, 264—265-betlar).

²⁵³ “Fil kasalligi” deb qadam va pochalarining tabiiy holatdan ortiqcha yoʻgʻonlashib ketishiga aytiladi. Bu gʻaliz moddalarning, yaʼni koʻpincha savdoviy xilt va baʼzan balgʻamning ularga quyilishidan kelib chiqadi (Ibn Rushd, 157a-varaq).

²⁵⁴ Koʻz gavharining xiralanishi.

²⁵⁵ S.Pda va Ibn Rushdda: “va isitmalar”.

²⁵⁶ Maʼlum bir vaqtda balgʻam tufayli keladigan isitma.

²⁵⁷ “Sariq suv kasalligi”. 1. Qorinda suv yigʻilishi — jigarning sirroz kasalligida, ogʻirlashgan yurak nuqsoni kasalligida, baʼzan buyrak kasalliklarida uchrovchi qorin boʻshligʻida zardob yigʻilishi (assit). 2. Goʻshtda suv yigʻilishi (lahmiy) — turli patologik jarayonlar natijasida kelib chiqadigan mushaklar orasida suv yigʻilishi (kistalar). 3. “Nogʻorasimon istisqo” (tabliy) — bunga qorin boʻshligʻiga va uning yon-veriga yoyiluvchi yel moddasi sabab boʻladi. Shuning uchun boʻlsa kerak “nogʻorasimon” istisqo yel istisqosi ham deyiladi. “Nogʻorasimon” istisqo bilan ogʻrigan kishining qorniga qoʻl bilan urilsa, puflangan meshnikidek tovush eshitiladi. Bu istisqoda oyoq boshqa istisqolarda boʻlgani kabi shishmaydi (“Qonun”, I, 435-bet; III, 2-jidd, 76—85-betlar).

²⁵⁸ Balgʻamni suruvchi ichiladigan murakkab dori (Ibn Rushd, 147a—159b-varaqlar).

²⁵⁹ Bu oʻrinda burun kataklarini qoplovchi kasallik koʻzda tutiladi. Chunki bu et shaklan chilpoya [mingoyoq] ov qilayotgan vaqtida burun kataklarini yopgan holiga oʻxshaydi (“Komili as-sinoa”, 1-jild, 347-bet).

²⁶⁰ Eski tabiblarning fikricha, qorindagi ovqatning qattiq achib buzilishi ham savdoning gʻalaba qilganidan kelib chiqadi.

²⁶¹ “Tulki kasalligi” — moʻy toʻkilishi kasalligi, jumladan, kiprik toʻkilishi (“Qonun”, III, 1-jild, 257-bet).

- ²⁶² “Quvabo” — qasmoq yoki temiratki; bu kasallik “hazoz” ham deyiladi.
- ²⁶³ Jigarda sovuqlik paydo bo‘lishi ham savdoning natijasidir.
- ²⁶⁴ Yutaqish: “...me‘da og‘zi doimo ochiqqanga o‘xshab turadi; bu narsa ko‘pincha tashna qiladi, ba‘zan esa, agar tarqatilishi juda ko‘paysa, ochiqtiradi” (“Qonun”, III, 1- jild, 613-bet).
- ²⁶⁵ Yoki “ko‘pchish”.
- ²⁶⁶ S.P.da: “ikki biqinda”.
- ²⁶⁷ “Shatar” — qovoq ag‘darilishi.
- ²⁶⁸ S.P.da: “ikki biqinda”.
- ²⁶⁹ Ularning urmaydigan xilidan [venadan] qon olinadi.
- ²⁷⁰ Bilak buklanadigan yerda va qo‘ltiq bosilg‘ining yuqorisidagi ikkita teri osti venasining nomi. Bular badan tomiri deb ham aytiladi (Ibn Rushd. 160a-varaq).
- ²⁷¹ “Qifol” tomiri — tirsak bo‘g‘ini yaqinida uch qismga bo‘linadi. Ulardan biri — habl uz-ziro’ “bilak “arqoni”dir (“Qonun”, I, 118-bet).
- ²⁷² “Shaqiqa” — boshning bir tomonida bo‘ladigan og‘riq (migren).
- ²⁷³ S.P.da ikkinchi misra: “Istasang, uni ajrat yoki hammasini kes”.
- ²⁷⁴ “Mixchalar” — mixning qalpog‘iga o‘xshash oq tugunchalar (To‘laroq ma‘lumot olish uchun qarang. “Qonun”, IV, 271-bet).
- ²⁷⁵ Yuqori va pastki qovoqning ag‘darilishi, yorilishi; pastki qovoqning osilib tushishi.
- ²⁷⁶ Yara yoki zarba natijasida muguz qavati yirtilsa, o‘q-yoy parda ko‘rinib qoladi. Uning ko‘rinib turgan bo‘lagi uzum urug‘idek bo‘lib ko‘rinsa, u “uzum urug‘simon” [inabiya] deb ataladi (“Qonun”, III, 1-jild, 230-bet).
- ²⁷⁷ Erkaklarning emchagi xotinlarnikiga o‘xshab osilib ketgan bo‘lsa, qirqiladi (Ibn Rushd, 162b-varaq).
- ²⁷⁸ Shilliq pardaning yoki ko‘z g‘o‘lagini o‘rab turgan pardaning o‘shididir. Bu ko‘pincha ko‘zning ichki [burun tomon] burchagidan boshlanib, shilliq qatlamga qarab yoyiladi, ba‘zan muguz qavatini qoplab, uning ustiga o‘tadi, hatto ko‘rish teshigini bекitadi (“Qonun”, III, 1-jild, 239-bet).
- ²⁷⁹ “Shatra” ko‘pligi “shatoir”.
- ²⁸⁰ Ibn Rushdning sharhida “zafara” emas, “tufra” deb yozilgan.

²⁸¹ Erlik aʼzosi ham, xotinlik aʼzosi ham boʻlmagan kishidir. Bularning baʼzilarida ikkala aʼzo ham boʻlib, lekin biri yashirinroq va kuchsizroq, ikinchisi uning aksicha boʻladi. Baʼzilarda ikkala aʼzo barobar boʻladi. Koʻpincha, ulardagi ikki aʼzodan yashirinroqʼini kesib, jarohatni tuzatish bilan davolanadi (“Qonun”, III, 2-jild, 383-bet).

²⁸² S.P. va T.da: “shilingan”.

²⁸³ “Doʻl donasi” — bu qovoq ichkarisida quyilib qattiqlashgan rutubat boʻlib, tusi doʻlga oʻxshash oq boʻladi (“Qonun”, III, 1-jild, 252-bet).

²⁸⁴ Yogʻli oʻsma.

²⁸⁵ Arteriya — harakatli tomir (Toʻlaroq maʼlumot olish uchun qarang: “Qonun”, I, 433-bet).

²⁸⁶ Ibn Rushdning sharhida “qiyla” [dabba] suvlik va etlik degan ikki xilga boʻlinadi va shularning har ikkalasi ham yoriladi (Ibn Rushd, 164a-varaq).

²⁸⁷ Bintlar.